

**A.Karimov, X.Xoshimov**

**Umumiy kimyodan  
Masalalar va testlar  
to`plami**

**Akademik litsey va kasb-hunar  
kollejlari uchun o`quv qo`llanma**

## **SO`Z BOSHI**

O`zbekistonda ta`lim tizimini isloh qilishga qaratilgan. Qonunlarning qabul qilinishi, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosqichma – boshqich amalga oshirib borilishi, uzlusiz ta`lim tizimining muhum yangi yonalishlaridan biri, O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi tizimida yoshlarga ta`lim berish borasida dolzarb masalalarni oldimizga qo`ydi. Jumladan Akademik litseyda chuqurlashtirib o`qitiladigan fanlar bo`yicha, zamonaviy darsliklar va o`quv qo`llanmalarini yaratishni taqozo qilmoqda.

Umumiyl kimyo fani akademik litseylarning tabiiy fanlar yo`nalishida 1-kurs o`quvchilariga chuqurlashtirilgan dastur asosida o`qitiladi.

O`quvchilar 2-kursda o`qitiladigan Anorganik kimyo va Organik kimyo fanlarini yahshi o`zlashtirishlari uchun eng avvalo Umumiyl kimyonini yahshi o`zlashtirishi lozim.

Mazkur o`quv qo`llanma “Umumiyl kimyo” fani bo`yicha 2010 yilda Oliy ta`lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan Tarmoq ta`lim standarti asosida yozildi.

Qo`llanma ja`mi 15 bobdan iborat bo`lib, mavzularning ketma – ketligi umumiyl kimyo bo`yicha tasdiqlangan TTC da keltirilgan namunaviy o`quv dasturida keltirilgan mavzular ketma – ketligi aynan mos keladi. Shuni ta`kidlash lozimki, qonunlar, ta`riflar, qoidalar matematik formulalar, reaksiya tenglamalari ma`lumot sifatida keltirilgan. So`ngra shu o`rinda turli namunaviy masalalar, ularning yechimlari yoki ularni yechish bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar keltirilgan.

Har bir bob o`quvchilarning mustaqil yechishlari uchun keltirilgan masalalarning ham o`z ichiga oladi.

Mazkur qo`llanmada Atom tuzilishi, Kimyoviy bog`lanish, uning turlari, oddiy va murakkab moddalarning xossalari, kimyoning asosiy qonunlari, kimyoviy kinetika, kimyoviy muvozanat, katalitik reaksiyalar, oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari, elektrokimiya qonunlari va metallar korroziyasiga oid nazariy ma`lumotlar, namunaviy masalalar yechimlari va o`quvchilar mustaqil yechishi uchun masala, mashiqlar va testlar ma`lum ketma – ketlik bilan keltirilgan.

Shu bilan birga kitobning oxirida masalalar yechishda zarur bo`lgan ma`lumotlar, jadvallar ko`rinishida tushunarli qilib berilgan. Umumiylar kimyo fanidan chuqur bilimga ega bo`lishlari uchun yechilgan masalalar o`quvchilar uchun masalalar yechishning umumiylarini to`liq tushunib yechishlari uchun qulay qilib tuzilgan.

Masala va mashiqlarni yechishdan oldin, shu masalaga tegishli bobda keltirilgan barcha namunaviy masalalarning yechimlari bilan tanishish, ularni tahlil qilish va faqat shundan keyingina mustaqil yechish uchun keltirilgan masalalarni yechishga o`tishni tavsiya etamiz. I – XIV bobgacha jami 79 ta na`munaviy masalalar yechimlari bilan berilgan. Undan tashqari qo`llanmada murakkablik darajasi yuqori bo`lgan masalalarni yechishga etibor qaratilgan va 143 ta masala XV bobda keltirilgan. Shu bobda o`quvchilar mustaqil yechishlari uchun murakkab masalalarga ham o`rin berilgan. Talabalar mustaqil yechishlari uchun qo`llanmada, jami 575 ta test va masalalar javoblari bilan berilgan.

Mazkur qo`llanma Akademik litseylarda kimyo fani chuqurlashtirib o`qitiladigan guruh o`quvchilariga mo`jjallangan, undan tashqari oily o`quv yurtlariga kirish uchun tayyorlanayotgan abuturentlar va kollejlar bitiruvchi kurs o`quvchilari uchun mo`jjallangan.

## **Mualliflar:**

## I. BOB

### I. Atom tuzilishi haqidagi ta'limot.

Atom yunoncha so'z bo'lib "Bo'linmas" degan ma'noni anglatadi. Lekin atomning murakkab sistema ekanligini M. G. Pavlov 1819 yildayoq aytib o'tgan edi. XIX asrning 80-yillarida B. N. Chicherin atom huddi "Quyosh" sistemasi kabi tuzilgan va uning markaziga musbat zaryadli yadro joylashgan deb ta'riflagan edi. A. M. Butlerov 1886 yilda "atomlar bizga ma'lum kimyoviy jarayonlarda bo'linmas bo'lib qolsada, keyinchalik kashf etiladigan jarayonlarda albatta bo'linishi kerak" degan edi.

1896 yilda Bekkerel radioaktivlikni kashf qildi. 1904 yilda J. Tomson atomning barcha qismini musbat zaryad band etadi va uni manfiy zaryadli zarrachalar-elektronlar o'rab turadi degan fikrni aytdi. Ingliz olimi Ernest Rezerford tadqiqotlari natijasida atom tuzilishi haqida planetar nazariya vujudga keldi. Atomga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Atom – kimyoviy elementning eng kichik zarrachasi bo'lib, o'zida o'sha elementning barcha kimyoviy hossalarini mujassamlashtiradi. Atom elektroneytral zarracha bo'lib, u musbat zaryadli yadro va manfiy zaryadli elektronlardan iborat. Atomning deyarlik barcha massasini yadro massasi tashkil etadi. Atom yadrosi nuklonlardan, ya'ni proton va neytronlardan tuzilgan. Bu nazariya dastlab 1932 yilda D. D. Ivanenko va Ye. N. Gapon tomonidan taklif etilgan.

Elektron massasi  $m_0 = 9,11 \cdot 10^{-31}$  kg; uning zaryadi elektr zaryadining eng kichik miqdorini tashkil etadi, uning kattaligi  $e = 1,6 \cdot 10^{-19}$  kJ (Kulon) ga teng.

Atomning radiusi ham juda kichik:  $10^{-10}$  m. Masalan, vodorod atomining radiusi 0,053 nm (nanometr) bo'lsa, kumush atomining radiusi 0,144 nm ga teng. Yadro radiusi esa  $10^{-4} - 10^{-5}$  nm chamasida bo'ladi, ya'ni atomnikidan tahminan  $10^5$  marta (100000) kichikdir. Atom tuzilishi nazariyasi yaratilishida kimyoviy elementlarning optik spektrlarini tekshirish katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1911 yilda E. Rezerford atom tuzilishi haqida o'zining planetar (yohud nuklear) nazariyasini taklif qildi. Bu nazariyaga muvofiq atom markazida musbat zaryadli yadro mavjud bo'lib, uning atrofida elektronlar harakat qiladi. E. Rezerfordning tadqiqotlari yadro fizikasining yaratilishiga asos bo'ldi.

Elektron zaryadi qiymatini 1909 yilda R. Malliken aniqladi. Protonning massasini esa Ye. Goldshteyn aniqlagan edi. Proton massasi vodorod atom massasiga teng bo'lib chiqdi.

Neytron massasi ( $1,6747 \cdot 10^{-27}$  kg) 1932 yilda J. Chedvik tomonidan aniqlandi.

#### I.1. Atom yadrosining tuzilishi

Atom yadrosi atomning markaziy qismini tashkil etadi va unda ma'lum miqdorda proton va neytron (umumiyl nomlari – nuklonlar)lar joylashgan bo'lib, yadro o'ziga hos strukturaga ega sistemadir. Atom radiusi juda kichik, uning qiymati tahminan  $1,4 \cdot 10^{-15}$  ga teng (Ar – nisbiy atom massa). Deyarlik hamma yadrolarning

hajmi bir hil, ulardagi yadro massasini tashkil qiladigan zarrachalar orasidagi masofa juda yaqin, yadro materiyasining zichligi  $10^{+17}$  kg·m<sup>-3</sup> ga yaqin (1 sm<sup>3</sup> hajmdagi yadro moddasining massasi 100 mln tonnadan ziyoddir).

Yadroni tashkil etgan proton (belgisi-p) ning massasi  $m(p)=1,672649 \cdot 10^{-27}$  kg yoki uglerod birligi (massaning atom birligi)da 1,007276 ga va zaryadi +1 ga teng (elektrostatik birlikdagi qiymati  $1,602189 \cdot 10^{-19}$  kl). Yadro jarayonlarini aks ettirishda yoziladigan tenglamalarda bu zarrachani  $^1p$  ko'rinishda ifodalanadi.

Neytron (belgisi "n") neytral zarracha bo'lib, uning massasi  $m(n)=1,674954 \cdot 10^{-27}$  kg ga yoki 1,008665 m.a.b. ga teng. Yadroda nuklonlar mahsus yadro kuchlari vositasida o'zaro tortishib turadi. Yadroning muhim tavsiflaridan biri – unda massa defekti kuzatiladi, ya'ni har qanday yadro tarkibidagi nuklonlar massalarining yig'indisi bilan tajribada aniqlanadigan atom massasi o'zaro farq qiladi

Atom tuzilishi nuqtai nazardan Davriy sistemada:

**Tartib nomer** – elementning yadro zaryadi, protonlar va elektronlar soniga teng.

**Davr** – ishqoriy metallardan boshlanib, inert gazlar bilan tugaydigan gorizontal qatorga aytildi.

**Guruh** – Katta va kichik davrlarni o'z ichiga olgan vertikal qatorga aytildi.

**Izotoplар** - bularda protonlar soni o'zgarmaydi, neytronlar miqdori o'zgaruvchan (demak, atom massasi ham o'zgaruvchan) bo'ladi.

**Izobarлar** - protonlar va neytronlar soni o'zgaruvchan, lekin atom massasi o'zgarmas bo'lgan yadrolar turkumi.

**Izotonлar** - neytronlar soni o'zgarmas, protonlar va atom massasi o'zgaruvchan bo'lgan yadrolar.

## I.2. Kvant sonlar.

**Kvant sonlar.** Atom elektron qavatlardagi elektronlarning xolatini ifodalash uchun kvant sonlari ( $n, l, m, m_s$ ) tushunchalari kiritildi.

**Bosh kvant soni** – har bir elektron qavatdagи elektronning energiyasini belgilaydi va uning yadrodan qanday masofada joylashganligini ko'rsatadi. Uning qiymatlari  $n=1,2,3,4,5\dots\infty$  bo'lishi mumkin. Bosh kvant son tushunchasini 1913 yilda N.Bor tomonidan kiritilgan.

Energetik pog'onalardagi elektronlarning maksimal soni  $N=2n^2$  formula bilan ifodalanadi.

**Orbital kvant soni** – elektron orbitallarda elektronlar yadro atrofida qanday ko'rinishda harakatlanishi, ya'ni orbitallarning fazoviy tashqi ko'rinishini aniqlab berish uchun elektronning orbital kvant soni qabul qilingan va "l" harfi bilan belgilangan.

**Magnit kvant soni** – elektron orbital (bulutlari)ning magnit maydoni ta'sirida biror aniq yo'naliishiga nisbatan egallagan xolati sonini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda elektron bulutlari fazoda X,Y,Z – o'qlari bo'ylab qanday joylashganini ko'rsatadi, bu kvant soni  $m_l$  – harfi bilan belgilanib, (-1 dan +1) gacha qiymatlarni qabul qiladi.

Magnit kvant soni bir elektron qavat va bir orbitalga to'g'ri keluvchi energiya xolati – energetik yachevkalar sonini bildiradi.

### 1-jadval

<b>Qobiq tartib soni, (n)</b>	<b>Qobiqchalar soni, (l)</b>	<b>Qobiqchalar turlari</b>
1	0	$1s$ – qobiqcha
2	0,1	$2s$ va $2p$ qobiqchalar
3	0,1,2	$3s$ , $3p$ , va $3d$ qobiqchalar
4	0,1,2,3	$4s$ , $4p$ , $4d$ , va $4f$ qobiqchalar
5	0,1,2,3,4	$5s$ , $5p$ , $5d$ , $5f$ , va $5g$ qobiqchalar va hakazo

**Spin kvant soni** – elektron yadro atrofida aylanma harakat qilayotganda o'z o'qi atrofida ham aylanadi, elektroinning o'z o'qi atrofida qaysi tomonga harakatlanishini ko'rsatuvchi kattalik spin kvant soni deyiladi,  $m_s$  harfi bilan belgilanadi. Uning qiymati  $+\frac{1}{2}$  yoki  $-\frac{1}{2}$  bo'ladi.


**Pauli prinsipi** – atomda to'rtala kvant soni bir hil bo'lgan ikkita elektron bo'lmaydi. Ya'ni bitta yacheykada bir hil spinli ikkita elektron bo'lmaydi.

**Gund qoidasi** – pog'onachalardagi elektron spinlar yig'indisi maksimal qiymatga ega bo'lganda atom energetik jihatdan afzallikka ega bo'ladi. Ya'ni elektronlar yacheykalarga avval bittadan keyin ikkitadan joylashadi.

### I.3. Yadro reaksiyalari.

1913 yilda K. Fayans va F. Soddi radioaktiv yemirilish jarayonida siljish qoidasi yoki radioaktiv siljish qonunini ta'rifladilar: Agar yadro tarkibidan har bir  $\alpha$ -zarracha chiqib ketganida hosil bo'lgan yangi elementlarning tartib nomeri ikkitaga, massasi esa to'rt birlikka qadar kamaysa, har bir  $\beta$ -zarracha sochilganda esa yangi hosil bo'lgan element tartib raqami bittaga ortadi, massasi esa o'zgarmay qoladi. Bu qonun radioaktiv yemirilish jarayonida hosil bo'ladigan mahsulotlarni to'g'ri aniqlashdagi eng muhim qoidadir.

Barqarorligi kam bo'lgan yadrolar o'z-o'zidan yemirilib yangi elementlar yadrolarini hosil qiladi. Birinchi marta 1895 yilda A. Bekkerel kuzatgan radiaktivlik hodisasi uran yadrosining yemirilishiga tegishli edi:



**$\alpha$ -yemirilish** og'ir (massa soni 200 dan ortiq bo'lgan) elementlarda kuzatiladi, masalan:


$^{232}_{90}\text{Th} \rightarrow ^{228}_{88}\text{Ra} + ^4_2\text{He}$ . Bu jarayonda elementning tartib raqami 2 ga, massa soni esa 4 birlikka kamayadi.

$^0\beta$  - yemirilish jarayonida yadrodagи neytronlarning biri proton va elektronga aylanadi, katta energiyali elektron yadrodan otilib chiqadi. Yemirilish natijasida hosil

bo'lgan element tartib raqami boshlang'ich elementnikiga nisbatan bitta ortadi, massa soni o'zgarmaydi. Yangi hosil bo'lgan yadro dastlabki yadrosining izobariga ajlanadi.

${}^+_1\beta$  - yemirilish natijasida yadrodag'i proton neytronga aylanadi, yadrodan pozitron chiqib ketadi, yadro massa soni o'zgarmaydi, lekin yangi element yadro zaryadi dastlabki elementnikidan bitta kichik bo'ladi.

**K** - orbitaldag'i elektronning yadroga "qulashi", ("qamralishi") yadrodag'i protonning biri yadroga eng yaqin bo'lgan orbitaldan (K - qavat) elektronni biriktirib olishi va neytronga aylanishiga olib keladi. Natijada yadro zaryadi birga kamayadi. K-qamralish va  ${}^0\beta$  -yemirilishda yadro zaryadi birga kamayadi, lekin massa soni o'zgarmaydi, yadro ayni elementning izobariga aylanadi:



**2-jadval**

Nº	Zarracha nomi	Belgisi	Zaryadi	Massasi	Yadroga qo'shilsa	Yadrodan ajralsa
1	Proton	p	+1	1	$n + 1$ $m + 1$	$n - 1$ $m - 1$
2	Neytron	n	0	1	$n - o'zgarmaydi$ $m + 1$	$n - o'zgarmaydi$ $m + 1$
3	Alfa	$\alpha$	+2	4	$n + 2$ $m + 4$	$n - 2$ $m - 4$
4	Betta	$\beta$	-1	0	$n - 1$ $m - o'zgarmaydi$	$n + 1$ $m - o'zgarmaydi$
5	Elektron	e	-1	0	$n - 1$ $m - o'zgarmaydi$	$n + 1$ $m - o'zgarmaydi$
6	Deyteriy	D	+1	2	$n + 1$ $m + 2$	$n - 1$ $m - 2$
7	Pozitron	$\beta$	+1	0	$n + 1$ $m - o'zgarmaydi$	$n - 1$ $m - o'zgarmaydi$
8	Tritiy	T	+1	3	$n + 1$ $m + 3$	$n - 1$ $m - 3$
9	Protiy	H	+1	1	$n + 1$ $m + 1$	$n - 1$ $m - 1$
10	Gamma	$\gamma$	0	0	$n - o'zgarmaydi$ $m - o'zgarmaydi$	$n - o'zgarmaydi$ $m - o'zgarmaydi$

## Namunaviy masalalar.

**1-misol.** Quyida keltirilgan molekulalarni ularning tarkibidagi proton, neytron va elektronlar yig'indisi kamayib borishi tartibida joylashtiring.

- 1) deyterometan 2) suv; ; 3) ammiak; 4) o'ta og'ir suv ( $T_2O$ )

**Yechish:**

Formulasi	Molyar massa	Elektronlar soni	Protonlar soni	Neytronlar soni	Jami yig'indi
$CD_4$	20	$10\bar{e}$	10 p	10 n	30
$H_2O$	18	$10\bar{e}$	10 p	8 n	28
$NH_3$	17	$10\bar{e}$	10 p	7 n	27
$T_2O$	22	$10\bar{e}$	10 p	12 n	32

**Javob :** 4,1,2,3

**2- misol.** Elektronning yadroga qulashi natijasida qanday o'zgarish kuzatiladi?

- 1) neytron protonga aylanadi; 2) proton neytronga aylanadi;  
3) yadro zaryadi ortadi; 4) yadro zaryadi kamavadi.

**Yechish :** Yadrodagi protonning biri yadroga eng yaqin bo'lган orbitaldan elektronni biriktirib olishi va neytronga aylanadi. Natijada yadro zaryadi birga kamayadi

**Javob :** 2,4

**3- misol.** Elektronlar soni o'zaro teng bo'lган azot va vodorod aralashmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang.

**Yechish :** vodorod va azotning elektronlarini tenglab olamiz.

$$\begin{array}{ccc}
 H_2 & & N_2 \\
 2ta \bar{e} \longrightarrow 2 \text{ gr} \longrightarrow 1 \text{ mol} & & 14 ta \bar{e} \longrightarrow 28 \text{ gr} \longrightarrow 1 \text{ mol} \\
 & & ta \bar{e} \longrightarrow x = 4 \text{ gr} \longrightarrow x = 0.142 \text{ mol} \\
 D(He) = \frac{2+4}{1+0.142} = 1.31 & & 
 \end{array}$$

**Javob :** 1.31

**4-misol.** Azot (II) oksidi va ammiakdan iborat 11,2 litr (n.sh.) gazlar aralashmasida  $36,12 \cdot 10^{23}$  ta elektron bor bo'lsa, shu aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) hisoblang.


**Yechish:**

$$NO \text{ da } 15 ta \bar{e} \longrightarrow 22.4 \text{ litr} \quad NH_3 \text{ da esa } 10 ta \bar{e} \longrightarrow 22.4 \text{ litr}$$

$$x_1 = 7.5 \bar{e} \longrightarrow 11.2 \text{ litr} \quad x_2 = 5 \bar{e} \longrightarrow 11.2 \text{ litr}$$

Aralashmadagi elektronlarni mol miqdorini aniqlaymiz.

$$n = \frac{36.12}{6.02} = 6e^-$$



**Javob : 40 ; 60**

**5- misol.** Tabiiy rubidiy tarkibida ikkita izotop  $^{85}\text{Rb}$  va  $^{87}\text{Rb}$  bo'ladi. Rubidiyning nisbiy atom massasi 85.47 ga teng. Har qaysi izotopning massa ulushini foizlarda aniqlang.

**Yechish :**

**I-usul.** Izotoplarning molyar ulushlari yig'indisi 1 ga tengligini bilgan xolda, quyidagicha tenglama tuzamiz:

$^{85}\text{Rb}$  ning molini  $x$  ga ,  $^{87}\text{Rb}$  ning molini esa  $(1-x)$  ga teng

Demak;  $85x + 87(1-x) = 85.47$


$$85x + 87 - 87x = 85.47$$

$$2x = 1.53$$

$$x = 0.765 \text{ yoki } 76.5\% \text{ } ^{85}\text{Rb}$$

$$100 - 76.5 = 23.5\% \text{ } ^{87}\text{Rb}$$

**II-usul.** Diogonal usulidan foydalanamiz.



**Javob : 76.5 %  $^{87}\text{Rb}$  ; 23.5 %  $^{85}\text{Rb}$**

**6- misol.** Tabiatda tarqalgan magniyning 78.6% ni  $^{24}\text{Mg}$  izotopi, 10.1% ni  $^{25}\text{Mg}$  va 11.3 % ni  $^{26}\text{Mg}$  izotopi tashkil etadi. Magniyning o'rtacha nisbiy atom massasini toping.

**Yechilish.** Bu masalani yechishda barcha izotoplarni 100% deb olinib, har bir izotoplarni og`irliliklari hisoblab topiladi.

$$m(\text{o'rtacha}) = 24 \cdot 0,786 + 25 \cdot 0,101 + 26 \cdot 0,113 = 18,864 + 2,525 + 2,938 = 24,327$$

**Javob: 24,327**

**7-misol.** 6.72 litr (n.sh) ammiakga qancha hajm (l.n.sh) CO<sub>2</sub> qo'shilganda aralashmadagi elektronlar yig'indisi Avogadro sonidan 19.5 marta ko'p bo'ladi.

**Yechish:** NH<sub>3</sub> da jami  $10 e^-$  mavjud.

a)  $10 e^-$  ————— 22,4 litr

$x = 3 e^-$  ————— 6,72 litr

b)  $19,5 - 3 = 16,5 e^-$  CO<sub>2</sub> qo'shish kerak.

$$c) \text{CO}_2 \text{ da} \quad 22 \text{ e} \longrightarrow 22,4 \text{ litr}$$

$$16,5 \text{ e} \longrightarrow x = 16,8 \text{ litr hajmni egallaydi}$$

**Javob: 16,8 litr CO<sub>2</sub> qo'shish kerak.**

### **Mustaqil yechish uchun masalalar.**

1. Oksidi R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> formulaga ega bo'lgan elementning vodorodli birikmasi tarkibida 3,84 % vodorod bo'lsa, shu elementning nomini toping.
2. Ruteniy atomidagi *s*- va *d*-elektronlar sonini hisoblang.
3. Azot(IV) va azot(III) oksidlari qanday (mol) nisbatda olinganda ulardag'i atomlar soni 1,2:1 nisbatda bo'ladi?
4. Quyida keltirilgan molekulalarni ularning tarkibidagi proton, neytron va elektronlar yig'indisi kamayib borishi tartibida joylashtiring.  
1) N<sub>2</sub>O; 2) NO; 3) N<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 4) NO<sub>2</sub>; 5) N<sub>2</sub>O<sub>5</sub>
5. Bir xil sharoitda olingan ammiak va metilamin hajmlari qanday nisbatda bo'lsa, ularning birinchisidagi elektronlar soni ikkinchisidan ikki marta ko'p bo'ladi?
6. Bir xil miqdordagi metall 0,36 gr kislorodni yoki 3,6 gr galogenni biriktirib olishi mumkin. Galogenning ekvivalentini aniqlang.
7. CO<sub>2</sub> va CO dan iborat. 22,4 litr (n.sh.) aralashmada 10,67 mg elektron mavjud bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy uiushini (%) hisoblang (elektronning massasi proton massasidan 1836 marta kichik).
8. Biror element izotopining radioaktiv yemirilishida pozitron ajralib chiqsa, qanday jarayon sodir bo'ladi?  
1) massasi deyarli o'zgarmaydi;  
2) elektron yadroga qulaydi;  
3) neytron protonga aylanadi;  
4) proton neytronga aylanadi.
9. Geliyga nisbatan zichligi 14,5 bo'lgan, azot (III) va azot (IV) oksidlariidan iborat aralashmadagi azot va kislorod atomlari sonining nisbatini aniqlang.
10. 5,6 litr (n.sh.) ammiakda qancha hajm (l,n.sh.) kislorod qo'shilganda aralashmadagi elektronlar yig'indisi Avogadro sonidan 5,5 marta ko'p bo'ladi?
11. Quyida keltirilgan molekula va ionlar tarkibidagi proton, neytron va elektronlar yig'indisi kamayib borishi tartibidagi joylashtirilgan qatorni aniqlang.  
1) Be; 2) Be<sup>2+</sup>; 3) Li; 4) Li<sup>+</sup>;
12. Elektronlar soni o'zaro teng bo'lgan uglerod(IV) oksid va azot aralashmaning vodorodga nisbatan mi aniqlang.
13. Oltin atomidagi *s*- va *d*- elektronlar sonini hisoblang.
14. 11,2 litr (n.sh.) metanga necha gramm uglerod(IV) oksid qo'shganimizda aralashmadagi elektronlar yig'indisi Avogadro sonidan 16 marta ko'p bo'ladi?
15. Quyidagi keltirilgan molekulalarning tarkibidagi neytronlar soni kamayib borishi tartibida joylashtiring. 1) <sup>15</sup>N<sub>2</sub>; 2) <sup>13</sup>CO; 3) <sup>15</sup>NH<sub>3</sub>; 4) N<sub>2</sub><sup>18</sup>O.

16. 6,72 litr (n.sh.) ammiakga qancha hajm (l,n.sh.)  $\text{CO}_2$  qo`shilganda aralashmadagi elektronlar yig`indisi Avogadro sonidan 19,5 marta ko`p bo`ladi?
17. 112 litr (n.sh.) NO va  $\text{NO}_2$  aralashmasida  $596 \cdot 10^{23}$  elektron mavjud bo`lsa, ushbu aralashmadagi azot(II) oksidning hajmiy ulushini aniqlang.
18. 112 litr (n.sh.) CO va  $\text{CO}_2$  aralashmasida  $614,04 \cdot 10^{23}$  elektron mavjud bo`lsa, ushbu aralashmadagi uglerod(II) oksidning hajmiy ulushini aniqlang.
19. 22,4 litr (n.sh.) azotga necha gramm kislorod qo`shilganda aralashmadagi elektronlar yig`indisi Avogadro sonidan 22 marta ko`p bo`ladi?
20. 22,4 litr (n.sh.) CO va  $\text{CO}_2$  aralashmasida  $98,73 \cdot 10^{23}$  elektron mavjud bo`lsa, ushbu aralashmadagi uglerod(IV) oksidning miqdorini (mol) aniqlang.
21. Elektronlar soni o`zaro teng bo`lgan metan va ammiak aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
22. 22,4 litr (n.sh.) NO va  $\text{NO}_2$  aralashmasida  $104,75 \cdot 10^{23}$  elektron mavjud bo`lsa, ushbu aralashmadagi azot(II) oksidning hajmiy ulushini hisoblang.
23.  $^{238}\text{U}$ ,  $^{208}\text{Pb}$ ,  $^{226}\text{Rn}$  izotoplari yadrosidagi protonlar va neytronlar sonini hisoblang.
24.  $^{56}\text{Fe}$ ,  $^{56}\text{Mn}$ ,  $^{56}\text{Co}$  izotoplari yadrosidagi neytronlar sonini hisoblang.
25.  $^{112}\text{Cd}$ ,  $^{137}\text{Ba}$ ,  $^{201}\text{Hg}$  izotoplari yadrolari massasining necha foizini protonlar tashkil qiladi?
26.  $^{208}\text{Bi}$ ,  $^{207}\text{Pb}$ ,  $^{223}\text{Fr}$  izotoplari yadrolari massasining necha foizini neytronlar tashkil qiladi?
27.  $^{195}\text{Au}$ ,  $^{196}\text{Au}$ ,  $^{197}\text{Au}$  izotoplari yadrolari massasining necha foizini neytronlar tashkil qiladi?
28. Tabiiy xlor 75,4%  $^{35}\text{Cl}$  va 24,6%  $^{37}\text{Cl}$  izotoplari aralashmasidan iborat. Uning o`rtacha nisbiy atom massasini aniqlang.
29. Tabiiy stronsiy 82,56%  $^{88}\text{Sr}$  va 17,44%  $^{87}\text{Sr}$  izotoplar aralashmasidan iborat. Uning o`rtacha atom massasini aniqlang.
30. Tabiiy qo`rgoshin 1,48%  $^{204}\text{Pb}$ , 23,6%  $^{206}\text{Pb}$ , 22,6%  $^{207}\text{Pb}$ , va 52,38%  $^{208}\text{Pb}$  izotoplar aralashmasidan iborat. Uning o`rtacha atom massasini aniqlang.
31. Brom  $^{79}\text{Br}$  va  $^{81}\text{Br}$  izotoplar aralashmasidan iborat. Uning o`rtacha atom massasi 80 ga teng Izotoplarning foiz tarkibini aniqlang.
32.  $^{250}_{99}\text{Es} \rightarrow ^{230}_{92}\text{U} + {}^4_2\alpha + {}^0e$ . Ushbu yadro reaksiyasida  $54,18 \cdot 10^{19}$  dona elektron hosil bo`lsa, reaksiyaga kirishgan eynshteyniy izotopining miqdorini (mg) hisoblang.
33.  $^{256}_{93}\text{Es} \rightarrow ^{234}_{92}\text{U} + {}^4_2\alpha + {}^0\beta + {}^1_{0n}$ . Ushbu yadro reaksiyasida  $6,02 \cdot 10^{23}$  elektron hosil bo`lsa, reaksiyada yemirilgan eynshteyniy izotopining miqdorini (g) hisoblang.
34.  $^{256}_{100}\text{Fm} \rightarrow \text{Bk} + {}^4_2\alpha + {}^0e$ . 12,8 mg fermiy yemirilganda  $9,03 \cdot 10^{19}$  dona elektron hosil bo`lsa, reaksiya natijasida olingan berklifiy izotopidagi neytronlar sonini aniqlang.
35.  $^{236}_{94}\text{Pu} \rightarrow ^{224}_{89}\text{Ac} + {}^4_2\alpha + {}^0e$ . Ushbu yadro reaksiyasida  $36,12 \cdot 10^{18}$  dona elektron ajralgan bo`lsa, reaksiyada hosil bo`lgan aktiniy miqdorini (mg) hisoblang.


36.  $^{254}_{98}\text{Cf} \rightarrow \text{Cm} + x^4\alpha + y^0\gamma$ . 12,7 mg kaliforniy parchalanganda  $12,04 \cdot 10^{19}$  dona elektron hosil bo'lsa, reaksiya natijasida olingan kyuriy izotopidagi neytronlar sonini aniqlang.
37.  $^{245}_{94}\text{Pu} \rightarrow ^{209}_{83}\text{Bi} + x^4\alpha + y^0\gamma + 4^1n$ . Ushbu yadro reaksiyasida  $72,24 \cdot 10^{18}$  dona elektron hosil bo'lsa, reaksiya natijasida hosil bo'lgan vismut miqdorini (mg) hisoblang.
38.  $^{224}_{90}\text{Th} \rightarrow \text{Pb} + x^4\alpha + y^0\gamma + 2^1n$  ushbu yadro reaksiyasi asosida 11,2 mg toriy emirilishidan  $12,04 \cdot 10^{19}$  elektron ajralgan bo'lsa, reaksiya natijasida hosil bo'lgan qo'rg'oshin izotopining nisbiy atom massasini hisoblang.
39.  $^{224}_{90}\text{Th} \rightarrow \text{Pb} + x^4\alpha + y^0\gamma + 2^1n$ . Ushbu yadro reaksiyasi asosida 11,2 mg toriy yemirilishidan  $12,04 \cdot 10^{19}$  elektron ajralgan bo'lsa, reaksiya natijasida hosil bo'lgan qo'rg'oshin izotopidagi neytronlar sonini hisoblang.
40.  $^{250}_{102}\text{No} \rightarrow \text{Cm} + x^4\alpha + y^0\gamma$ . Ushbu yadro reaksiyasida 12,5 mg nobeliy yemirilishidan  $12,04 \cdot 10^{19}$  dona elektron ajralgan bo'lsa, kyuriy izotopining nisbiy atom massasini aniqlang.
41.  $^{250}_{99}\text{Es} \rightarrow ^{230}_{92}\text{U} + x^4\alpha + y^0\gamma$ . Ushbu yadro reaksiyasi asosida 50 mg eynshteyniy yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini hisoblang.
42. Moddaning 1 kg miqdori elementlarning elektronlari massasi 0,3227 gr ga teng. Shu moddani toping ( $m_e^- = 1/1823$  m.a.b)
43. Qaysi moddaning 1 kg miqdorida 0,2743 g elektron mavjud? ( $m_e^- = 1/1840$ )
44. Elektronlari soni o'zaro teng bo'lgan  $\text{NH}_3$  va  $\text{PH}_3$  aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
45.  $\text{CO}_2$  va CO dan iborat 22,4 litr (n.sh.) aralashmada 8,932 mg elektron mavjud bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy ulushini (%) hisoblang (elektronning massasi proton massasidan 1836 marta kichik).
46. Elektronlari soni o'zaro teng bo'lgan  $\text{N}_2\text{O}$  va  $\text{NO}_2$  aralashmasining havoga nisbatan zichligini aniqlang.
47. Oltingugurt  $^{32}\text{S}$  va  $^{34}\text{S}$  izotoplar aralashmasidan iborat. Uning o'rtacha atom massasi 32,064 ga teng. Izotoplaring foiz tarkibini aniqlang.
48.  $^{40}\text{K}$  izotopi  $^{40}\text{Ca}$  izotopi hosil bo'lishida qanday radioaktiv o'zgarish sodir bo'ladi? Elektron ajraladi.
49.  $^{238}\text{U}$  dan 2 ta  $\alpha$  va 3 ta  $\beta$  zarrachalar hosil bo'lsa, hosil bo'ladigan yangi elementning tartib raqami nechaga teng bo'ladi?
50. Berilliy izotopi  $^9_{4}\text{Be}$  bitta  $\alpha$  zarrachani yutib va neytron chiqarib qanday elementning izotopiga aylanadi?

## II. BOB

### Komyoviy bog`lanish va ularning turlari

#### II.1. Kovalent bog`lanish

Bu bog`lanishda barqaror konfiguratsiya ikki atom orasida bir yoki bir nechta umumiy elektron juftlar hosil bo`lishidan kelib chiqadi. Elektron juftlar hosil bo`lishida ikkala atom ham ishtirok etadi. Shuning uchun har bir atom umumiy juft uchun o`zidan albatta elektron beradi. Kovalent bog`lanish hosil bo`lishini bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Har birida bittadan elektron bo`lgan ikki vodorod atomi o`zaro yaqinlashganda vodorod molekulasini ( $H_2$ ) hosil qiladi. Bu jarayon quyidagicha ifoda qilinadi:



#### II.2. Komyoviy bog`lanish turlari

**Qutbsiz kovalent bog`lanish.** Elektromanfiyligi bir xil bo`lgan atomlar o`zaro ta'sirlashganda qutbsiz kovalent molekulalar (masalan,  $N_2$   $Cl_2$   $F_2$   $O_2$   $N_2$ ) hosil bo`ladi.

**Qutbli kovalent bog`lanish.** Elektromanfiyligi bir-biridan u qadar keskin farq qilmaydigan elementlarning atomlari o`zaro ta'sirlashganida umumiy elektron juft elektrmanfiyligi kattaroq bo`lgan atom tomonga siljiydi. Natijada qutbli kovalent molekulalar (HCl, HF, ba'zi organik moddalar) hosil bo`ladi.

**Metall bog`lanish.** Nisbatan erkin elektronlarning metall ionlari bilan o`zaro ta'sirlashuvi natijasida hosil bo`ladi. U asosan oddiy moddalar — metallarda uchraydi. Metall bog`lanishning hosil bo`lish mohiyati quyidagilardan iborat: metall atomlari o`zining valent elektronlaridan oson ajralib musbat zaryadli ionga aylanadi. Atomlardan ajralib chiqqan, nisbatan erkin elektronlar, musbat zaryadli metall ionlar oralig`iga tarqaladi va metall bog`lanish hosil bo`ladi, ya'ni elektronlar musbat zaryadli ionlarni metallarning kristall panjarasiga mahkam biriktiradi.

**Vodorod bog`lanish.** Biror molekulaning vodorod atomi bilan boshqa molekulaning kuchli elektrmanfiy element ( $O$ ,  $S$ ,  $F$ ,  $Cl$ ,  $Br$ ,  $N$ ) atomi orasida hosil bo`ladi.

Mohiyati: vodorod atomining radiusi nihoyatda kichik. Undan tashqari, vodorod atomi o`zining yagona elektronini siljitsa, yoki batamom yo`qotsa, u nisbatan yuqori musbat zaryadga ega bo`ladi, shunda qisman manfiy zaryadli boshqa molekula ( $HF$ ,  $H_2O$ ,  $NH_3$ ) lar tarkibidagi elektromanfiy element atomi qisman musbat zaryadli vodorod bilan birikadi.

#### II.3. Ion bog`lanish

Ion bog`lanish elektrostatik nazariya asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaga muvofiq atomning elektron berishi yoki elektron biriktirib olishi natijasida hosil bo`ladigan qarama-qarshi zaryadli ionlar elektrostatik kuchlar vositasida o`zaro

tortishib ularning tashqi qavatida 8 ta (oktet) yoki 2 ta (dublet) elektroni bo`lgan barqaror sistema hosil bo`ladi.

### Namunaviy masalalar.

**1-masala.** Quydagi elementlar orasidagi bog`ning qutbliligi ortib borish tartibini toping.

- 1) xlor – ftor;      2) brom – ftor;
- 3) yod – ftor;      4) brom – xlor;
- 5) yod – xlor;      6) yod – brom.

**Yechish:** Elementlar orasidagi bog`ning qutbliligini aniqlash uchun elementlarning nisbiy elektromanfiylik (n.e.m.) qiymati farqi qanchalik katta bo`lsa, bog` shunchalik qutbli bo`ladi.

Demak,	1) Cl — F 2,83 – 4,1 = 1,27	2) Br — F 2,74 – 4,1 = 1,36
	3) J — F 2,21 – 4,1 = 1,86	4) Br — Cl 2,74 – 2,83 = 0,09
	5) J — Cl 2,21 – 2,83 = 0,62	6) J — Br 2,21 – 2,74 = 0,53


**Javob:** 4, 6, 5, 1, 2, 3

**2-masala.** Suvning qaynash temperaturasi undagi kislород atomiga o`xshash elementlar gidridlari – vodorod sulfid, vodorod selenid va vodorod telluridlarning qaynash temperaturasidan yuqori ekanligi qanday izohlash mumkun?


**Javob:** Kislород guruhidagi elementlarning vodorodli birikmalari quyidagicha  $H_2O$ ,  $H_2S$ ,  $H_2Se$ ,  $H_2Te$ . Keltirilgan moddalar ichida  $H_2O$  molekulalari orasida kuchli vodorod bog`lanish mavjud bo`lganligi sababli yuqori temperaturada qaynaydi.

**3-masala.** Ammoniy xloridda qanday turdagи bog`lar mavjud?

**Yechishi:**  $NH_4^+$  molekulasining struktura formulasini yozamiz.



b)  $\begin{array}{c} H \\ : \\ H-N-H \end{array}$        $N-H$   
 $3 - 2,1 = 0,9$  bu elektromanfiylik qiymati farqi.



Elektromanfiylik qiymati farqi:

$0 - 0,4$	$0,4 - 1,8$	$1,8 \leq$
Qutbsiz	Qutbli	Ion
kovalent bog`lanish	kovalent bog`lanish	bog`lanish


Demak, qutbli kovalent bog`lanish.

c)  $\text{NH}_4\text{Cl}$  dissotsilanganda  $\text{NH}_4^+$  kationi va  $\text{Cl}^-$  anioniga parchalanadi.

Javob: 4 ta Kovalent, 1 ta donor akseptor va 1 ta ion.

**4-masala.** Alyuminiy pirofosfat molekulasida  $\sigma$  – va  $\pi$  – bog`lar sonini aniqlang.

**Yechish:** Alyuminiy pirofosfat molekulasida  $\sigma$  va  $\pi$  bog'larni aniqlash uchun, uning struktura formulasini yozish kerak.



formuladagi barcha yakka bog`lar  $\sigma$ -bog` ni tashkil etadi, qo`shtan bog`ning bittasi  $\sigma$ , bitta  $\pi$ -bog` hisoblanadi.

Javoh: 36 σ : 6 π

**5-masala.**  $\text{H}_2\text{O}$  va  $[\text{H}_3\text{O}]^+$  lar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy?  
 1) markaziy atomning gibridlanishi; 2) markaziy atomning oksidlanish darajasi;  
 3) fazoviy strukturasi; 4) markaziy atomning valentligi

**Yechishi:**  $\text{H}_2\text{O}$  ya  $[\text{H}_3\text{O}]^+$


1.  $\text{H}-\ddot{\text{O}}-\text{H}$  4 juft elektordan  $\pi$ -bog`lan sonini ayirsak  $4 - 0 = 4$   $s^1p^3$

$\text{H}-\ddot{\text{O}}-\text{H}$   $4 - 0 = 4$   $s^1p^3$

2.  $\text{H}_2\text{O}$  da kislороднинг валентлиги II ga,  $[\text{H}_3\text{O}]^+$  ионида esa III ga teng.

3.  $\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{H}_3\text{O}^+$  da kislороднинг оксидланиш даряси -2 ga teng.

4. Fazoviy tuzilishi.



**Javob: 1; 2**

**Mustaqil yechish uchun masalalar.**

51. Kimyoviy bog`lanishning qaysi turida qattiq jismning elektr o`tkazuvchanligi yuqori bo`ladi?
52. Qutbsiz kovalent bog`ga ega bo`lgan birikmalarni ko`rsating.  
1) metan, 2) oltingugurt (IV) oksid, 3) natriy ftorid, 4) vodorod,  
5) vodorod xlorid, 6) kislород, 7) ammiak, 8) brom, 9) ammoniy oksid.
53. Kovalent bog` tabiatli molekulalar qanday xususiyatga ega bo`ladi?  
1) suyuqlanish temperaturalari past, bog` energiyalari yuqori, suvda yomon eriydi  
2) suyuqlanish va qaynash temperaturalari yuqori, bog`lanish energiyalari yuqori, suvda yomon eriydi, issiqlik o`tkazuvchanligi yuqori  
3) suyuqlanish va qaynash temperaturalari past, bog`lanish energiyalari past, suvda eruvchanligi yahshi  
4) suyuqlanish va qaynash temperaturalari past, bog`lanish energiyalari yuqori, qutbsiz erituvchilardagi eruvchanligi yomon  
5) suyuqlanish va qaynash temperaturalari yuqori, bog`lanish energiyalari yuqori, benzoldagi eruvchanligi yahshi
54. Alyuminiy sulfat molekulasining tuzilish formulasidan alyuminiy va oltingugurt atomlari o`zaro nechta kislород atomlari orqali bog`langan?
55. Molekulasida donor – akseptor bog` bo`lgan moddani aniqlang.  
1) uglerod (IV) oksid; 2) kislород; 3) is gazi; 4) ammoniy ioni; 5) fosfin;  
6) azot(V)oksid; 7) kaliy nitrat; 8) xlor
56. Temir (III) gidrofosfat molekulasidan nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$  bog`lar bo`ladi?
57. Kadmiy gidroksosianid molekulasida nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?
58. Kalsiy gidrooksosulfat molekulasida nechta  $\sigma$ -bog` bo`ladi?
59. Quyidagi qaysi xususiyatlar uglerod(IV) oksidiga tegishli?  
1) markaziy atomining gibridlanish a)  $sp^3$  b)  $sp$ ;  
2) agregat holati ( $t=25^\circ\text{C}$ ): a) gaz; b) qattiq;  
3) suyuqlanish temperaturasi: a)  $-56,6^\circ\text{C}$  b)  $1610^\circ\text{C}$ :  
4) molekulaning fazoviy tuzilishi a) tetraedr; b) chiziqli
60. Alyuminiy digidrooksoxromat molekulasida nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?
61.  $\text{BeCl}_2$ ,  $\text{BeF}_2$ ,  $\text{CO}_2$  molekulalari uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?  
1) markaziy atomning gidridlanishi; 2) markaziy atomning valentligi;  
3) molekulaning fazoviy strukturasi; 4) bog` qutbli, molekula qutbsiz bo`lishi
62.  $\text{BF}_3$ ,  $\text{BCl}_3$ ,  $\text{SO}_3$  molekulalari uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?

- 1) markaziy atomning gibridlaniши;
  - 2) markaziy atomning valentligi;
  - 3) molekulaning fazoviy strukturasi;
  - 4) bog` qutbli, molekula qutbsiz bo`lishi;
63. Bariy gidrooksofosfat molekulasida nechtadan  $\sigma$  va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?
  64. Alyuminiy digidrofosfat molekulasida nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?
  65. Magniy gidrooksokarbonat molekulasida nechta  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog` bo`ladi?
  66. Magniy gidrooksoperxlorat molekulasida nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?
  67. Kobalt(III) hidrofosfat molekulasida nechta  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog` bo`ladi?
  68. Kalsiy hidrooksomanganat molekulasida nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog`lar bo`ladi?

### III BOB

#### III. Oddiy va murakkab moddalarining gaz, suyuq va qattiq holati.

##### III.1. Molekulalararo ta`sir va uning turlari.

Molekulalar orasida doimo o`zaro ta`sirlashuv mavjud bo`lib qutbli va qutubsiz molekulalarda har xil tarzda sodir bo`ladi. Bundan tashqari ----- ta`sirlashuv ham o`ziga xos tarzda yuzaga chiqadi.

Qutbsiz molekulalar  $H_2$ ,  $N_2$ ,  $Cl_2$  va invrt gazlar ma`lum sharoit va haroratda suyuqlik holatiga o`tadi. Shu paytda qutubsiz molekulalar orasidagi ta`sirlashuv dispersion ta`sir deyiladi.

Qutblangan molekulalar orasida vujudga keladigan molekulalar aro ta`sirlashuv oriyntasion ta`sir deyiladi. Bunda qutbli molekulalar har xil qutbli tomonlari bilan o`zaro tortishadi, bir xil qutblari bilan esa aksincha itarishadi.

Qutbli va qutbsiz molekulalar orasidagi ta`sirlashuv induksion ta`sir deyiladi. Molekulalar orasida elektronlar almashinuviz vujudga keladigan ta`sirlashuv kuchlari Vader – Vaal`s kuchlari deyiladi. Lekin bu kuchlar kovalent bog`lanishga nisbatan kuchsiz bo`ladi.

**Modda** – jismni tashkil etgan tartibiy qismiga aytildi.

**Masalan:** stakan (*jism*) ning tarkibi shisha (*modda*); mix (*jism*) ning tarkibi temir (*modda*).

Modda 2 xil bo`ladi: 1) oddiy 2) murakkab.

**1) Oddiy modda** – bir xil element atomlaridan tashkil topgan modda.

**Masalan:**  $Fe$ ,  $Cu$ ,  $O_2$ ,  $O_3$ ,  $P_4$ ,  $S_3$ ,

**2) Murakkab modda** – har xil element atomlaridan tashkil topgan modda.

**Masalan:**  $H_2O$ ,  $KOH$ ,  $HJO_3$ ,  $BaSO_4$ ,

**Toza modda** – fizik xossalari o`zgarmaydigan (olmos) moddalar.

Modda molekula va atomlardan yoki ionlardan tashkil topgan. Shunga ko`ra moddalar 2 xil:

**1) Molekulyar moddalar** – molekuladan tashkil topgan moddalardir. Bular suyuq (suv, kislotalar, barcha metallistik suyuq moddalar); gaz ( $Hgal$ ,  $H_2S$ ,  $O_2$ ,  $O_3$ ,  $H_2$ ,  $Cl_2$ ,  $F_2$ ,  $N_2$ ,  $NH_3$ ); qattiq (oq fosfor,  $CO_2$ ).

**2) Nomolekulyar moddalar** – atomlardan yoki ionlardan tashkil topgan moddalardir. Bular atomlardan ( $Si$ ,  $SiO_2$ , kvarts, olmos, qora P, qizil P, grafit, karbin, karborund, bor); ionlardan (barcha metall oksidlari, barcha asos va tuzlar).

### III.2. Element, atom va oddiy moddalarga tegishli tushuncha va xossalari

Element	Atom	Oddiy modda
1. Tartib raqami	1. Yadro zaryadi	1. Qaynash va suyuqlanish temperaturasi
2. Oksidlanish darajasi	2. Protoni	2. Agregat xolati
3. Valentlik	3. Neytroni	3. Eruvchanligi
	4. Elektroni	4. Zichligi
	5. Elektron qavati	5. Allotropik shakl o`zgarishlari
		6. Rangi, xidi va boshqalar

Murakkab moddalar	Aralashmalar
1. Doimiy tarkibga ega	1. O`zgaruvchan tarkibi
2. Modda xosil bo`lishida boshlang`ich moddalar xossalari saqlanib qolmaydi.	2. Aralashmalar hosil bo`lishida moddalarning xossalari saqlanib qoladi.
3. Murakkab moddalar xosil bo`lishida kimyoviy reaksiya alomatlari kuzatiladi – issiqlik chiqishi yoki yutilishi gaz ajralishi, cho`kma tushishi, rang o`zgarishi, hidning paydo bo`lishi.	3. Aralashmalar hosil bo`lishida kimyoviy reaksiya alomatlari kuzatilmaydi.
4. Murakkab moddalar tarkibiy qismlarga fizikaviy usullar bilan ajralmaydi – kimyoviy reaksiyalar kirishadi.	4. Aralashmalarni tarkibiy qismlarga fizikaviy usullar bilan ajratish mumkun.

### Na`munaviy masalalar.

**1-masala.** Kimyoviy birikmani tashkil etuvchi elementlarning massa ulushlari quyidagicha K-56.52 %; C-8.69 %; O-34.79 %. Shu birikmaning formulasini aniqlang.

#### Yechish:

3) Hisoblash uchun modda massasini 100 gr deb olinadi. Bunda kaliy, uglerod va kislorod atomlarining massalari quyidagiga teng bo`ladi:

$$m_{(K)} = 100 \cdot 0,5652 = 56,52 \text{ gr}$$

$$m_{(C)} = 100 \cdot 0,869 = 8,69 \text{ gr}$$

$$m_{(O)} = 100 \cdot 0,3479 = 34,79 \text{ gr}$$

2) Bularidan atomar kaliy, uglerod va kislorod miqdorlari topiladi:

$$x : y : z = \frac{56,52}{39} : \frac{8,69}{12} : \frac{34,79}{16} = 1,449 : 0,724 : 2,174$$

3) Olingan nisbatlar har biri alohida eng kichigiga bo`linadi.


$$\frac{1,449}{0,724} : \frac{0,724}{0,724} : \frac{2,174}{0,724} = 2 : 1 : 3$$

**Javob: moddaning molekulyar formulasasi  $K_2CO_3$**


**2-masala.** 3.2 gr noma`lum modda yonganda 8.8 gr  $CO_2$  va 7.2 gr  $H_2O$  hosil bo`ldi. Noma`lum moddani formulasini aniqlang .

**Yechish:** 1)  $x + O_2 = CO_2 + H_2O$

2)  $CO_2$  tarkibidagi uglerod massasi topiladi:



3)  $H_2O$  tarkibidagi  $H_2$  miqdori aniqlanadi:



4) chiqqan moddalar massasi qo'shiladi:

$$x_1 + x_2 = 2,4 + 0,8 = 3,2 \text{ gr}$$

Demak, noma'lum moddamiz 2 xil elementdan tashkil topgan ekan.

5) Ularning massalari o'z atom massalariga bo'linadi va chiqqan nisbatlar yana eng kichigiga bo'linadi.

$$x : y = \frac{2,4}{12} : \frac{0,8}{1} = 0,2 : 0,8 \text{ ya'ni } 1 : 4$$

**Javob:**  $CH_4$

**3-masala.** 2,4 gr metall oksidlanganda 4 gr oksid hosil qilsa. Bu qaysi metall.

**Yechish:** 1) Dastlab noma'lum oksidlangan metalning valentligi noma'lumligini bilgan holda hisoblash ekvivalent bo'yicha aniqlanadi.

2) 2,4 gr      4 gr

$Me + O_2 = Me_xO_y$  Reaksiyadan ko'rinish turibdiki modda massasining saqlanish qonuniga bo'ysunadi, ya'ni

$$4 \text{ gr } Me_xO_y - 2,4 \text{ gr } Me = 1,6 \text{ gr } O_2$$

kelib chiqadi.

3) Kislorodning ekvivalenti 8 ekv ga tengligini bilgan holda metallning ekvivalenti topiladi.



4) Metallning ekvivalentini bilgan holda metallning nisbiy atom massasi aniqlanadi.

$$A = E \cdot V \text{ ya'ni}$$

$$A = 12 \cdot I = 12 \text{ g massali metall yo'q.}$$


$$A = 12 \cdot II = 24 \text{ g}$$

**Javob:** Mg ekan.

**4-masala.** Taxir tuz deb ataluvchi  $MgSO_4 \cdot n H_2O$  modda tarkibida S-13% bo'lsa, "n" qiymatini toping.

**Yechish:** 1)  $MgSO_4 \cdot n H_2O$  kristallgidrat formulasini topish uchun dastlab uni 100 % deb belgilab olamiz.

2) 32 gr Oltingugurt 13 % bo'lsa, kristallgidratning umumiy massasini aniqlaymiz.



3) Kristallgidrat massasidan  $\text{MgSO}_4$  massasini ayirsak  $\text{H}_2\text{O}$  ning massasi kelib chiqadi.

$$\begin{aligned} \text{Mr}(\text{MgSO}_4) &= 120 \\ 246 - 120 &= 126 \text{ g H}_2\text{O massasi} \quad n = 126 : 18 = 7 \end{aligned}$$

**Javob:**  $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$

**5-masala.** Mis kuporosi va temir kuporosi aralashmasi tarkibida 39,2 % suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi mis(II) sulfatning massa ulushini (%) hisoblang.

**Yechish:** 1) Dastlab mis kuporosi va temir kuporosi tarkibidagi suvning (%) miqdorini aniqlaymiz.

$$\text{Cu SO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} = 160 + 90 = 250 \quad \omega = \frac{90}{250} \cdot 100 \% = 36 \%$$

$$\text{Fe SO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O} = 152 + 126 = 278 \quad \omega = \frac{126}{278} \cdot 100 \% = 45 \%$$

2) Aralashma tarkibidagi 39,2 % suvni o'rtaga qo'yib diagonal usuldan foydalananamiz.

$$\begin{array}{ccccc} 36 & & 5,8 & & x_1 = 64,4 \% \text{ Cu SO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} \\ & \diagdown & & \diagup & \\ 45 & & 39,2 & & \\ & \diagdown & & \diagup & \\ & & 3,2 & & x_2 = 35,6 \% \text{ Fe SO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O} \\ & & \underline{9} & & 100 \% \end{array}$$

3) mis(II) sulfat mis kuporosi tarkibida borligini bilgan holda, massa ulushini (%) hisoblab topamiz.

$$\begin{array}{ccc} 250 \text{ g Cu SO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} & \longrightarrow & 64,4 \% \\ 160 \text{ g CuSO}_4 & \longrightarrow & x = 41,2 \% \end{array}$$

**Javob:** 41,2 % CuSO<sub>4</sub>

**6- masala.**  $\text{Na}_2\text{HPO}_4 \cdot n \text{H}_2\text{O}$  kristallgidrat tarkibida vodorodning massa ulushi H-3,57 % ga teng bo'lsa "n" qiymatini toping.

**Yechish:**

**I – usul.** 1) Kristallgidrat tarkibida vodorod tuz tarkibida ham, suv tarkibida ham borligini xisobga olib tenglama tuzib olamiz.


$$\begin{array}{ccccccc} 1 & & 2n & & & & \\ \text{Na}_2 \text{HPO}_4 \cdot n \text{H}_2\text{O} & & \text{ya`ni} & & \frac{1+2n}{142+18n} & = & \frac{0,0357}{1} \\ 142 & & 18n & & & & \\ & & & & 5,0694 + 0,6426 n & = & 1 + 2n \\ & & & & 5,0694 - 1 & = & 2n - 0,6426 n \\ & & & & 4,0694 & = & 1,3574 n \\ & & & & n = 3 & & \end{array}$$

**II – usul:** 1) Kristallgidrat tarkibidagi "n" qiymatini aniqlash uchun tuz va suv tarkibidagi vodorodning massa ulushini (%) da aniqlab olamiz.

$$\text{Mr} (\text{Na}_2\text{HPO}_4) = 142 \text{ g} \quad \omega = \frac{1}{142} \cdot 100 \% = 0,7 \%$$

$$\text{Mr} (\text{H}_2\text{O}) = 18 \text{ g} \quad \omega = \frac{2}{18} \cdot 100 \% = 11,1 \%$$

2) Masala shartidagi H – 3,57 % ni o`rtaga qo`yib diagonal usul bo`yicha hisoblaymiz.



3) Kristallgidrat tarkibidagi tuzning massasi aniq ekanligidan foydalanib suvning massasi topiladi:

$$\begin{array}{ccc} 7,53 \text{ g} & & 2,87 \text{ g} \\ & \text{Na}_2 \text{HPO}_4 & \cdot n \text{H}_2\text{O} \\ 142 \text{ g} & & x = 54 : 18 = 3 \end{array}$$

**Javob:  $\text{Na}_2 \text{HPO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$**

**7-masala.** Xrom va alyuminiydan iborat 110 g qotishmadagi alyuminiyning massa ulushi 70 % bo`lsa, unga necha (g) xrom qo’shilganda  $\text{Cr}_2\text{Al}_3$  tarkibli qotishmaga aylanadi.

**Yechish:**

1) Dastlab 110 g qotishma tarkibida necha grammdan xrom va alyuminiy borligi aniqlanadi:

$$\begin{array}{ccc} 110 \text{ g} & \xlongequal{\phantom{1}} & 100 \% \\ x = 77 \text{ g Al ekan} & & 70 \% \end{array}$$

$$2) 110 - 77 = 33 \text{ g Cr}$$

$$3) x \xlongequal{\phantom{1}} 77$$

$$\begin{array}{ccc} \text{Cr}_2 & \text{Al}_3 & x = 98,86 - 33 = 65,86 \\ 104 & - 81 & \end{array}$$

**Javob: 65,86 g Cr qo’shish kerak.**

### Mustaqil yechish uchun masalalar.

69. Kimyoviy birikmani tashkil etuvchi elementlarning massa ulushlari quyidagicha Na-27.38%; H-1.19%; C-14.28%; O-57.15%. Shu birikmaning formulasini aniqlang.
70. 0,2 mol kalsiy karbonat va 0,1 mol malaxit aralashmasidagi uglerodning massa ulushini (%) hisoblang.
71. Kristall soda deb ataluvchi  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot n \text{H}_2\text{O}$  modda tarkibida natriy va uglerodlarning massa ulushlari 20.28 % bo’lsa, “n” qiymatini toping.
72. Kimyoviy birikmani tashkil etuvchi elementlarning massa ulushlari quyidagicha Na - 27.05 %; N – 16.47 %; O – 56.48 %. Shu birikmaning formulasini aniqlang.
73. 0,6 mol kaliy, natriy va kalsiyidan iborat aralashmaning og’irligi 22,1 g bo’lib,

suv bilan reaksiyaga kirishganda 0,9 g vodorod ajralib chiqdi. Boshlang'ich aralashmadagi natriyning massasini (g) hisoblang.

74. Kimyoviy birikmani tashkil etuvchi elementlarning massa ulushlari quyidagicha Hg - 86.27 %; S – 13.73 %; Shu birikmaning formulasini aniqlang.
75. 5 litr (n.sh.) etanni yoqish uchun tarkibida 12 % (hajm bo'yicha) ozon bo'lган kislorod va ozon aralashmasidan qancha hajm (l, n.sh.) zarur bo'ladi?
76. 0.23 g nomalum modda yonganda 0.44 g CO<sub>2</sub> va 0.27 g H<sub>2</sub>O hosil bo'ldi. Noma'lum moddani formulasini aniqlang.
77. 80 g kalsiy karbonat parchalanganda uning massasi 10 gramga kamaysa hosil bolgan aralashmadasi kaltsiy karbonataing massasini va kalsiy oksidning massa ulushini aniqlang.
78. 0.32 g noma'lum modda yonganda 0.44 g CO<sub>2</sub> va 0.36 g H<sub>2</sub>O hosil bo'ldi. Noma'lum moddaning formulasini aniqlang.
79. Kalsiy bromidning 80 g (60% li) to'yingan eritmasi qizdirildi va unda 20 g kalsiy bromid eritildi. So'ngra eritma sovutilib, oldingi holatga keltirilganda 42 g kristallgidrat cho'kmaga tushdi. Kristallgidratning formulasini aniqlang.
80. 2.25 g ishqoriy yer metall suvda eritilganda (n.sh) da 5600 ml gaz ajralgan bo'lsa, reaksiya uchun qaysi metall olingan.
81. 5.32 g ishqoriy metall suvda eritilganda (n.sh) da 0.448 litr gaz ajralgan bo'lsa, reaksiya uchun qaysi metall olingan.
82. Na<sub>2</sub>B<sub>4</sub>O<sub>7</sub> · nH<sub>2</sub>O kristalgidrat tarkibida kislorodning massa ulushi O-72.7 % ga teng bo'lsa "n" qiymatini toping.
83. Davriy sistemaning II-guruh elementining yuqori oksidi tarkibida kislorodning massa ulushi O - 10.46 % bo'lsa, elementni toping.
84. 0.9 mol azot va 0.9 mol ammoniy nitratdagi azotning massa ulushini aniqlang.
85. Temir kuporosi deb ataluvchi FeSO<sub>4</sub> · n H<sub>2</sub>O modda tarkibida temir va oltingugurtlarning massa ulushi 31.65 % ga teng bo'lsa, "n" qiymatini toping.
86. CaHPO<sub>4</sub> · n H<sub>2</sub>O kristalgidrat tarkibida vodorodning massa ulushi H-2.9 % ga teng bo'lsa "n" qiymatini toping.
87. Davriy sistemaning VII-guruh elementining yuqori oksidi tarkibida E-38.8 % bo'lsa, elementni toping.
88. 13,4 g kristall sodaga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda 1,12 litr (n.sh) gaz ajralib chiqsa, kristallogidrat formulasini aniqlang.
89. 15.6 g metall oksidlanganda 18.8 g oksid hosil qilsa. Bu qaysi metall.
90. 0.24 g nomalum modda yonganda 0.16 g Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va 0.256 g SO<sub>2</sub> hosil bo'ldi. Nomalum moddani formulasini aniqlang.
91. 168 g sariq qon tuzida necha dona azot atomi bor.
92. Reaksiya uchun 20 g temir va 20 g oltingugurt olingan bo'lsa, reaksiya natijasida necha (g) FeS hosil bo'ladi? Qaysi moddadan necha (g) ortib qoladi?
93. Natriy sulfatning 60 g to'yingan (34% li) eritmasi qizdirildi va unda 10 g natriy sulfat eritildi, So'ngra eritma oldingi holatigacha sovutilganda 35 g kristallgidrat cho'kmaga tushdi. Kristallogidratning formulasini aniqlang.

94. 14 g metall kislota bilan o'zaro ta'sirlashganda 5,6 litr (n.sh.) vodorodni siqib chiqardi. 11,2 g ushbu metall 21,3 g metalmas bilan to'la reaksiyaga kirishdi. Metalmasning molyar massasini hisoblang.
95. 4,26 g  $A_2B_5$  modda tarkibida  $36,12 \cdot 10^{21}$  dona A atomi bo'lsa. Ushbu moddaning molekulyar massasini hisoblang.
96. 6,2 g noma'lum modda yonganda 8,8 g karbonat angidrid, 9 g suv va 2,8 g azot hosil bo'lsa, uning formulasini aniqlang.
97. Bir xil miqdordagi metall 0,36 g kislorodni yoki 3,6 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Galogenning ekvivalentini aniqlang.
98. Kislorod orqali elektr uchqunlari o'tkazilganda hajmi 2,5 litr (n.sh.) ga kamaysa, uning boshlang'ich hajmini (l, n.sh.) aniqlang.
99. Mis va qalay qotishmasida har uch atom misga ikki atom qalay to'g'ri kelishi uchun shu qotishmada necha foiz mis bo'lishi kerak?
100. 4,6 g metall oksidlanganda 6,2 g oksid hosil qilsa. Bu qaysi metall.
101. Gips va glauber tuzi aralashmasi tarkibida 50 % suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi glauber tuzining massa ulushini (%) hisoblang.
102. Reaksiya uchun 4 g  $H_2$  va 32 g  $O_2$  olingan bo'lsa, reaksiya natijasida necha (g) suv hosil bo'ladi? Qaysi moddadan necha (g) ortib qoladi?
103. Mis va ruxdan iborat 120 g qotishmadagi misning massa ulushi 60% bo'lsa, unga necha (g) rux qo'shilganda  $Cu_3Zn_5$  tarkibli qotishma hosil bo'ladi?
104. 25,2 g temir kukuni qizdirilib yetarli miqdorda suv bug'i yuborilganda 1,2 g vodorod ajralsa, hosil bo'lgan mahsulotning kimyoviy formulasini aniqlang.
105. 6,39 g marganes oksidi alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda  $1,806 \cdot 10^{22}$  ta alyuminiy oksid hosil bo'lsa, marganesning qaysi oksidi qaytarilgan?
106.  $MgCO_3 \cdot xH_2O$  tarkibli tuzning ma'lum miqdordagi massasi gazlar ajralib chiqishi to'xtaguncha qizdirildi. Gazlar konsentrangan sulfat kislota va oxakli suv solingan yuvish sklyankalari orqali o'tkazildi. Birinchi sklyankanining massasi 1,8 grammga ortdi, ikkinchi sklyankada esa 1,97 g cho'kma tushdi. Boshlang'ich kristallgidratning massasini va tarkibini aniqlang.
107. Mis kuporosi va kristall soda aralashmasi tarkibida 41,4% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi sulfat ionining massa ulushini (%) hisoblang.
108. 28,4 gramm glauber tuzida nechta atom bor.
109.  $FeCl_3 \cdot nH_2O$  kristalgidrat tarkibida O-22,17 % bo'lsa "n" ning qiymatini aniqlang.
110. Mis va mis(II) nitrati ochiq havoda yuqori temperaturada qizdirilgandan keyin, massa o'zgarmagan. Aralashmadagi boshlang'ich moddalarning tarkibini (%) toping.
111.  $BaCl_2 \cdot nH_2O$  kristallgidrat tarkibida O-13,11% bo'lsa, "n" ning qiymatini aniqlang.
112. 6,06 g ishqoriy metall nitrati qizdirilganda 5,1 gramm nitrit xosil bo'ldi. Qaysi metall tuzi parchalangan.

113. Xrom va qalaydan iborat 220 g qotishmadagi xromning massa ulushi 15% bo'lsa, unga necha gramm qalay qo'shilganda  $\text{Cr}_2\text{Sn}_5$  tarkibli qotishmaga aylanadi.

## IV. BOB

### KIMYONING ASOSIY QONUNLARI

Bu qonunlar kimyoviy reaktsiya vaqtida sodir bo`ladigan o`zgarishlarni miqdoriy jihatdan tekshirish natijasida kashf etilgan bo`lib, ular kimyo fanining nazariy negizini tashkil etadi.

Kimyoning birinchi qonuni — moddalar massasining saqlanish qonunidir. Bu qonun dastlab M. V. Lomonosov va keyinchalik A. Lavuaze tomonidan ta’riflangan:

*kimyoviy reaktsiyalarda qatnashuvchi dastlabki moddalar massalarining yig`indisi reaktsiya mahsulotlari massalarining yig`indisiga tengdir.*

**Tarkibning doimiylik qonuni.** Prust tomonidan 1809 yilda kash etilgan. Kimyoning asosiylaridan biri, tarkibning doimiylik qonuni quyidagicha ta’riflandi: *har qanday kimyoviy toza birikma, olinish usulidan qat`i nazar, o`zgarmas miqdoriy tarkibga ega.* Masalan, toza suv tarkibida 11,11% vodorod va 88,89 % kislorod bo`lib, suv normal sharoitda 0°C da muzlaydi, 100°C da qaynaydi; uning 4°C dagi zichligi 1000 kg·m<sup>-3</sup> yoki 1 g·sm<sup>-3</sup> yoxud 1 g·ml<sup>-1</sup> ga teng; u o`zgarmas elektr o`tkazuvchanlikka, o`zgarmas qovushoqlikka ega.

**Karrali nisbatlar qonuni.** Ingliz olimi J. Dalton 1804 yilda moddaning tuzilishi haqidagi atomistik tasavvurlarga asoslanib, karrali nisbatlar qonunini ta’riflandi: agar ikki element o`zaro birikib bir necha kimyoviy birikma hosil qilsa, elementlardan birining shu birikmalardagi ikkinchi elementning bir xil massa miqdoriga to`g`ri keladigan massa miqdorlari o`zaro kichik butun sonlar nisbatida bo`ladi. Dalton, metan va etilen gazlarining tarkibiga e’tibor berdi: metan tarkibida 75% uglerod va 25% vodorod bo`lib, unda 1 massa qism vodorodga 3 massa qism uglerod to`g`ri keladi (ya’ni 3:1).

**Ekvivalentlar qonuni.** Vollaston 1814 yilda kimyoga ekvivalent («teng qiymatlari») degan tushunchani kiritdi.

*Elementning bir massa qism vodorod, sakkiz massa qism kislorod bilan birika oladigan yoki shularga almashina oladigan miqdori uning kimyoviy ekvivalenti deb ataladi.* Masalan, kaltsiyning ekvivalenti 20 ga teng, chunki 8 gr kislorod 20 gr kaltsiy bilan qoldiqsiz birikib, 28 gr kaltsiy oksid hosil qiladi. Kimyoviy elementlar bir-birlari bilan ekvivalentlarga muvofiq keladigan aniq miqdorlarda birikadi.

Ekvivalenti nomalum bo`lgan elementning ekvivalenti ma`lum bo`lgan element bilan hosil qilgan birikmasiga qarab, ikkinchi elementning ekvivalentini quyidagi **nominii** aniqlashda:

$$\frac{m_A}{m_B} = \frac{E_a}{E_b}$$
 formuladan foydalilaniladi:

#### IV.1. GEY-LYUSSAKNING HAJMIY NISBATLAR QONUNI

Frantsuz olimi Gey-Lyussak (1778—1850) ta’riflagan hajmiy nisbatlar qonuni atom massalar haqidagi masalani yechishga katta yordam berdi. Bu qonun quyidagicha ta’riflanadi: *kimyoviy reaktsiyaga kirishuvchi gazlarning hajmlari o`zaro va reaktsiya natijasida hosil bo`ladigan gazlarning hajmlari bilan oddiy butun sonlar*

*nisbati kabi nisbatda bo`ladi.* Masalan, 2 hajm vodorod 1 hajm kislород bilan yuqori temperaturada reaktsiyaga kirishganda 2 hajm suv bug`i hosil bo`ladi. Albatta, bunday reaktsiyada ishtirok etgan gazlarning hajmlari bir xil bosim va bir xil temperaturada o`lchanilishi lozim.

#### IV.2. Moddalarning ekvivalentini topish formulasi.

Nº	Modda	Formula	Misol
1	Oddiy modda	$E = \frac{Ar}{\sigma}$	$E_{Ca} = \frac{40}{2} = 20$
2	Kislota	$E = \frac{Mr}{N(H)}$	$EH_3PO_4 = \frac{98}{3} = 32,67$
3	Asos	$E = \frac{Mr}{n(OH)}$	$E_{KOH} = \frac{39}{1} = 39$
4	Oksid	$E = \frac{Mr}{Atomsoni \cdot \sigma}$	$E(CO_2) = \frac{44}{1 \cdot 4} = 11$
5	Tuz	$E = \frac{Mr}{Atomsoni \cdot \sigma}$	$E_{Al(SO_4)_2} = \frac{342}{2 \cdot 3} = 57$

Italiyalik olim A. Avogadro (1776—1856) hajmiy nisbatlar qonunini tushuntirish uchun 1811 yilda quyidagi gipotezani yaratdi: *bir xil sharoitda (bir xil temperatura va bir xil bosimda) va baravar hajmda olingan turli gazlarning molekulalari soni o`zaro teng bo`ladi.*

Avogadro qonunidan uchta xulosa kelib chiqadi:

1) oddiy gazlarning (kislород, vodorod, azot, xlor) molekulalari ikki atomdan iborat;

2) normal sharoitda bir mol miqdordagi gaz 22,4 litr hajmni egallaydi;

3) bir xil sharoitda baravar hajmda olingan ikki gaz massalari orasidagi nisbat shu gazlarning molekulyar massalari orasidagi nisbatga teng.

Muayyan kimyoviy element atomlarining ikki yoki bir necha xil oddiy modda hosil qilish hodisasi allotropiya deyiladi; bu oddiy moddalarning har biri allotropik shakl ko`rinishi yoki modifikatsiyasi deb ataladi.

#### Na`munaviy masalalar

**1-masala.** HBrO<sub>3</sub>, Br<sub>2</sub> HBrO<sub>2</sub>, HBrO<sub>4</sub> birikmalardagi Br<sub>2</sub> ekvivalentini aniqlang.

**Yechish:**

Birikmalardagi bromni ekvivalentini aniqlash uchun dastlab brom birikmalariga valentligini aniqlaymiz.

- 1)  $H - O - Br$       2)  $Br - Br$ ;      3)  $H - O - Br = O$ ;
- 4)  $H - O - Br$

formuladan ko`rinib turibdiki  $\text{HBrO}_3$  da V;  $\text{Br}_2$  da I;  $\text{HBrO}_2$  da III;  $\text{HBrO}_4$  da esa VII valentli ekan.

$E = \frac{A}{V}$  formuladan foydalanib har bir birikmadagi bromning ekvivalentini aniqlaymiz.

$$1) \quad E_{\text{4BrO}_3} = \frac{80}{V} = 16 \text{ ekv};$$

$$2) \quad E_{\text{Br}_2} = \frac{80}{I} = 80 \text{ ekv}$$

$$3) \quad E_{\text{4BrO}_2} = \frac{80}{III} = 26,7 \text{ ekv};$$

$$3) \quad E_{\text{4BrO}_4} = \frac{80}{VII} = 11,4 \text{ ekv}$$

**Javob: 16; 80; 26,7; 11,4:**

**2-masala.** Vodorodning xajmiy ulushi 70 % bo`lgan  $\text{H}_2$  va  $\text{O}_2$  dan iborat 110 gramm aralashmadagi  $\text{O}_2$  ning og`irligini (g) toping.

**Yechish:**

1) Dastlab vodorodning hajmiy ulushidan foydalanib, aralashmaning massasini aniqlaymiz.

$$\text{H}_2 - 70\%; \quad \text{O}_2 - 30\%$$

$$m = 2 \text{ g} \cdot 0,7 + 32 \cdot 0,3 = 1,4 \text{ g} (\text{H}_2) + 9,6 \text{ g} (\text{O}_2) = 11 \text{ g} \text{ (aralashma)}$$

$$2) \quad 1,4 \text{ g H}_2 + 9,6 \text{ g O}_2 = 11 \text{ g (aralashma)} \\ x=96 \text{ g} \quad 110 \text{ g (aralashma)}$$

**Javob:  $\text{O}_2$  96 g ekan.**

**3-masala.** Tatozi pallalarining chap tomonidan  $12,04 \cdot 10^{23}$  dona xrom atomlari o`ng tomonidan shuncha S atomlari qo`yilgan. Tarozi pallalarini muvozanatga keltirish uchun nima qilish kerak.

**Yechish:**

1) Chap tomonga  $12,04 \cdot 10^{23}$  dona Cr atomi ya`ni;

$$52 \text{ gr Cr} \longrightarrow 6,02 \cdot 10^{23} \\ x=104 \text{ g} \quad 12,04 \cdot 10^{23}$$

2) O`ng tomonida ham  $12,04 \cdot 10^{23}$  ta S atomi ya`ni;

$$32 \text{ gr S} \longrightarrow 6,02 \cdot 10^{23} \\ x=64 \text{ g} \quad 12,04 \cdot 10^{23}$$

3) Pallalarni muvozanatga keltirish uchun  $104 - 64 = 40$  g S atomidan o`ng pallaga qo`sish kerak.

4)  $32 \text{ g S} \longrightarrow 6,02 \cdot 10^{23}$


$$40 \text{ g S} \longrightarrow x = 7,525 \cdot 10^{23}$$

**Javob: O`ng pallaga  $7,525 \cdot 10^{23}$  ta S atomidan qo`sish kerak.**

**4-masala.** Katalizator ustidan  $6,02 \cdot 10^{23}$  molekula oltingugurt (IV) oksidi va 26,88 litr (n.sh.) kislaroddan iborat aralashma o`tkazilganda 64 g  $\text{SO}_3$  hosil bo`ladi. Reaksiyada ishtirok etmagan oltingugurt (IV) oksidning molekulalari sonini va kislorodning massasini (g) hisoblang.


**Yechish:**

- 1) Masalani ishlashda dastlab  $64 \text{ g } \text{SO}_3$  hosil bo`lishidan foydalanib nechta molekula  $\text{SO}_2$  va necha litr (n.sh)  $\text{O}_2$  sariflanganini aniqlaymiz.



2)  $6,02 \cdot 10^{23} - 4,816 \cdot 10^{23} = 1,204 \cdot 10^{23}$  ta  $\text{SO}_2$  molekulasi ortib qolgan.

3)  $26,88 - 8,96 = 17,92$  litr  $\text{O}_2$  ortib qolgan



**Javob:  $1,204 \cdot 10^{23} \text{ SO}_2$ ;  $25,6 \text{ g O}_2$**

**5-masala.** 5 g ikki valentli noma`lum metall karbonat  $\text{HNO}_3$  bilan reaksiyaga kirishib 8,2 g metall nitrat hosil qildi. Metallning ekvivalentini aniqlang.

**Yechish:**

$$\begin{array}{ccc} 5 \text{ g} & 8,2 & \\ 1) \quad \text{MeCO}_3 + 2\text{HNO}_3 = \text{Me}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2\text{CO}_3 & & \\ x + 60 & x + 124 & \\ 8,2x + 492 = 5x + 620 & & \\ 3,2x = 128 & & \\ x = 40 \text{ gr "Ca" ekan.} & & \end{array}$$

$$2) \quad E = \frac{A}{V} = \frac{40}{II} = 20 \text{ ekv}$$

**Javob: 20 ekv.**

**6-masala.** Suvda 1.6 g metall eritilganda 0.896 litr (n.sh)  $\text{H}_2$  ajralib chiqdi. Metallning ekvivalentini aniqlang.

**Yechish:**

$$\begin{array}{ccc} 1,6 \text{ g} & 0,896 \text{ litr} & \\ \text{Me} + \text{H}_2\text{O} = \text{Me(OH)}_x + \text{H}_2 & & \\ x=20 \text{ ekv} & 11,2 \text{ litr (ekv.n.sh)} & \end{array}$$

**Javob: 20 ekv (Ca)**

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

114. 1.89 g kislotani neytrallash uchun 0.5 n o'yuvchi kaliy eritmasidan 60 ml sarflandi. Kislotaning ekvivalentini aniqlang.
115. Sulfat kislotada 1.68 g metall eritilganda uning 4.56 g sulfati xosil bo'ldi. Metallning ekvivalentini aniqlang.
116. 5.64 g metall nitrat sulfat kislota bilan ishlanganda shu metallning 4.8 g sulfati xosil bo'ldi. Metallning ekvivalentini aniqlang.

117. 4,32 g metall xlor bilan ishlanganda shu metallning 21,36 g xloridi xosil bo'ldi. Metallning ekvivalentini aniqlang.
118. Metallning ayni bir miqdori 1,42 g xlor bilan va 1,92 g kislota qoldig'i bilan birikadi. Kislotsani ekvivalentini aniqlang.
119. 15 g metall karbonati parchalanganda uning 8,4 g oksidi xosil bo'ldi. Metallning ekvivalentini aniqlang.
120. Davriy sistemaning VI – guruh elementi xosil qilgan 5,8 g kislotsani neytrallah uchun 2 n. o'yuvchi natriy eritmasidan 40 ml sarf bo'ldi. Kislotsani ekvivalentini aniqlang.
121. 6,06 g ishqoriy metall nitrati qizdirilganda 5,1 g nitrit xosil bo'ldi. Metallning ekvivalentini aniqlang.
122. 30 litr (n.sh.) NH<sub>3</sub> katalizator ustidan o`tkazilganda ( $t=350^{\circ}\text{C}$ ), xajmi 40 litr (n.sh.) bo`lgan gazlar aralashmasi hosil bo`ldi. Ushbu aralashmadagi N<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub> va H<sub>2</sub> larning xajmiy ulushini (%) da hisoblang.
123. Tarkibida  $18,06 \cdot 10^{23}$  ta kislorod atomi bo`lgan 61 g eritmadagi Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning massa ulushini (%) hisoblang.
124. Ishqor eritmasiga xlor shimdirilganda eritmada hosil bo`lgan xlorid va gipoxlorit ionlarining massasi farqi 0,8 g ni tashkil qilsa, reaksiyaga kirishgan gaz hajmini (l,n.sh.) hisoblang.
125. Kremniy va ko`mirdan iborat 4 g aralashmaga konsentrangan sulfat kislota bilan ishlov berildi. Olingan gazlar aralashmasi NaOH eritmasiga shimdirilganda eritmaning massasi 17,2 g ga ortdi. Boshlang`ich aralashmadagi moddalar nisbatini (mol) aniqlang.
126. 16 g CaCO<sub>3</sub> parchalanganda 11,6 g qattiq qoldiq hosil bo`ldi. CaCO<sub>3</sub> ning necha foizi parchalanganligini va qattiq qoldiqning tarkibini aniqlang.
127. Faraz qilaylik, tarozi pallalarining chap tomoniga  $6,02 \cdot 10^{23}$  dona temir atomlari, o`ng tomonidan shuncha kremniy atomlari qo`yilgan. Tarozi pallarini muvozanatga keltirish uchun nima qilish kerak?
128. 20 litr (n.sh.) ammiak temir katalizatori ustidan o`tkazilganda ( $t = 350^{\circ}\text{C}$ ), hajmi 25 litr (n.sh.) bo`lgan gazlar aralashmasi hosil bo`ldi. Ushbu aralashmadagi N<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub> va H<sub>2</sub> larning hajmiy ulushini (berilgan tartibda) hisoblang.
129. Kremniy, grafit va kalsiy karbonatdan iborat 30 g aralashmaning natriy gidroksid eritmasi bilan reaksiyada 11,2 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Shuncha miqdordagi aralashma xlorid kislota eritmasi bilan reaksiya kirishganda 2,24 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Aralashmadagi grafitning massasini (g) topping.
130. 18,4 g dolomit qizdirilganda uning massasi 2,2 g ga kamayadi. Reaksiyaga kirishmagan dolomit massasini (g) va qolgan aralashmadagi magniy oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
131. Azot tutgan geteroxalqali birikma yondirilganda 0,4 mol karbonat angidrid,  $1,204 \cdot 10^{23}$  dona suv molekulasi va 2,8 g azot hosil bo`lsa, ushbu birikma nomini aniqlang.
132. Tarkibida  $6,02 \cdot 10^{23}$  vodorod atomi tutgan metan molekulasini yoqish uchun qancha kislorod atomi kerak bo`ladi?

133. Tarkibida  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta kislorod atomi bo`lgan 21,8 eritmadagi kaliy gidroksidning massa ulushini (%) hisoblang.
134. Kaliy superoksid va natriy peroksiddan iborat 47,2 g aralashma suvda eritilganda 10,08 litr (n.sh.) gaz ajralgan bo`lsa, boshlang`ich aralashma tarkibini (g) mos ravishda aniqlang.
135. 900 g suvdagi vodorod ionlari soni  $3,01 \cdot 10^{17}$  ga teng. Ionlarga dissotsialangan suv molekulasining bittasiga nechta suv molekulasi to`g`ri kelishini hisoblang.
136. Tabiiy suvdagi og`ir suvning miqdori 0,02 % ni tashkil etsa, 1 kg shunday suvdagi og`ir suv molekulalari sonini hisoblang.
137. Vodorod va is gazidan iborat 60 ml aralashmaga 70 ml kislorod qo`shilib portlatildi. Haroratni tajribadan oldingi sharoitga keltirilganda xajm 100 ml gacha kamaydi. Suv bug`lari kondensatlangandan so`ng esa 80 ml ga teng bo`lib qolgan bo`lsa, undagi gazlarning xajmiy ulushlarini hisoblang.
138. Tabiiy suvdagi og`ir suvning miqdori 0,018% ni tashkil etsa, 1000 g shunday suvdagi og`ir suv molekulalari sonini hisoblang.
139. Tarkibida  $12,04 \cdot 10^{23}$  ta kislorod atomi bo`lgan 40,7 g eritmadagi kaliy nitratning massa ulushini (%) hisoblang.

## V BOB

### Eritmalar haqida umumiylashuvchilar

*Ikki yoki bir necha komponentdan iborat qattiq yoki suyuq gomogen sistema eritma deb ataladi.*

O'z agregat holatini eritmaga o'tkazadigan modda erituvchi hisoblanadi. Eritma bir jinsli sistema bo'lgani uchun ko'z va mikroskop bilan eritma ichidagi erituvchi va erigan modda zarrachalarini ko'rib bo'lmaydi. Eritma tarkibini o'zgartirish mumkin. Masalan, sulfat kislota yoki nitrat kislotani suv bilan har qanday nisbatda aralashtirish mumkin. Sulfat kislotaning suvda erishi hech qanday chegaraga ega emas. Spirit ham suvda shunday eriydi.

Moddalar chegarasiz eriganida eritmada erigan moddaning foiz miqdori 0 dan 100% gacha bo'ladi. Bunday hollarda eruvchi va erituvchi orasidagi ayirma yo'qoladi; bulardan istaganimizni erituvchi deb qabul qilishimiz mumkin.

Lekin juda ko'pchilik moddalar ayni temperaturada ma'lum chegaraga qadar eriydi. Masalan, uy temperaturasida osh tuzining suvdagi eritmasida NaCl ning miqdori hech qachon 26,48 % dan ortmaydi.

Eritmalar tarkibining o'zgaruvchanligi ularni mexanik aralashmalarga yaqin deb qarashga imkon beradi. Lekin ularning bir jinsliliqi va ko'p hollarda eruvchanlikning ma'lum chegaradan oshmasligi eritmalarни kimyoviy birikmalarga yaqinlashtiradi. Shunday qilib, *eritma mexanik aralashma bilan kimyoviy birikma orasidagi oraliq holatni egallaydi*.

Eritmalarning fizik xossalari (masalan, qaynash temperaturalari) erigan modda miqdori ortishi bilan o'zgaradi. Ko'pincha eritma hosil bo'lganida hajmiy va energetik o'zgarishlar yuz beradi.

Ko'pchilik moddalar eritmalarining kimyoviy xossalari eritmada eruvchi modda miqdori ortishi bilan kam o'zgaradi. Eritmalar jonli va jonsiz tabiatda, fan va **texnikada** katta ro'l o'ynaydi. Hayvon va o'simlik organizmidagi fiziologik jarayonlar, tabiatda cho'kindi jinslarning hosil bo'lishi, ko'pchilik sanoat jarayonlari (masalan, ishqorlarning olinishi) asosan eritmalarda sodir bo'ladi.

#### V.1. Eritmalar kontsentratsiyasi

*Eritmaning yoki erituvchining ma'lum massa miqdorida yoki ma'lum hajmida erigan modda miqdori eritma kontsentratsiyasi deb ataladi.*

Eritma kontsentratsiyasini bir necha usulda ifodalash mumkin.

#### V.2. Foiz konsentrasiyasi

1. Erigan modda massasini eritmaning umumiylashuvchining massasiga nisbati erigan moddaning massasi ulushini tashkil etadi:

$$\omega(x) = \frac{m(x)}{m(x) + m(erituv)};$$

(bu erda:  $m(x)$  — erigan modda massasi). Bu qiymat nisbiy kattalik o`lchamsiz bo`ladi. Bu qiymatni 100 ga ko`paytirilsa, massa ulushining foizlarda hisoblangan qiymati olinadi. Shu bilan birga erigan modda miqdori eritmaning umumiyligini hisoblanadi. Buning uchun 100 gr eritma tarkibidagi erigan modda miqdori hisoblanadi:

$$C\% = \frac{\alpha \cdot 100\%}{\alpha + \epsilon}$$

bu erda:  $C\%$  — eritmaning massa foizi,  $\alpha$  — erigan modda massasi,  $\epsilon$  — erituvchi massasi (kontsentratsiyaning  $\omega$  dan  $C\%$  ifodalarga o`tish uchun  $\omega$  ni 100% ga ko`paytirish kerak).

2.  $m_1$  massali  $C_1\%$  li eritma bilan  $m_2$  massali  $C_2\%$  li eritma aralashtirilib tayyorlangan eritmani foizini ( $C_3\%$ ) topish:

$$C_3\% = \frac{m_1 \cdot C_1\% + m_2 \cdot C_2\%}{m_1 + m_2}$$

3.  $m_3$  massali  $C_3\%$  li eritma tayyorlash uchun kerak bo`lgan  $C_1\%$  va  $C_2\%$  li eritmaning massalarini topish:

$$\begin{array}{ccc} C_1\% & & [C_2\% - C_3\%] = a & k \cdot a = m_1 \\ & \diagdown & \diagup & \\ & C_3\% & & \\ & \diagup & \diagdown & \\ C_2\% & & [C_3\% - C_1\%] = b & k \cdot a = m_2 \\ & & & \frac{m_3}{a+b} = k \end{array}$$

### V.3. Molyar konsentratsiya

**Molyar konsentratsiya** – erigan modda mo`lini eritmaning hajmiga nisbatli yoki 1litr eritmadiagi erigan moddaning mo`liga aytildi.

1. Molyar konsentrasiyani topish:  $C_M = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot V}$

2. Molyar konsentratsiyadan erigan moddaning massasini topish:

$$m = \frac{C_M \cdot M \cdot V}{1000}$$

3. Molyar konsentratsiyadan foydalanib eritma hajmini topish:  $V = \frac{m \cdot 1000}{C_M \cdot M}$

4.  $C\%$  konsentrasiyani  $C_M$  – konsentratsiyaga bog`liqlik formulasi:

$$C_M = \frac{C\% \cdot \rho \cdot 10}{M}$$

5. Bog`liqlik formuladan  $C\%$  ni topish:  $C\% = \frac{C_M \cdot M}{\rho \cdot 10}$

6. Bog`liqlik formulasidan zichlikni topish:  $\rho = \frac{C_M \cdot M}{C\% \cdot 10}$

#### V.4. Eritmaning zichligi

Eritmalar suyuq sistema bo`lganligi uchun ularning hajmi gazlarniki singari 1 mo`li 22,4 litr hajjni egallaydi.

Eritmalarning hajmi eritma egallagan idishning hajmi bilan belgilanadi.

Eritmalarning hajmidan massasini yoki aksincha massasidan hajmini topish uchun ularning zichligidan foydalaniladi.

**Eritmaning zichligi** – eritma massasini (g) eritma hajmiga (ml yoki  $\text{sm}^3$ ) nisbatan yoki 1 ml eritmaning massasidir.

$$1. \text{ Eritma zichligini topish: } \rho = \frac{m(\text{umumi})}{V(\text{ml} - \text{yoki} - \text{sm}^3)}$$

$$2. \text{ Eritma zichligidan foydalanib eritmaning hajmidan massasiga o'tish: } m = \rho \cdot V$$

$$3. \text{ Eritma massasidan eritma hajmini topish: } V = \frac{m}{\rho}$$

**Bu yerda:**  $p$  – eritma zichligi ( $\text{g/ml}$  yoki  $\text{g/sm}^3$ )       $m$  – eritma massasi (g);  
 $V$  – eritma hajmi (ml yoki  $\text{sm}^3$ )

#### V.5. Normal konsentratsiya

Normal konsentratsiya – Erigan moddaning ekvivalent mo`lini eritmaning hajmiga (ml) nisbatan yoki 1 ml eritmadiagi erigan moddaning ekvivalent mo`llar sonini ko`rsatadi.

$$1. \text{ Normal konsentratsiyani topish: } C_N = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V}$$

$$2. \text{ Normal konsentratsiyadan erigan moddaning massasini topish: } m = \frac{C_N \cdot E \cdot V}{1000}$$

$$3. \text{ Normal konsentratsiyadan foydalanib eritma hajmini topish: } V = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot C_N}$$

$$4. \text{ Normal konsentratsiyadan erigan moddaning ekvivalentini topish: }$$

$$E = \frac{m \cdot 1000}{C_N \cdot V}$$

**Bu yerda:**  $C_N$  – normal konsentratsiya (ekv – mo`l/l);  $m$  – erigan modda massasi (g);

$E$  – erigan modda ekvivalenti (g-ekv);       $V$  – eritma hajmi (ml)

#### V.6. Titri eritmaning konsentratsiyasi

Eritmaning 1 millilitridagi erigan moddaning massa miqdori titr deb ataladi. Titr bilan normal kontsentratsiya orasida quyidagi tenglik mavjud:

$$(\text{Titr}) = \frac{E \cdot N}{1000}$$

Bu erda:  $E$  — erigan moddaning ekvivalent massasi,  $N$  — eritmaning normal kontsentratsiyasi.

## V.7. Eruvchanlik

Moddaning biror erituvchida eriy olish xususiyati shu moddaning eruvchanligi deb ataladi. Moddalarning eruvchanligi (ya'ni to`yingan eritmasining kontsentratsiyasi) erigan moddaning va erituvchining tabiatiga, shuningdek, temperatura bilan bosimga bog`liq.

*Ayni moddaning ma'lum temperaturada 100 g erituvchida erib to`yingan eritma hosil qiladigan massasi uning eruvchanlik koeffitsienti (yoki eruvchanligi) deb ataladi.*

### Na`munaviy masalalar

**1-masala.** 150 g suvda 50 g  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ni ertishda hosil bo`lgan eritmadiagi tuzning massa ulushini (%) hisoblang.

**Yechish:**

$$\begin{aligned} 1) \text{Mr} (\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) &= 160 + 90 = 250 \text{ g} \\ 2) 250 \text{ g CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} &\xrightarrow{\hspace{1cm}} 160 \text{ g CuSO}_4 \text{ bor} \\ 50 \text{ g CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} &\xrightarrow{\hspace{1cm}} x = 32 \text{ g CuSO}_4 \\ 3) m / \text{Eritma} &= 150 + 50 = 200 \text{ g} \\ 4) \omega &= \frac{32}{200} \cdot 100\% = 16\% \end{aligned}$$

**Javob: 16%  $\text{CuSO}_4$**

**2-masala.** 24.3 % li 70 g kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo`lgan 80 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 6.48 % li eritma hosil bo`ldi. Reaksiyada qaysi tuz eritmasi olingan.

**Yechish:**  $m / \text{AgNO}_3 = 70 \cdot 0,243 = 17 \text{ g}$

17 gr	x=8,5
-------	-------

$$1) \text{Ag NO}_3 + \text{Na X} \rightarrow \text{Ag X} \downarrow + \text{Na NO}_3$$

170	85
-----	----

$$2) m (\text{eritma}) = 70 + 80 = 150 \text{ g}$$

$$3) \text{Necha gramm cho'kma eritmadan chiqib ketsa, } 6,48\% \text{ li eritma xosil bo`lishini aniqlaymiz.}$$

$$\begin{aligned} \frac{8,5}{150-x} &= \frac{0,0648}{1} \\ 9,72 - 0,0648x &= 8,5 \\ 1,22 &= 0,0648x \\ x &= 18,8 \text{ AgX} \\ 18,8 \text{ g} &\xrightarrow{\hspace{1cm}} 8,5 \text{ g} \\ 4) \text{Ag NO}_3 + \text{Na X} &\rightarrow \text{Ag X} \downarrow + \text{Na NO}_3 \\ &x=188 \text{ g} \xrightarrow{\hspace{1cm}} 85 \text{ g} \\ 5) \text{Ag X} &= 188 - 108 = 80 \text{ g} \end{aligned}$$


**Javob: NaBr**

**3-masala.** Suvsiz sulfat kislota tayyorlash uchun 98% li 500 g sulfat kislata eritmasida qancha massa (g) sulfat angidiridi eritilishi zarurligini aniqlang.

**Yechish:**

1) Masala shartiga ko`ra suvsiz kislota deganda 100% li eritma tushuniladi.

$$2) \quad x \qquad \qquad a = 1,225 \cdot 100\% = 122,5\% (\text{SO}_3)$$



$$3) \quad \begin{array}{ccccc} 122,5 & & 2 & \longrightarrow & x = 44,44 \text{ g } (\text{SO}_3) \\ & \diagdown & \diagup & & \\ 98 & & 100 & & 22,5 \\ & \diagup & \diagdown & & \\ & & 22,5 & \longrightarrow & 500 \text{ g } (\text{H}_2\text{O}) \end{array}$$

**Javob: 44,44 gr SO<sub>3</sub> qo`shish kerak.**

**4-masala.** 1 litr suvda 179,2 litr (n.sh.) oltingugurt(VI) oksid eritishidan hosil bo'lgan eritmaning ( $\rho = 1,25 \text{ g/ml}$ ) qanday hajmida (ml) 22,4 litr (n.sh.) SO<sub>3</sub> ni eritib, 65,9% li sulfat kislota eritmasini olish mumkin?

**Yechish:**

**1-usul**

$$1) \quad 179,2 \text{ litr} \longrightarrow x = 784 \text{ g}$$



$$2) \quad 22,4 \text{ litr } (\text{SO}_3) \longrightarrow 80 \text{ g}$$

$$179,2 \text{ litr } (\text{SO}_3) \longrightarrow x = 640 \text{ g}$$

$$3) \quad m(\text{eritma}) = 1000 + 640 = 1640$$

$$4) \quad \omega = \frac{784}{1640} \cdot 100\% = 47,8\% \text{ H}_2\text{SO}_4$$

$$x \longrightarrow a = 1,225 \cdot 100\% = 122,5\% \text{ SO}_3$$



$$6) \quad \begin{array}{ccccc} 47,8 & & 56,6 & \longrightarrow & x = 250 \text{ g} \\ & \diagdown & \diagup & & \\ & 65,9 & & & \\ 122,5 & \diagup & \diagdown & & \\ & & 18,1 & \longrightarrow & 80 \text{ g } (22,4 \text{ litr } \text{SO}_3) \end{array}$$

$$7) \quad V = \frac{m}{\rho} = \frac{250}{1,25} = 200 \text{ ml}$$

**Javob: 200 ml**

## 2 – usul.

$$\begin{aligned}
 & 179,2 \text{ litr} \quad x = 784 \text{ g} \\
 1) \quad & \text{SO}_3 + \text{H}_2\text{O} = \text{H}_2\text{SO}_4 \\
 & 22,4 \text{ litr} \quad 98 \text{ g} \\
 2) \quad & \frac{179,2 \text{ litr } \text{SO}_3}{22,4 \text{ litr } \text{SO}_3} = \frac{x = 640 \text{ g}}{80 \text{ g}} \\
 3) \quad & \omega = \frac{784}{1000+640} = 0,478 \\
 4) \quad & \frac{98+0,478x}{80+x} = 0,659 \\
 & 52,72 + 0,659x = 98 + 0,478x \\
 & 45,28 = 0,181x \\
 & x = 250 \text{ g} \\
 5) \quad & v = \frac{m}{\rho} = \frac{250}{1,25} = 200 \text{ ml}
 \end{aligned}$$

**Javob: 200 ml**

**5-masala.** 50% li sulfat kislota olish uchun 400 g suvgaga qo'shish kerak bo'lgan  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5 \text{ SO}_3$  tarkibli oleumning massasini (g) toping.

**Yechish:**

## 1 – usul.

1)  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5 \text{ SO}_3$  suv bilan birikib necha (%) li sulfat kislota xosil qilishini aniqlaymiz.

$$\begin{aligned}
 & \frac{x}{\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5 \text{ SO}_3 + \text{H}_2\text{O}} = \frac{a = 1,065 \cdot 100\% = 106,5\%}{1,5 \text{ H}_2\text{SO}_4} \\
 & \frac{138 \text{ g}}{\text{(oleum)} 106,5} = \frac{147 \text{ g}}{50} \quad x = 354 \\
 & \frac{0}{50} = \frac{56,5}{400 \text{ g}}
 \end{aligned}$$

**Javob: 354 g oleum qo'shish kerak.**

## 2 – usul.

$$\begin{aligned}
 & \frac{x}{\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5 \text{ SO}_3 + \text{H}_2\text{O}} = \frac{a = 1,065x}{1,5 \text{ H}_2\text{SO}_4} \\
 1) \quad & \frac{138 \text{ g}}{400+x} = \frac{147 \text{ g}}{1,065x} \\
 2) \quad & \frac{1,065x}{400+x} = 0,5 \\
 & 200 + 0,5x = 1,065x \\
 & 200 = 0,565x \\
 & x = 354
 \end{aligned}$$

**Javob: 354 g**

**6-masala.** 2,3 g oleumni neytrallash uchun 2 g natriy gidroksid sarflangan bo'lsa, oleum tarkibini aniqlang.

**Yechish:**




**1 – usul.**

1) Dastlab oleumni ishqor bilan reaksiyani yozib tenglab olamiz.

$$\begin{array}{rcl} 2,3 \text{ g} & \xrightarrow{\quad} & 2 \text{ g} \\ \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot x\text{SO}_3 + 2 + 2x\text{NaOH} = 1 + x\text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O} \\ 98 + 80x & \xrightarrow{\quad} & 80 + 80x \\ 196 + 160x = 184 + 184x \\ 196 - 184 = 184x - 160x \\ 12 = 24x \\ x = 0,5 \end{array}$$

**Javob:**  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5\text{SO}_3$

**2 – usul.**



**Javob:**  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,5\text{SO}_3$

**7-masala.** Natriy nitratning 1520 g to'yingan ( $70^{\circ}\text{C}$  dagi) eritmasi  $15^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho'kmaga tushgan tuzning massasini (g) va eritmada qolgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.  $S(15^{\circ}\text{C}) = 80$ ;  $S(70^{\circ}\text{C})=140$

**Yechish:**

1) Dastlab  $15^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda necha gramm tuz cho'kmaga tushishini xisoblaymiz.

$$\begin{array}{l} 140 - 80 = 60 \text{ g} \downarrow \\ 2) \quad m(\text{eritma}) = 140 \text{ tuz} + 100 \text{ suv} = 240 \text{ g} /e/ \\ \qquad \qquad \qquad x = 886,7 \xrightarrow{\quad} 1520 \text{ g} /e/ \\ 3) \quad 240 \text{ g eritma} \xrightarrow{\quad} 60 \text{ g} \downarrow \text{cho'kma} \\ \qquad \qquad \qquad 1520 \text{ g eritma} \xrightarrow{\quad} x = 380 \text{ g} \downarrow \text{cho'kma} \\ 4) \quad m(\text{tuz}) = 886,7 - 380 = 506,7 \\ 5) \quad m(\text{eritma}) = 1520 - 380 = 1140 \text{ g} \end{array}$$

$$6) \quad \omega = \frac{506,7}{1140} \cdot 100\% = 44\%$$

**Javob: 380 g cho`kma; 44%**

**8-masala.** Kalsiy bromidning 80 g (60% li) to'yingan eritmasi qizdirildi va unda 20 g kalsiy bromid eritildi. So'ngra eritma sovutilib, oldingi holatga keltirilganda 42 g kristallogidrat cho'kmaga tushdi. Kristallogidratning formulasini aniqlang.

**Yechish:**

- 1)  $80 \cdot 0,6 = 48 \text{ g tuz}$
- 2)  $48 + 20 = 68 \text{ g umumiyl tuz}$
- 3)  $m /eritma/ = 80 + 20 = 100 \text{ g}$
- 4)  $100 - 42 \downarrow = 58 \text{ g qolgan eritma}$
- 5) 58 gramm eritma ham 60% li bo`lganligini xisobga olib,  $58 \cdot 0,6 = 34,8 \text{ g tuz eritmada qolgan.}$
- 6)  $68 \text{ g (umumiyl tuz)} - 34,8 \text{ g (eritmadi tuz)} = 33,2 \text{ g (kristallgidrat tarkibidagi).}$
- 7)  $42 \text{ g} - 33,2 \text{ g (tuz)} = 8,8 \text{ g (suv)}$   
 $33,2 \text{ g} \quad 8,8 \text{ g}$
- 8)  $\text{CaBr}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$   
 $200 \text{ g} \quad x = 54 : 18 = 3$

**Javob:  $\text{CaBr}_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$**

**9-masala.** 70% li 100 g nitrat kislota eritmasida kumush eritilganda kislotamning massa ulushi 54% ga teng bo`ldi. Ushbu eritmaga 15% li 39 g natrui xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo`lgan eritmadi moddalarning konsentratsiyasini (%) aniqlang.

**Yechish:**  $m (\text{HNO}_3) = 100 \cdot 0,7 = 70 \text{ g}$

- 1)  $\text{Ag} + 2\text{HNO}_3 = \text{AgNO}_3 + \text{NO}_2 + \text{H}_2\text{O}$   
 $108x \quad 126x \quad 170x \quad 46x$
- 2)  $\frac{70 - 126x}{100 + 108x - 46x} = 0,54$

$$54 - 33,48x = 70 - 126x$$

$$159,48x = 16$$

$$x = 0,1 \text{ mol}$$


- 3)  $\text{HNO}_3 = 126 \cdot 0,1 = 12,6 \text{ g} \quad m (\text{AgNO}_3) = 170 \cdot 0,1 = 17 \text{ g}$   
 $70 - 12,6 = 57,4 \text{ g HNO}_3 \quad m (\text{NaCl}) = 39 \cdot 0,15 = 5,85 \text{ g}$   
 $17 \quad 5,85 \quad x=14,35 \quad x=8,5$
- 4)  $\text{AgNO}_3 + \text{NaCl} = \text{AgCl} \downarrow + \text{NaNO}_3$   
 $170 \quad 58,5 \quad 143,5 \quad 85$
- 5)  $m /eritma/ = 100 + 108 \cdot 0,1 + 46 \cdot 0,1 + 39 - 14,35 = 130,85 \text{ g}$
- 6)  $\omega (\text{NaNO}_3) = \frac{8,5}{130,85} \cdot 100\% = 6,5\%$

$$\omega(\text{HNO}_3) = \frac{57,4}{130,85} \cdot 100\% = 43,8\%$$

**Javob: 6,5% NaNO<sub>3</sub>; 43,8% HNO<sub>3</sub>:**

**10-masala.** Ikki valentli metall gidridi 420,75 g suvda eritilganda 2,24 litr (n.sh.) gaz modda ajralib, 2,0% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?

**Yechish:**






**Javob: Ba**

**11-masala.** NaHSO<sub>3</sub> va CaCO<sub>3</sub> dan iborat 101,6 g aralashmaning xlорид kislotada eritilishidan zichligi (n.sh) 2,32 g/l bo'lган gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar aralashmasini 1,28 kg bromli suv bilan to'la reaksiyaga kirishgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan HCl miqdorini (mol) va bromli suv konsentratsiyasini (%) aniqlang.


**Yechish:**

**1 – usul.**







5)  $n | \text{HCl} | = 0,388 + 1,212 = 1,6 \text{ mol}$   
 $25,8 \quad x=64$



7)  $\omega (\text{Br}_2) = \frac{64}{1280} \cdot 100\% = 5\%$

**Javob: 1,6 mol HCl; 5% bromli suv**



## 2 – usul




2)  $104x + 100y = 101,6$   
 $\frac{64x + 44y}{22,4x + 22,4y} = 2,32$   
 $51,968x + 51,968y = 64x + 44y$   
 $51,968y - 44y = 64x + 44y$   
 $7,968y = 12,032x$   
 $y = 1,5x$

3) Tenglamadagi “y” ni o’rniga qo`yib hisoblasak.  
 $104x + 100 \cdot 1,5x = 101,6$   
 $254x = 101,6$   
 $x = 0,4 \text{ mol}$

4)  $y = 1,5x \qquad y = 1,5 \cdot 0,4 = 0,6 \text{ mol}$



6)  $n (\text{HCl}) = 0,4 + 1,2 = 1,6 \text{ mol}$



$$8) \omega(\text{Br}_2) = \frac{64}{1280} \cdot 100\% = 5\%$$

**Javob: 1,6 mol HCl; 5% Bromli suv**

**12-masala.** Natriy karbonatning 20% li 500 g eritmasiga necha gramm  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  qo'shilsa, natriy karbonatning massa ulushi 12% ga teng bo'ladi.

**Yechish:**

$$\begin{aligned} 1) \quad m(\text{Na}_2\text{CO}_3) &= 500 \cdot 0,2 = 100 \text{ g} \\ a = 0,484x &\quad x \quad b = 0,457x \\ 2) \quad \text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CaCl}_2 \cdot 6 \text{H}_2\text{O} &= \text{CaCO}_3 \downarrow + 2 \text{NaCl} + 6 \text{H}_2\text{O} \\ 106 \text{ g} &\quad 219 \text{ g} \quad 100 \text{ g} \\ 3) \quad \frac{100 - 0,484x}{500 + x - 0,457x} &= 0,12 \\ 60 + 0,065x &= 100 - 0,484x \\ 0,065x + 0,484x &= 100 - 60 \\ 0,549x &= 40 \\ x &= 73 \text{ g} \end{aligned}$$

**Javob: 73 g  $\text{CaCl}_2 \cdot 6 \text{H}_2\text{O}$  qo'shish kerak**

### Mustaqil yechish uchun masalalar

140. **1 litr suvda (n.sh) 2.3 litr  $\text{H}_2\text{S}$  erigan bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadi  $\text{H}_2\text{S}$  ning massa ulushi nechaga teng.**
141. 6.12 g ishqoriy-yer metall oksidi 221.88 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 3% ni tashkil qildi. Metallni toping.
142. HCl va  $\text{AlCl}_3$  dan iborat 500 ml eritmasidan cho'kma xosil bo'lishi tugaguncha ammoniy gidroksidning 2 molyarli eritmasidan 750 ml sarflandi. Eritma bug'latildi va cho'kma massasi o'zgarmay qolguncha kuydirildi, qoldiq massasi 20.4 g. Boshlang'ich eritmadi moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
143. Tarkibida  $18.06 \cdot 10^{23}$  ta kislород atomi bo'lgan 61 g eritmadi natriy sulfatning massa ulushini (%) hisoblang.
144. Natriy sulfatning 60 g to'yigan (34% li) eritmasi qizdirildi va unda 10 g natriy sulfat eritildi. So'ngra eritma oldingi holatigacha sovutilganda 35 g kristallogidrat cho'kmaga tushdi. Kristallogidratning formulasini aniqlang.
145. 736.2 g suvda ikki valentli metall gidridi eritilganda 0.4 g gaz ajralib, 1% li eritma xosil bo'lди. Qaysi metall gidridi ishlatalgan?
146. Natriy sulfatning 25% li 560 g eritmasiga qanday massadagi  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  qo'shilsa, Natriy sulfatning massa ulushi 15% ga teng bo'ladi.
147. 70% li 100g nitrat kislota eritmasida kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 27% ga teng bo'lди. Ushbu eritmaga 35,1% li 50 g natriy xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadi moddalarning miqdorini (g) aniqlang.

148. Atsetilen va metandan iborat 4,48 litr (n.sh) aralashma (vodorodga nisbatan zichligi 11,75) yondirilishdan hosil bo'lgan maxsulot 14% li 240 g kaliy gidroksid bilan to'la reaksiyaga kirishadi. Reaksiya mahsulot(lar)ning formulasi va massasini aniqlang.
149. Nitrat kislota eritmasiga mol miqdorda mis metali qo'shilishidan olingan 8.96 litr (n.sh.) gazlar aralashmasi 1 litr 0,2 molyarli bariy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda bariy gidroksidning konsentratsiyasi ikki marta kamaygan bo'lsa, reaksiyada ishtirok etgan nitrat kislota massasini (g) hisoblang. Ar (Cu) = 64
150. 8 g mis (II) oksid yetarli miqdordagi xlorid va sulfat kislota aralashmasida eritildi. Natijada mis (II) xloridning digidrati va mis (II) sulfatning pentagidrati aralashmasidan 21.84 g olindi. Reaksiyada ishtirok etgan xlorid va sulfat kislotalar massasini (g) aniqlang.
151. 20 % li 255 g kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo'lgan 45 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 9.92 % li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuz eritmasi olingan.
152. 2.82 g ishqoriy metall oksidi 45.18 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 7% ni tashkil qildi. Metallni toping.
153.  $\text{NaHSO}_3$  va  $\text{CaCO}_3$  dan iborat 50.4 g aralashmaning xlorid kislota eritilishidan zichligi (n.sh) 2.143 g/l bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar aralashmasini 800 g bromli suv bilan to'la reaksiyaga kirishgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan  $\text{HCl}$  miqdorini (mol) va bromli suv konsentratsiyasini (%) aniqlang.
154. Atsetilen va is gazidan iborat 6,72 litr (n.sh.) aralashma (zichligi 1,205 g/l) yondirilishdan hosil bo'lgan maxsulot 16% li 200 g natriy gidroksid bilan to'la reaksiyaga kirishadi. Reaksiya maxsulotlarning formulasi va massasini aniqlang.
155. Nitrat kislota eritmasiga mol miqdorda mis metali qo'shilishidan olingan 13,44 litr (n.sh.) gazlar aralashmasi 1 litr 0,2 molyarli bariy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda bariy gidroksidning konsentratsiyasi ikki marta kamaygan bo'lsa, reaksiyada ishtirok etgan misning massasini (g) hisoblang. Ar (Cu) = 64
156. 32 g mis (II) oksid yetarli miqdordagi xlorid va sulfat kislota aralashmasida eritildi. Natijada mis (II) xloridning digidrati va mis (II) sulfatning pentagidrati aralashmasidan 92.1 g olindi. Reaksiyada ishtirok etgan xlorid va sulfat kislotalar massasini (g) aniqlang.
157. 19,2 g misni eritish uchun unga oldin konsentrangan sulfat kislota va so'ngra to'la eriguncha suyultirilgan nitrat kislota qo'shildi. Olingan mis tuzini  $200^{\circ}\text{C}$  temperaturada massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda 32 g mahsulot olindi. Mahsulot tarkibidagi moddalar massa nisbatini aniqlang.
158.  $\text{HCl}$  va  $\text{AlCl}_3$  dan iborat 200 ml eritmasidan cho'kma xosil bo'lishi tugaguncha ammoniy gidroksidning 5 molyarli eritmasidan 44 ml sarflandi. Eritma bug'latildi va cho'kma massasi o'zgarmay qolguncha kuydirildi, qoldiq massasi 3.06 g. Boshlang'ich eritmadi moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
159. Tarkibida  $12.04 \cdot 10^{23}$  ta kislorod atomi bo'lgan 40.7 g eritmadi kaliy nitratning massa ulushini (%) hisoblang.

160. Kalsiy bromidning 80 g to'yingan eritmasiga 20 g suvsiz tuz qo'shildi. Aralashmadagi tuz erib ketguncha qizdirildi va so'ngra boshlang'ich temperaturaga qadar sovutildi. Bunda 41.52 g kristallgidrat cho'kmaga tushdi. To'yingan eritmadagi suvsiz tuzning massa ulushi 58.7% ga teng bo'lsa, kristallgidrat formulasini aniqlang.
161. 70% li 100 g nitrat kislotada kumush eritilganda kislotaning eritmadagi massa ulushi 40 % bo'ldi. Ushbu eritmaga teng og'irlikdagi 10.4% li natriy xlorid eritmasi qo'shilgandan keyingi eritmadagi moddalarning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
162. Natriy sulfatning to'yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  da) eritmasi  $25^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda 200 g tuz cho'kmaga tushg'an bo'lsa, ushbu to'yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  da) eritmaning va uning tarkibidagi natriy sulfat massalarini (g) hisoblang,  $S(25^{\circ}\text{C})=10$ ;  $S(120^{\circ}\text{C}) = 50$
163. 60% li ( $\rho=1,5 \text{ g/ml}$ ) fosfat kislota eritmasining molyarligini aniqlang.
164. 11.4 g oleumni neytrallash uchun 9.6 g natriy gidroksid sarflangan bo'lsa, oleum tarkibini aniqlang.
165. 123,2 g suvda 28,6 g  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  eritilganda eritmadagi tuzning massa ulushi 7,44% ni tashkil qildi. X ning qiymatini toping.
166. 800 g 80% li sirkə kislota eritmasini tayyorlash uchun sirkə angidridi va 25% li sirkə kislotadan necha gramdan olish zarur?
167. "Navshadil spirit" tarkibidagi ammoniy gidroksid konsentratsiyasini aniqlash uchun, shu eritmadan 140 g solib, uni 2% li sulfat kislota bilan titrlanganda 490 g sarflandi. Ammoniy gidroksidning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
168. 3.05 g oleumni neytrallash uchun 2.6 g natriy gidroksid sarflangan bo'lsa, oleum tarkibini aniqlang.
169. 1160 g suvda 224 litr (n.sh.) oltingugnrt(VI) oksid eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning ( $p = 1,6 \text{ g/ml}$ ) qanday miqdorida (gr) 44.8 litr (n.sh.)  $\text{SO}_3$  ni eritib, 62 % li sulfat kislota eritmasini olish mumkin?
170. Natriy sulfatning 60 g to'yingan eritmasiga 10 g suvsiz tuz qo'shildi. Aralashmadagi tuz erib ketguncha qizdirildi va so'ngra boshlang'ich temperaturaga qadar sovutildi. Bunda 35.4 g kristallgidrat cho'kmaga tushdi. To'yingan eritmadagi suvsiz tuzning massa ulushi 34.2% ga teng bo'lsa, kristallgidrat formulasini aniqlang.
171. 500 g suvda 134.4 litr (n.sh.) oltingugurt(VI) oksid eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning ( $p=1,4 \text{ g/ml}$ ) qanday hajmida (ml) 22,4 litr (n.sh.)  $\text{SO}_3$  ni eritib, 77.25 % li sulfat kislota eritmasini olish mumkin?
172. 60% li sulfat kislota olish uchun 500 g suvgaga qo'shish kerak bo'lgan  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{SO}_3$  tarkibli oleumning massasini gr toping.
173. 100 g suvda  $110^{\circ}\text{C}$  da 160 g,  $0^{\circ}\text{C}$  da esa 110 g kaliy karbonat eriydi. Kaliy karbonatning 1040 g to'yingan ( $110^{\circ}\text{C}$  da) eritmasi  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho'kmaga tushadigan kaliy karbonatning massasini (g) hisoblang.
174. Natriy sulfatning 22% li 450 g eritmasiga qanday massadagi  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  qo'shsilsa, natriy sulfatning massa ulushi 13 % ga teng bo'ladi.

175. 50% li sulfat kislota olish uchun 400 g suvga qo'shish kerak bo'lgan  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 2\text{SO}_3$  tarkibli oleumning massasini (g) toping.
176. 80 % li sulfat kislota olish uchun 200 g 24.5 % li sulfat kislota eritmasiga qo'shish kerak bo'lgan  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{SO}_3$  tarkibli oleumning massasini (g) toping.
177. Suvsiz o'rtafosfat kislota tayyorlash uchun 14.2 gr  $\text{P}_2\text{O}_5$  qanday massadagi (g) 96% li ortofosfat kislata eritmasida eritilishi zarur.
178. 400 g 15,6% li kadmiy sulfat eritmasiga rux plastinka tushirildi. Plastinka massasi 9,4 g ga ortganda chiqarib olingan bo'lsa, eritmada qolgan kadmiy sulfatning massasini (g) aniqlang.
179. Novshadil spirt tarkibidagi ammoniy gidroksidning foiz konsentratsiyasini aniqlash uchun undan 150 g olinib titrlaganda, 96 g 12% li sulfat kislota sarflandi. Ammoniy gidroksidning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
180. 32,6% li 664 ml ( $\rho=1,24$  g/ml) sulfat kislota eritmasining konsentratsiyasini 96% ga yetkazish uchun boshlang'ich eritmaga ...  $\text{m}^3$  (n.sh.)  $\text{SO}_3$  yuttirish kerak.
181. 35% li kaliy gidroksid eritmasini tayyorlash uchun 257.35 ml 12% li ( $\rho=1,04$  g/ml) kaliy gidroksid eritmasida ... g kaliy oksid eritish zarur.
182. Og'irligi 100 g bo'lgan temir plastinka mis (II) sulfatning 20% li 250 g eritmasiga botirildi. Ma'lum vaqtdan so'ng plastinka eritmadan olinib, yuvilib, quritilib tortib ko'rilmaga, uning massasi 102 g ni tashkil etdi. Reaksiyadan so'ng eritma tarkibidagi moddalarning massa ulushlarini (%) hisoblab toping.
183. 383 ml suvda 33,6 litr (n.sh.) vodorod sulfid eritildi. Eritmadagi  $\text{H}_2\text{S}$  ning massa ulushini (%) hisoblang.
184. 350 g suvda 45 gr  $\text{CoCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  eritilishi natijasida hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
185. Suvsiz kaliy gidroksid tayyorlash uchun 92% li 600 g kaliy gidroksid eritmasida qancha miqdorda (g) kaliy oksidi eritilishi zarur.
186. 30 g kristall soda 200 g suvda eritib tayyorlangan eritmadiagi natriy karbonatning massa ulushini 2% gacha kamaytirish uchun eritmaga qancha (g) suv qo'shish kerak?
187. 3,75% li HCl eritmasining hosil qilish uchun 1,3 litr suvga qancha hajm (l.n.sh) HCl gazini yuttirish kerak?
188. Kadmiy sulfatning 16 % li 500 g eritmasiga og'irligi 20 gr bo'lgan rux plastinka tushirildi. Bir oz vaqtdan so'ng plastinkani eritmadan chiqarib, quritilib tortilganda uning massasi 21,88 g ni tashkil qildi. Plastinkadagi ruxning massa ulushini (%) aniqlang.
189. Kumush nitratning 100 g 8,5% li eritmasiga yetarli miqdorda natriy xlorid qo'shilganda hosil bo'lgan muddanoring konsentratsiyasini (%) hisoblang.
190. Massalari teng bo'lgan 4,14% li kaliy karbonat va alyuminiy nitrat eritmalarini aralashtirilganda reaksiya to'liq sodir bo'ldi. Hosil bo'lgan eritmadiagi muddanoring massa ulushini (%) va alyuminiy nitratning dastlabki konsentratsiyasini (%) hisoblang.

191. Konsentrangan (100 g 90% li) nitrat kislotada kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 44% gacha kamaydi. Hosil bo'lgan eritmadi tuzning massasini (g) hisoblang.
192. Kumush nitratning 3,4% li eritmasiga yetarli miqdorda natriy xlorid tuzi qo'shilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
193. Natriy gidroksidning 400 g 20% li eritmasiga necha (g) oltingugurt(VI) oksid shmdirilganda (reaksiyada o'rta tuz hosil bo'ladi) natriy gidroksid konsentratsiyasi 10% ni tashkil etadi?
194. 24% li bariy nitrat eritmasidan 300 g tayyorlash uchun bariy nitrat kristalgidrati  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  va 7% li eritmasidan qancha miqdorda (g) olish zarurligini aniqlang.
195. 300 g 9,8% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini to'la neytrallash uchun geliyga nisbatan zichligi 2 ga teng bo'lgan  $\text{NH}_3$  va  $\text{H}_2$  iborat. aralashmadan qancha hajm (l,n.sh.) kerak bo'ladi?
196. Suvsiz natriy gidroksid tayyorlash uchun 80% li 400 g natriy gidroksid eritmasida qancha miqdorda (g) natriy oksidi eritilishi zarur.
197. 26% li 250 g temir(III) sulfat eritmasini tayyorlash uchun temir kuporosi ( $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$ ) va suvdan qanchadan (g) olish kerak?
198. Suvsiz kaliy gidroksid tayyorlash uchun 92% li 600 g kaliy gidroksid eritmasidan qancha miqdorda (g) kaliy oksidi eritilishi zarur.
199. 29.575% li eritma hosil qilish uchun 600 g 9.1 litr mis(II) atsetat eritmasida qancha miqdorda (g) mis(II) atsetat kristalgidrati  $\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ni eritish zarur.
200. 2,61 g  $\text{SnCl}_4$  gidrolizidan olingan  $\text{SnO}_2$ ni  $\text{K}_2[(\text{Sn}(\text{OH})_6)]$  holatga o'tkazish uchun necha (g) 20% li kaliy gidroksid eritmasi zarur bo'ladi?
201.  $\text{NaHSO}_3$  va  $\text{CaCO}_3$  dan iborat 101 g aralashmaning HCl kislotada eritilishidan zichligi (n.sh) 2.1875 g/l bo'lgan gazlar aralashmasi xosil bo'lgan.Ushbu gazlar aralashmasi 2000 g bromli suv bilan reaksiyaga kirishgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan xlorid kislota miqdorini (mol) va bromli suv konsentratsiyasini (%) aniqlang.
202. 8% li 255 g kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda kaliy galogenid bo'lgan 95.2 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 3.7% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuz eritmasi olingan.

## VI. BOB

### VI. Turli moddalarning suvda erishi. Eruvchanlik koeffitsienti

#### VI. 1. Eruvchanlik va unga ta`sir etuvchi omillar

Eruvchanlik deb ma`lum sharoitda biror moddaning ma`lum bir erituvchida erib to`yingan eritma hosil qiladigan miqdorga aytildi. Moddalarning 100 gramm suvda erib to`yingan eritma hosil qiladigan miqdori ularning eruvchanlik koeffitsenti deyiladi. Masalan, 1 atm bosim va 25°C da NaCl ning eruvchanlik koeffitsenti 36 ga, KNO<sub>3</sub> niki 39 ga teng. Eruvchanlikka turli omillar ta`sir qiladi. Bular erigan moddalarning tabiatini, t° va P. Qutbli **erituvchilarda** qutbli moddalar, qutbsiz erituvchilarda qutbsiz moddalar yaxshi eriydi.

Qattiq moddalarning suvda eruvchanligi t° ortishi bilan ortib boradi. Qattiq moddalar va suyuqliklarning suvda eruvchanligiga P ning ortishi aytarli ta`sir qilmaydi.

Qattiq moddalarning suvda yoki boshqa suyuqliklarda to`yingan eritmasi sovutilganda erigan moddaning kristallari cho`kmaga tushadi.

Bunda erigan moddaning hosil bo`lgan, ya`ni kristallarini olish uni ancha toza holatga olib keladi. Bunday usul bilan moddalarni tozalash qayta kristallah deb ataladi. Qayta kristallah usuli bilan osh tuzi, o`yuvchi natriy, natriy karbonat, natriy bikarbonat va ko`philik dorivor moddalarni tozalash mumkin.

#### VI. 2. Gazlarning suyuqliklarda erishi va unga ta`sir etuvchi omillar.

##### Genri qonuni.

Gazlarning suvda erishi qattiq va suyuq moddalarning suvda erish jarayonidan farq qiladi. Gazlarning suvda erishi ekzotermik jarayon bo`lib, t° ortishi bilan eruvchanglik kamaya boradi. Masalan, mineral gazli suvlarni sovutgichlarda saqlash undagi gazni tutib turishdir. Yoki suvni qaynatib undagi erigan barcha xavoni chiqarib yuboriladi, aks holda qaynamagan suv ichilsa undagi xavo qorinni dam qilib, og`riq berishi mumkin. Gazlarning organik erituvchilarda erishi endotermik bo`lib, t° ga to`g`ri proporsional bo`ladi.

Gazlarning eruvchanligiga P ham kuchli ta`sir ko`rsatadi. Gazning erishi jarayonida eritma V ning kamayishi kuzatiladi. Shu sababli P ortishi bilan gazlarning suyuqliklarda erishi ortadi. Gazlar eruvchanligining P ga bog`liqligini birinchi marta 1803 yilda nemis olimi Genri aniqladi va quyidagicha qonuniyat mavjudligini kuzatdi:

*Ma`lum haroratda suyuqliklarning ma`lum xajmida erigan gazning miqdori gazning parsial bosimiga to`g`ri proporsional bo`ladi:*

$$C = K \cdot P$$

C – to`yingan eritmadagi gazning konsentratsiyasi, mol/l;  
P – gazning eritma ustidagi parsial bosimi, Pa;

K – proporsionallik koeffitsenti ( $\text{mol}\cdot\text{l}^{-1}\cdot\text{Pa}^{-1}$ ) bo`lib, u gaz va erituvchi tabiatiga hamda  $t^\circ$  ga bog`liq. K 1 atm bosimdagi 1000 gr erituvchida erigan gazning konsentratsiyasiga teng.  $P = 1 \text{ atm} \cdot C = K$  bo`ladi.

Genri qonuniga yuqori bosim ostidagi, erituvchi va erigan gaz molekulalari o`rtasida kimyoviy ta`siri bo`lmagan ( $\text{N}_2$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{SO}_2$  kabi ideal gazlar eritmalar), suyultirilgan eritmalar bo`y sunadi.  $\text{HCl}$ ,  $\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_3$  kabi gazlar Genri qonuniga bo`y sunmaydi.

### **VI. 3. Suyuqliklarning suyuqliklarda erishi.**

Suyuqliklar bir – birida eruvchanligi nuqtai nazardan: ikki xil bo`ladi.

1. O`zaro cheksiz nisbatlarda aralashuvchi suyuqliklar ( $P = \text{sirt+suv; toluol+benzol}$ ).

2. O`zaro aralashmaydigan suyuqliklar. Bunday suyuqliklarning bir – birlarida erishi chegaralangan bo`ladi.

Masalan, suv va benzol, moy va suv, butanol va suv.

Dietil efiri ham suvda cheklangan miqdorda eriydi. Agar suv bilan dietil efiri aralashtirilsa, ikki qavat hosil bo`ladi. Yuqori qatlam suvning efirdagi to`yingan eritmasi, pastki qatlam efirning suvdagi to`yingan eritmasi bo`ladi. Temperaturaning ortishi ularning o`zaro hohlagan nisbatlarda erishiga olib keladi.

O`zaro cheklangan miqdorda eruvchan suyuqliklarning cheksiz nisbatlarda eruvchanlik xolatiga o`tadigan temperatura suyuqliklar o`zaro erishingining kritik temperaturasi deyiladi.

Masalan:  $66,4^\circ\text{C}$  temperaturada fenol suvda, suv esa fenolda cheklanmagan miqdorda aralashadi.

#### **Osmos va osmotik bosim**

*Osmos xodisasi deb yarim o`tkazgich parda orqali erituvchi molekulalarining eritma tomonga yoki erituvchi molekulalarining konsentratsiyasi kichik eritmadan konsentratsiyasi katta eritma tomonga o`tish (diffuziya) jarayoniga aytiladi.*

*Osmotik bosim deb erituvchi molekulalarining yarim o`tkazgich parda orqali o`tishini, ya`ni osmos xodisasini to`htatish uchun eritmaga beriladigan tashqi bosimga teng bo`lgan bosimga aytiladi.*

*Osmotik bosim Vant – Goff tenglamasi bilan hisoblanadi.*

$$P = C RT$$

T – absolut temperatura

P – osmotik bosim

C – molyar konsentratsiya

R – unversial gaz doimiysi

## Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** 60°C da 540 g to`yingan litiy sulfat eritmasi bug`latilishi natijasida 96 g litiy sulfat tuzi olindi. Litiy sulfatning shu temperaturadagi eruvchanlik koeffitsentini toping.

**Yechish:**

$$1) 540 - 96_{\text{tuz}} = 444_{\text{suv}}$$

2) Eruvchanlik 100 g suvda erishini hisobga olib aniqlandi.

$$444 \text{ g H}_2\text{O} \longrightarrow 96 \text{ g tuz}$$

$$100 \text{ g H}_2\text{O} \longrightarrow x = 21,6 \text{ g}$$

**Javob: 21,6**

**2-masala.** 15°C da kaliy nitratning to`yingan eritmasida uning massa ulushi 20% ni tashkil etsa, shu temperaturada 50 g kaliy nitratni eritish uchun qancha massa (g) suv talab etiladi.

**Yechish:**

Masala shartiga ko`ra eritmaning massasini 100 g deb hisoblasak, 20 g tuz 80 g suv bo`lishini xisobga olib, proporsiya tuzamiz.

$$20 \text{ g (tuz)} \longrightarrow 80 \text{ g (suv)}$$

$$50 \text{ g (tuz)} \longrightarrow x = 200 \text{ g}$$

**Javob: 20 g suv kerak.**

**3-masala.** Kumush nitratning 80°C dagi to`yingan eritmasi 30°C gacha sovutilganda 60 g cho'kma tushgan bo'lsa, ushbu to`yingan (80°C da) eritmani tayyorlash uchun zarur bo'lган kumush nitrat va suvning massasini (g) hisoblang.  
 $S(30^\circ\text{C}) = 220$ ;  $S(80^\circ\text{C}) = 520$

**Yechish:**

$$520 - 220 = 300 \text{ g tuz} \downarrow$$

$$520_{\text{tuz}} \longrightarrow 100_{\text{suv}} \longrightarrow 300 \text{ g} \downarrow$$

$$x_1 = 104_{\text{tuz}} \longrightarrow x_2 = 20_{\text{suv}} \longrightarrow 60 \text{ g} \downarrow$$

**Javob: 104 g tuz; 20 g suv**

**4-masala.** Natriy nitratning 1520 g to`yingan (70°C dagi) eritmasi 15°C gacha sovutilganda cho'kmaga tushgan tuzning massasini (g) va eritmada qolgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.

$$S(15^\circ\text{C}) = 80; S(70^\circ\text{C}) = 140$$

**Yechish:**

1) Yuqori  $t^\circ$  dagi tuzning og`irligidan past  $t^\circ$  dagi tuzning og`irligi ayrilsa, cho`kmaga tushadigan tuzning massasi kelib chiqadi.

$$140 - 80 = 60 \text{ g} \downarrow \text{cho'kma}$$

$$2) 60 \downarrow \longrightarrow 140_{\text{tuz}} \longrightarrow 100_{\text{suv}} \longrightarrow 240 \text{ g eritma}$$

$$x = 380 \downarrow \longrightarrow x = 886,7 \text{ tuz} \longrightarrow 1520 \text{ g eritma}$$

$$3) 886,7 \text{ tuz} - 380 \text{ g} \downarrow = 506,7 \text{ g tuz eritmada qolgan}$$

$$4) m/\text{eritma} / = 1520 - 380 \downarrow = 1140 \text{ g}$$

$$5) \omega = \frac{506,7}{1140} \cdot 100 = 44\%$$

**Javob: 380 g cho`kma; 44 %**

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

203.  $\text{KNO}_3$  ning  $60^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasida 52,4% tuz mavjud. Shu temperaturadagi tuzning eruvchanlik koeffisientini aniqlang.
204. Kaliy nitratning  $40^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanlik koeffitsienti 61 ga teng. Uning 250 g to`yingan eritmasini bug`latish natijasida olingan tuz massasini (g) va shu temperaturadagi eritmasida erigan tuzning massa ulushini toping.
205. Kaliy dixromatning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanligi 12,5 grammni tashkil etadi. Shu moddaning 400 g suv bilan hosil qilgan to`yingan eritmasining massasi necha (g) bo`ladi?
206. Kaliy bromidning  $80^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda, 45 g cho`kma tushgan bo`lsa, ushbu to`yingan eritmani ( $80^{\circ}\text{C}$  da) tayyorlash uchun zarur bo`lgan kaliy bromid va suvning massasini (g) hisoblang.  $S(20^{\circ}\text{C})=60$   $S(80^{\circ}\text{C})=90$
207. Kaliy sulfatning  $50^{\circ}\text{C}$  da to`yingan eritmasidan 58 g miqdorini bug`latilgandan keyin 8 g tuz qolgan. Tuzning eruvchanligini aniqlang.
208.  $60^{\circ}\text{C}$  da 200 g to`yingan eritmada 36,5 g suvsiz  $\text{CuSO}_4$  bor. Agar eruvchanlikning o`lchami sifatida to`yingan eritmada 100 g eruvchiga to`g`ri keladigan erigan moddaning massasi bo`lsa, mis kuporosi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ning shu temperaturadagi eruvchanligi qanchaga teng bo`ladi?  
[Ar(Cu)=64], Ar(S)=32
209.  $80^{\circ}\text{C}$  da natriy xloridning 600 g to`yingan eritmasi  $0^{\circ}\text{C}$  ga qadar sovutilganda, necha gramm tuz cho`kmaga tushadi? Osh tuzining  $80^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanligi 38 g ga,  $0^{\circ}\text{C}$  dagi -35,8 g ga teng.
210.  $80^{\circ}\text{C}$  da 300 g to`yingan natriy nitrat eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushgan tuzning massasini (g) va eritmada qolgan tuzning massa ulushini (%) hisobida toping.  $S(20^{\circ}\text{C})=88$ ;  $S(80^{\circ}\text{C})=148$
211. Kaliy bromidning  $90^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi  $30^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiiganda, 120 g tuz cho`kmaga tushgan bo`lsa, ushbu to`yingan eritmani ( $90^{\circ}\text{C}$  da) tayyorlash uchun zarur bo`lgan kaliy bromid va suvning massasini (g) aniqlang.
212. Natriy sulfatning to`yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  da) eritmasi  $25^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda 200 g tuz cho`kmaga tushgan bo`lsa, ushbu to`yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  da) eritmaning va uning tarkibidagi natriy sulfat massalarini (g) hisoblang,  $S(25^{\circ}\text{C})=10$ ;  $S(120^{\circ}\text{C})=50$
213. 100 g suvda  $110^{\circ}\text{C}$  da 160 g,  $0^{\circ}\text{C}$  da esa 110 g kaliy karbonat eriydi. Kaliy karbonatning 1040 g to`yingan ( $110^{\circ}\text{C}$  da) eritmasi  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushadigan kaliy karbonatning massasini (g) hisoblang.

214. Bir tuzning xona temperaturasidagi to`yingan eritmasidagi massa ulushi 0,2 ga teng. Shu tuzning massa ulushi 0,3 bo`lgan 300 g eritmasi uy temperaturasigacha sovutilganda, qancha (g) tuz cho`kmaga tushadi?
215. Tarkibida 400 g suv bo`lgan ammoniy xloridning to'yingan ( $100^{\circ}\text{C}$  dagi) eritmasi  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda necha gramm cho`kma tushadi?  
 $S(0^{\circ}\text{C})=40$ ;  $S(100^{\circ}\text{C})=80$
216.  $25^{\circ}\text{C}$  da kaliy nitratning to`yingan eritmasida uning massa ulushi 34% ni tashkil etsa, uning shu temperaturadagi eruvchanlik koeffisienti qanchaga teng bo`ladi?
217. Natriy nitratning 1440 g to'yingan ( $70^{\circ}\text{C}$  dagi) eritmasi  $15^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushadigan tuzning massasini (g) va eritmada qolgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.  $S(15^{\circ}\text{C})=80$ ;  $S(70^{\circ}\text{C})=140$
218. Agar ammoniy xloridning  $100^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi tarkibida 50 ml suv bo`lsa, bu eritma  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda, qancha ammoniy xlorid cho`kmaga tushadi?  $S(0^{\circ}\text{C})=37,0$ ,  $S(100^{\circ}\text{C})=77,0$
219. Kaliy dixromatning  $80^{\circ}\text{C}$  dagi 200 g to`yingan eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushgan tuzning massasini (g) hisoblang.  $S(20^{\circ}\text{C})=12$ ;  $S(80^{\circ}\text{C})=45$
220. Kumush nitratning  $60^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda, 15 g tuz cho`kmaga tushishi uchun zarur bo`lgan eritmani tayyorlash uchun talab etiladigan tuz va suvning massasini toping.  $S(20^{\circ}\text{C})=222$ ,  $S(60^{\circ}\text{C})=450$
221. 100 g suvda  $80^{\circ}\text{C}$  da 520 g,  $30^{\circ}\text{C}$  da esa 220 g kumush nitrat eriydi, Kumush nitratning  $80^{\circ}\text{C}$  dagi 1240 g to`yingan eritmasi  $30^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushadigan kumush nitratning massasini (g) hisoblang.
222. Kaliy bromidning  $80^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda, 120 g tuz cho`kmaga tushishi uchun zarur bo`lgan eritmani tayyorlash uchun talab etiladigan tuz va suvning massasini toping?  
 $S(20^{\circ}\text{C}) = 60$   $S(80^{\circ}\text{C}) = 90$
223. Natriy nitratning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasidagi tuzning massa ulushi 85% bo`ladi. Shu temperatura 200 g suvda qanday massadagi tuzni eritish mumkin?
224. Natriy sulfatning to`yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  dagi) eritmasi  $25^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda 150 g tuz cho`kmaga tushgan bo`lsa, ushbu to`yingan ( $120^{\circ}\text{C}$  da) eritma va uning tarkibidagi natriy sulfat massalarini (g) hisoblang.  
 $S(25^{\circ}\text{C})= 10$ ;  $S(120^{\circ}\text{C})=50$
225. Kumush nitratning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanlik 228 g,  $80^{\circ}\text{C}$  dagisi esa 635 g bo`lsa,  $80^{\circ}\text{C}$  dagi 100 g to`yingan eritmasini  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda, kristall holda ajraladigan tuzning massasi (g) ni hisoblang.
226.  $0^{\circ}\text{C}$  da vodorod bromidning eruvchanligi 171 g bo`lsa, shu temperaturada 1 litr suvda qanday hajmdagi (1) gaz eriydi?
227. 100 g suvda  $80^{\circ}\text{C}$  da 520 g,  $30^{\circ}\text{C}$  da esa 220 g kumush nitrat eriydi, Kumush nitratning  $80^{\circ}\text{C}$  dagi 930 g to`yingan eritmasi  $30^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho`kmaga tushadigan kumush nitratning massasini (g) hisoblang.

228. Litiy xlоридning 80°C dagi to`yingan eritmasidan 645 g miqдорини 10°C гачаsovutilганда ажралib чиқадиган  $\text{LiCl} \cdot \text{H}_2\text{O}$  кристаллогидратидан неча grammhosil bo`lishini hisoblang. ( $S_{10^\circ}=72$  gr,  $S_{80^\circ}=115$  gr).
229. Ammiakning 20°C dagi eruvchanligi 1 ml suvda 702 ml ga teng bo`ladi. To`yingan eritmадаги ammiakning massa ulushini (%) hisoblang. Ammiakningbosimini normal atmosferma bosimiga teng deb oling.
230. Kaliy bromидниг 80°C dagi to`yingan eritmasi 20°C гачаsovutilганда, 90 gr cho'kma tushgan bo'lsa, ushbu to`yingan eritmani (80°C da) tayyorlash uchun zarur bo'lган kaliy bromid va suvning massasini (g hisoblang.  $S(20^\circ\text{C}) = 60$   $S(80^\circ\text{C}) = 90$
231. 80°C da kaliy yodидниг 146 g to`yingan eritmasi 20°C гачаsovutilганда, неча gramm kristall ажралib чиқади? [ $S_{20,0}=144$  g,  $S_{80,0}=192$  g]
232. 80°C da magniy sulfatning to`yingan eritmasidan 821 g miqдорини 20°C гачаsovutilганда, kristall holida ажралib чиқадиган  $\text{MgO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  cho`kmasing massasini hisoblang. [ $S_{20,0}=44,5$  g va  $S_{80,0}=64,2$  g]
233. Kumush nitratning 60°C da 1250 g to`yingan eritmasini 10°C гачаsovutilганда, kristall holida неча gramm cho`kma ажралади? [ $S_{60,0}=525$  g,  $S_{10,0}=170$  g]
234. 10°C da 1427,15 g ammiakning to`yingan eritmasini 50°C гача qizdirilganda ажралib чиқадиган ammiak hajmini (l, n.sh) hisoblang.  
[ $S_{50,0}=22,9$  g,  $S^{10,0}=67,9$  g]
235. Kaliy karbonат тузининг 25°C dagi eruvchanligi 112,3 ga teng bo`lsa, uning shu haroratидаги to`yingan eritmasining ( $\rho=1,567\text{g/ml}$ ) мольар konsentratsiyasini hisoblab toping.
236. 100 hajm dietil efirda 0,85 hajm suvda eritilganda to`yingan eritma hosil bo`ladi. Efirdagi suvning eruvchanligi (S) ni hisoblang ( $r_{efir}=0,71$  g/ml).
237. 30°C da  $\text{KNO}_3$  ning 50 gr 20% li eritmasining to`yinshi uchun yana 6,8 g  $\text{KNO}_3$  tuzi qo`shilishi kerak bo`lsa, shu tuzning eruvchanligini aniqlang.
238. Vodorod bromидниг n.sh.da suvdagi eruvchanligi 221 g. Shunday sharoitda bir hajm suvda неча hajm vodorod bromid eriydi?
239. 60°C dagi  $\text{AgNO}_3$  ning to`yingan eritmasi 20°C гачаsovutilганда, 15 g tuz cho`kmaga tushishi, uchun qancha tuzni qancha suvda eritish kerak?  
[ $\Theta_{200\text{C}}(\text{AgNO}_3)=222$ ,  $\Theta_{600\text{C}}(\text{AgNO}_3)=522$ ]
240. 20°C da 545 g bariy nitrat eritmasida 45 g tuz erigan bo`lsa, shu haroratдаги bariy nitratning eruvchanligini toping.
241. 0°C da 50 g kaliy sulfat eritmasida 3,44 g tuz erigan bo`lsa, uning eruvchanlik koeffisientini va tuzning eritmадаги масса ulushini (%) hisoblang.
242. Agar 100°C da 100 g suvda 155 g, 0°C da esa 111 g potash erib, to`yingan eritma hosil qilsa, uning 770 g eritmasi 100°C dan 0°C гачаsovutilганда, cho`kmaga tushадиган tuzning massasini (g) hisoblang.
243. Tuzning to`yingan eritmasi 90°C dan 25°C гачаsovutilганда, 200 g tuz kristallandi. Agar 90°C va 25°C da tuzning eruvchanligi 42,7 va 6,9 gramni tashkil etsa, boshlang`ich eritmадаги suv va tuz qancha massadan (g) olinishi kerak?

244. 100 g suvda  $110^{\circ}\text{C}$  da 160 g,  $0^{\circ}\text{C}$  da esa 110 g kaliy karbonat eriydi. Kaliy karbonatning 390 g to`yingan ( $110^{\circ}\text{C}$  da) eritmasi  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda cho'kmaga tushadigan kaliy karbonatning massasini (g) hisoblang.
245. Mis (II) nitratning  $60^{\circ}\text{C}$  suvda eruvchanligi 64,2% ga teng. To`yingan eritma hosil qilish uchun 500 g mis(II) nitratni  $60^{\circ}\text{C}$  suvning qancha miqdorida (g) eritish kerak?
246.  $24^{\circ}\text{C}$  da natriy nitratning molyar eruvchanligi 8,76 mol/l ga ( $\rho=1,2\text{g/ml}$ ) teng. Shu moddaning 100 g suvga nisbatan eruvchanligini (%) toping.
247. Kaliy nitratning  $40^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanlik koeffitsienti 61 ga teng bo`lsa, uning 500 g to`yingan eritmasini bug`latish natijasida olingan tuzning qattiq qizdirilishi natijasida ajralib chiqqan gazning hajmini (l, n.sh.) toping.
248. Kaliy nitratning  $40^{\circ}\text{C}$  dagi eruvchanlik koeffitsienti 61 ga teng. Uning 500 g to`yingan eritmasidagi suvning massasini (g) toping?
249. Kumush nitratning  $70^{\circ}\text{C}$  dagi to`yingan eritmasi  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda 30 g tuz cho'kmaga tushgan bo`lsa, ushbu to`yingan eritmani ( $70^{\circ}\text{C}$  da) tayyorlash uchun zarur bo'lган kumush nitrat va suvning massasini (g) hisoblang.  $S(20^{\circ}\text{C}) = 200$ ;  $S(70^{\circ}\text{C})=500$

## VII. BOB

### VII. DISPERS SISTEMALAR. ERITMALAR VA ULARNING XOSSALARI

#### VII. 1. Dispers sistemalar va ularning sinflanishi.

Bir moddaning maydalangan zarrachalari boshqa bir modda tarkibida baravar taqsimlanishidan hosil bo`lgan sistema dispers sistemalar deyiladi.

Bunday sistemada maydalangan modda **dispers faza** va bu faza tarqalgan muhit **dispersi muhit** deyiladi. Barcha dispers sistemalar disperslik darajasi bilan harakaterlanadi.

$$D = \frac{1}{a} (\text{m}^{-1})$$

D – disperslik darajasi

a – dispers zarracha o`lchami.

Disperslik darajasiga ko`ra bu sistemalar quyidagi usullariga bo`linadi.

#### VII. 2. Dag`al dispers sistemalar

Bu sistemalar tarkibida o`lchami 100 nm dan katta bo`lgan zarrachalar tutgan bo`lib, ularni oddiy ko`z bilan ko`rish mumkin. Bunday sistemalarga suspenziya va emulsiyalar misol bo`ladi.

Suspenziyalar deb, suyuq dispers muhitda qattiq dispers faza tarqalishidan hosil bo`lgan sistemalarga aytildi.

Emulsiyalar deb, ikkita o`zaro aralashmaydigan suyuqliklardan hosil bo`lgan sistemalarga aytildi. Bunday sistemalarni **geterogen** dispers sistemalar deyiladi.

#### VII. 3. Kolloid dispers sistemalar

Bunday sistemalarga tarkibida 1 nm dan 100 nm gacha kattalikdagi zarrachalar tutgan sistemalarga aytildi.

Bunday eritmalar ma`lum termodinamik barqarorlikka ega bo`lib, tashqi ko`rinishdan chin eritmalariga o`xshaydi. Bunday sistemalarni mikrogeterogen dispers sistemalar deb nomlanadi. Ularning fizik – kimyoviy xossalari kolloid kimyo fani o`rganadi.

#### VII. 4. Molekulyar – ion dispers sistemalar

Bu sistemalar boshqacha qilib chin eritmalar deyiladi. Ularning o`lchami 1 nm dan kichik bo`ladi. Tuzlar, qand va boshqa moddalar eritmasi chin eritmalaridir. Bunday sistemalar **gomogen** sistemalar degan umumiyl nom bilan ataladi.

## VII. 5. Dispers sistemalarining turlari

Dispers sistema turi	Misol	Tashqi ko'rinishi	Cho'kish xususiyati	Filtrda qolish hususiyati	O'lchami
1. Dag'al disp.sistemalar A) Suspenziyalar (suyuq-qattiq)	Loy bilan suv aralashmasi	Loyqa zarrachalarini ko'z bilan ko'rish mumkin	Oson cho'kadi(bir necha min davomida)	Oddiy filtrdan o'tmaydi	100 nm dan katta
B) Emulsiyalar (suyuq-suyuq)	Yog'yoki benzin ni suvgaga solib chayqatishdan xosil bo'lgan aralashma	Tomchilarni asbobsiz ko'z bilan ko'rish mumkin	Oson cho'kadi(bir necha min davomida)	Oddiy filtrdan o'tmaydi	100 nm dan katta
2. Kolloid disp.sistemalar A) kolloid eritma	Tuxum oqining suvdagi eritmasi	Tiniq zarrachalarni faqat ultra-mikroskop bilan ko'rish mumkin	Uzoq vaqt davomida qiyinchilik bilan cho'kadi	Kichik teshikli ultra filtrlardan(permament qog'ozi, hayvon pufagi	1nm-100nm
B) Chin eritma	Qand yoki natriy xloridning suvdagi eritmasi	Tiniq zarrachalarni hatto ultra-mikroskop bilan ham ko'rish mumkin emas	Cho'kmaydi	Har qanday filtrdan o'tib ketadi	1 nm dan kichik

### Na'munaviy masalalar .

**1-masala.** Quyidagilar: 1) Loyqa suv; 2) Sut; 3) Tuman qaysi dispers sistemaga ta'luqli.

**Javob:** suspenziya , emulsiya , aerozol

**2-masala.** Qattiq moddaning mayda zarrachalari suv molekulalari orasida bir meyorda tarqalgan muallaq zarrachali suyuqliklar qanday nomlanadi.

**Javob:** suspenziyalar.

**3-masala.** Quyidagi moddalarning qaysilari kolloid eritma hosil qiladi.

1) tovuq tuhumi; 2) soda eritmasi; 3) bariy sulfat; 4) sut

**Javob:** tovuq tuhumi, sut

**4-masala.** Kolloid eritmalar chin eritmalardan qanday hususiyati bilan farq qiladi.

**Javob:** nur tushirilganda yorug' konus hosil qilishi bilan.

**5-masala.** Shakarning suvdagi eritmasiga spirt qo'shilganda xosil bo'ladigan loyqa ma'lum vaqt orasida turg'un vaziyatda o'z xolatini saqlaydi va so'ngra asta – sekin cho'kma xosil bo'ladi. Bu qanday sistema ?

**Javob: suspenziya.**

**6-masala.** Oltin suvda erimaydi. Lekin uning zarrachalari o'lchami 50 nm bo'lgan suvdagi eritmani hosil qilish mumkin. Ushbu eritma qaysi turga kiradi.

**Javob: kolloid eritma.**

### Mustaqil yechish uchun masalalar

250. Zarrachalarning o'lchami  $5 \cdot 10^{-10}$  m bo'lgan eritma qanday turdag'i sistemalarga kiradi?
251. Kolloid eritmalariga qanday xususiyatlar xos?
- 1) eritmaning shaffofligi; 2) zarrachalar o'lchamining 100 nm dan kattaligi;
  - 3) zarrachalar o'lchamining 1-100 nm orasida bo'lishi; 4) zarrachalarning qo'shib yiriklashishi.
252. Kolloid zarrachalarining o'lchami qanday?
- 1) 1 nm dan kichik; 2) 1-50 nm; 3) 100 nm dan katta; 4) 50-100 nm.
253. Quyidagilar:
- 1) loyqa suv; 2) sut; 3) tuman qaysi dispers sistemalarga taaluqli?
254. Suyuq yoki qattiq zarrachalar gaz holdagi dispersion muhitda tarqalgan sistema qanday nomlanadi?
255. Qattiq moddaning mayda zarrachalari suv molekulalari orasida bir meyorda taqsimlangan muallaq zarrachali suyuqliklar qanday nomlanadi?
256. Eritmaning muayyan hajmida erigan moddaning miqdori kam bo'lsa, bunday eritma qanday nomlanadi?
- 1) kontsentrlangan; 2) to`yinmagan; 3) o'ta to`yingan; 4) to`yingan; 5) suyultrilgan.
257. Temir (III) gidroksidning o'lchamlari 100 nm dan katta bo'lgan zarrachalar suvda tarqalishidan hosil bo'lgan eritma qaysi dispers sistemaga kiradi?
- 1) Chin eritmalar; 2) Kolloid eritmalar; 3) Dag'al dispers sistemalar; 4) Suspenziyalar; 5) Emulsiyalar.
258. Quyidagi moddalar eritmalaridagi zarrachalar diametri qaysi holda 1 nm dan kichik?
259. Dag'al dispers sistemalardagi zarrachalar o'lchami quyidagi hollarning qaysi birida ko'rsatilganidek bo'ladi?
260. Quyidagi moddalarning qaysilari kolloid eritma hosil bo'ladi?
- 1) tovuq tuxumi; 2) soda eritmasi; 3) bariy sulfat; 4) sut.
261. Qanday turdag'i dispers sistemalar aerozollar deb nomlanadi?
262. Shakarning suvdagi eritmasida spirt qo'shilganda hosil bo'ladigan loyqa ma'lum davr orasida turg'un vaziyatda o'z holatini saqlaydi va so'ngra asta – sekin cho'kma hosil bo'ladi. Bu qanday sistema?
263. Kolloid eritmalar chin eritmalaridan qanday xususiyati bilan farq qiladi?

264. Agar tashqi ta`sir bo`lmasa qanday dispers sistemalar barqaror bo`ladi, ya`ni eskirmaydi? 1) chin eritmalar; 2) suspenziyalar; 3) emulsiyalar; 4) kolloid eritmalar.
265. Oltin suvda erimaydi. Lekin uning zarrachalarining o`lchami 50 nm bo`lgan suvdagi eritmani hosil qilish mumkin. Ushbu eritma qaysi turga kiradi? kolloid eritma
266. Ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat quyidagi jismlardan qaysi biri beqaror bo`ladi, ya`ni o`z-o`zidan eskiradi?
- 1) kumush yodining kolloid eritmasi
  - 2) osh tuzining suvdagi eritmasi
  - 3) sulfat angidridning sulfat kislotasidagi eritmasi
  - 4) kaliy xlorid va kalsiy nitratlarning birgalikdagi suvli eritmasi
  - 5) yodning spirtdagi eritmasi
267. Dispersion muhitiga gaz bo`lgan dispers sistemalarini ko`rsating.
- 1) tuman; 2) ko`pik; 3) tutun; 4) emulsiya; 5) dixlofos aerozoli; 6) fenoplast.
268. Sistemalarning qaysi biri emulsiyaga xos?
- 1) oqsil      2) sut      3) havo      4) ammoniy nitrat bilan suv
269. Emulsiya loyqadan nima bilan farq qiladi?
- 1) eritilgan modda zarrachasining o`lchami bilan
  - 2) erituvchining tabiatini bilan
  - 3) dispers fazaning agregat holati bilan
  - 4) eritmalarning shaffof bo`lmasligi bilan
  - 5) erituvchi zarrachalarning o`lchami bilan

## VIII. BOB

### VIII. Kimyoviy termodinamika elementlari.

#### Termoximiya qonunlari.

##### VIII.1. Sistema, uning holati va parametrlari.

Sistema – bu tashqi muhitdan chegara sirti bilan ajralgan, moddalar yig`indisiga aytildi. Sistema moddalar konsentrasiyasi – C, uning bosimi – P, hajmi – V, temperaturasi – T va energiyasi – E ga ega bo`ladi. Bu kattaliklar ayni sistemaning holati va parametrlari deyiladi. Sistema atrof muhit bilan ta`sirlashuviga qarab uch xil turga bo`linadi:

**1. Ochiq sistemalar** – bunday sistemalar tashqi muhit bilan modda va energiya almashinushi holatida bo`ladi. Tabiatdagi barcha jonli organizmlar ochiq sistemalarga misol bo`ladi.

**2. Yopiq sistemalar.** Bunday sistemalar tashqi muhit bilan faqat energiya almashinuvida ishtirok etadi. Bunday sistemalarga sovutgichlarni misol qilib ko`rsatish mumkin.

**3. Izolirlangan yoki mutlaqo yopiq sistemalar.** Bunday sistemalar atrof muhit bilan na massa, na energiya bilan almashinmaydi.

Bunday sistemalarga termosni misol qilish mumkin. Lekin shuni e`tirof etish lozimki, tabiatda absolyut izolirlangan sistemalar mavjud emas.

Agar sistemada barcha komponentlar bir xil fazada bo`lsa, bunday sistemalar gomogen, agar komponentlar turli fazada bo`lsa, geterogen sistemalari deyiladi.

Faza – deb sistemaning bir xil kimyoviy yoki termodinamik xossalarga ega bo`lgan va sistemaning boshqa qismlari bilan chegara sirti bilan ajralgan qismiga aytildi.

##### VIII.2. Energiya va uning bir turdan boshqa turga o`tishi.

###### Energiya va ish o`rtasidagi bog`lanish.

Energiya – bu materyaning alohida bir turdagи xarakatining miqdoriy o`lchovi hisoblanadi.

Sistemaning holati va xossalari uning fizik kimyoviy parametrlari bilan xarakterlanadi. Miqdoriy jihatdan o`lchash mumkin bo`lgan parametrlarga bosim, temperatura hajm va konsentrasiya kiradi. Bu perametrlar o`zaro holat tenglamasi bilan bog`langan. Agar sistema o`z parametrlarini o`zgartirsa unda termodinamik jarayon sodir bo`ladi. Vaqt o`tishi bilan sistema parametrlari o`z – o`zidan o`zgarmasa, sistemaning bunday holati uning muvozanat holati deb aytildi.

Sistema energiyasining o`zgarishi yoki bir turdan boshqa turga aylanishini termodinamika fani o`rganadi. Har qanday termodinamik sistema ma`lum miqdordagi zaxira energiyaga ega bo`ladi. Bu energiya sistemaning ichki energiyasi deyiladi. Sistema ichki energiyasi uning holat funksiyasi deyiladi, ya`ni u sistema parametrlariga bog`liq bo`ladi.

### VIII.3. Termodinamikaning I, II va III – qonunlari Energiya haqida tushuncha

Bu energiyaning saqlanishi va bir turdan boshqa turga aylanishi haqidagi qonun bo`lib, birinchi marta 1744 yilda M.B.Lomonosov tomonidan kashf etilgan. Termodinamikaning I-qonuni energiya saqlanishi haqidagi qonuning miqdoriy ifodalanishi hisoblanadi va quyidagicha ta`riflanadi:

Sistemaga olib kirilgan yoki undan ajralib chiqqan issiqlik sistema ichki energiyasining o`zgarishiga va ish bajarishiga sarf bo`ladi.

$$Q = \Delta U + A \quad (I)$$

$Q$  – issiqlik miqdori,  $\Delta U$  – ichki energiyaning o`zgarishi,  $A$  – bajarilgan ish.

Ikki xil termodinamik jarayonlar mavjud bo`lib doimiy bosimda boradigan jarayonlar izoxor, doimiy hajmda boradiganlari esa izobar jarayonlar deb ataladi.

Izoxor jarayonlarda  $V = \text{const}$  bo`lgani uchun bajarilgan ish  $A = P \Delta V$  nolga teng bo`ladi. Shuning uchun ham ichki energiyaning o`zgarishi faqat issiqlik berish yoki qabul qilish bilangina bog`liqdir.

$$\Delta U = Q_v$$

Izobar jarayonlarda  $V = \text{const}$  bo`ladi.

$$A = P \Delta U = P (V_2 - V_1)$$

$$\Delta U = Q_p - A; \quad \Delta U = U_2 - U_1 = Q_p - P (V_2 - V_1);$$

Yuqoridaq tenglamadan  $Q_p$  ni topsak:

$$Q_p = (U_2 + P V_2) - (U_1 + P V_1) \quad (2)$$

### VIII.4. Ichki energiya va entae`piya. Ozod energiya va entropiya to`g`risida tushuncha

$U + PV = H$  yig`indisi termodinamikada ental`piya deyiladi va  $H$  harfi bilan belgilanadi. Ental`piya sistemaning issiqlik tutumi hisoblanadi.

Bu formulada:  $U$  – ichki energiya;  $H$  – ental`piya;

(2) – tenglamadan:

$$Q_p = H_2 - H_1 = \Delta H \quad (3)$$

$$\Delta H = \Delta U + P \Delta U \quad (4)$$

$\Delta H$  – sistema ental`piyasining o`zgarishi.

$\Delta U$  – sistema ichki energiyasining o`zgarishi.

$P \Delta V$  – sistema hajmi o`zgarishida bajarilgan ish.

Ental`piya va ichki energiya sistemaning holat funksiyasi bo`lib, jarayonning qanday yo`l bilan amalga oshirishiga emas, balki sistemaning boshlang`ich va oxirgi holatlariga bog`liq bo`ladi.

Termodinamikaning I – qonuni jarayonlarning miqdoriy jihatdan baholash imkoniga ega bo`lib, jarayonning sodir bo`lishi, yoki bo`lmasligini va qanday yonalishda amalga oshishini ko`rsata olmaydi.

Bu masala termodinamikaning II – qonuni asosida tushuntiriladi. Barcha kimyoviy, texnologik yoki tabiiy jarayonlar o`z-o`zidan faqat bir yo`nalishda boradi va muvozanat qaror topguncha davom etadi. Masalan suv yuqoridan pastga oqadi, issiqlik issiq jismdan sovuq jismga o`tadi, gaz o`z-o`zidan bosim kam tomonga qarab kamayadi.

Termodinamikaning II – qonuni quydagicha ta`riflanadi. Issiqlik harorati past bo`lgan jismdan harorati yuqori bo`lgan jismga o`z-o`zidan o`ta olmaydi. (R.Klauzius ta`rifi).

Ikkinci tur abadiy dvigatelni yaratish mumkin emas. Issiqlikn ni to`liq ishga aylantirishi mumkin emas. (V.Ostvald ta`rifi).

Real qaytmas jarayonlarda energiyaning faqat bir qismigina ishga aylanadi, qolgan qismi “bog`langan” issiqlik hisoblanadi va atrof muhitga tarqaladi. Bu bog`langan energiya ham deb ataladi. Bu energiyani to`liq ta`riflash uchun R.Klauzius holatning yangi funksiyasi haqidagi tushunchani kiritdi va unga entropiya deb nom berdi.

$$\Delta S = \frac{\Delta Q}{T}; \quad (5)$$

**$\Delta Q/T$  – keltirilgan issiqlik**

$T \cdot \Delta S = \Delta Q$  – bog`langan energiya.

Entropiya sistemaning holat funksiyasi hisoblanadi va uning absolyut qiymati Planc postulati asosida hisoblanadi:


Individual kristall moddaning absolyut nol temperaturadagi ( $T=-273^{\circ}\text{C}$ ) energiyasi nolga teng bo`ladi. Bu postulat termodinamikaning III – qonuni deb ataladi. Energiyaning absolyut qiymati muvozanat holatini hisoblash uchun qo`llaniladi.

### **VIII.5. Termoximiya. Gess va Lavuaz`e - Laplas qonunlari.**

Barcha kimyoviy yoki fizik jarayonlar, adatda, issiqlik chiqishi bilan yoki yutilishi bilan boradi. Issiqlik chiqishi bilan boradigan jarayonlar ekzotermik, issiqlik yutilishi bilan boradigan jarayonlar esa endotermik jarayonlar deyiladi. Kimyoviy jarayonlarning issiqlik effekti ma`lum qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Har qanday kimyoviy jarayonning issiqlik effekti uning qanday yo`l bilan amalga oshirilishiga bog`liq emasligini 1836 yilda Rus olimi R.I.Gess tajriba yo`li bilan asoslab berdi va quydagagi qonunni kashf etdi.

Doimiy bosim va hajmda borayotgan kimyoviy jarayonlarning issiqlik effekti dastlabki moddalar va ohirgi mahsulotlarning tabiatiga va holatigagina bog`liq bo`lib, oraliq reaksiyalarga bog`liq bo`lmaydi. Bu qonun Gess qonuni deyiladi.

Gess qonunini quydagagi sxema asosida tushuntirish mumkin.



$$Q_1 = Q_2 + Q_3 + Q_4 = Q_5 + Q_6 \quad (6)$$

Gess qonuni termodinamikaning I – qonunidan kelib chiqadi va termoximianing asosiy qonuni hisoblanadi.

### Lavuaz`e – Laplas qonuni

Bu qonun quydagicha ta`riflanadi: Har qanday moddaning parchalanishi uchun zarur bo`lgan issiqlik, bu moddaning xosil bo`lishida ajralib chiqqan issiqlikka teng bo`ladi.

**Masalan:**

$$3O_2 = 2O_3 - 299 \text{ kg j/mol}$$

$$2O_3 = 3O_2 + 299 \text{ kg j/mol}$$

### VIII.6. Erish va gidratlanish issiqligi.

Erish jarayoni vaqtida ajralib chiqadigan issiqlik miqdoriga erishning issiqlik effekti deyiladi va u  $\Delta H$  bilan belgilanadi. Erish jarayoni issiqlik ajralishi bilan borsa, erishning issiqlik effekti manfiy, issiqlik yutilishi bilan borsa musbat ishoralar bilan belgilanadi. 1 mo'l modda eriganda xosil bo`lgan issiqlikka erish issiqligi deyiladi. Erish issiqligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\Delta H_{er.is} = \frac{q \cdot M}{m \cdot 1000} \text{ kJ/mo'l}$$

Bunda  $q$  – modda eriganda ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori;

$m$  – erigan moddaning massasi;

$M$  – erigan moddaning molekulyar massasi;

$q$  – quyidagi formula bilan topiladi:  $q = c \cdot m_1 \cdot \Delta t$

Bunda  $c$  – eritmaning solishtirma issiqlik sig'imi. Suv uchun  $c = 4.187 \text{ J/gradga teng}$ .

$m_1$  – erituvchining massasi;

$\Delta t$  – temperaturalar farqi.

Dastlabki formula bilan birlashtirsak quyidagi formula kelib chiqadi:

$$\Delta H_{er.is} = \frac{c \cdot m_1 \cdot \Delta t \cdot M}{m \cdot 1000} \text{ kJ/mo'l}$$

## Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** 5 g o'yuvchi natriyning 125 g suvda eritilishi natijasida temperatura  $9.71^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarildi. Eritmaning solishtirma issiqlik sig'imi suvning issiqlik sig'imiga teng deb hisoblab, 1 g/mo'l NaOH ning erish issiqligini aniqlang.

**Yechish:** Masala shartiga asosan:  $c = 4.187 \text{ J/grad}$ ;  $m_1 = 125 \text{ g}$ ;  $m = 5 \text{ g}$

$$\Delta H_{\text{er.is}} = \frac{c \cdot m_1 \cdot \nabla t \cdot M}{m \cdot 1000} = \frac{4.18 \cdot 125 \cdot 9.71 \cdot 40}{5 \cdot 1000} = 40.7 \text{ kJ/mo'l}$$

**Javob : 40.7 kJ/mo'l**

**2-masala.** NH<sub>4</sub>Cl ning erish issiqligi 16.38 kJ/mo'l ga teng. Temperaturaning  $10^{\circ}\text{C}$  ga pasaytirish uchun 200 g suvda qancha ammoniy xlorid eritish kerak ?

$$\Delta H_{\text{er.is}} = \frac{c \cdot m_1 \cdot \nabla t \cdot M}{m \cdot 1000} \text{ dan}$$

$$m_{\text{NH}_4\text{Cl}} = \frac{c \cdot m_1 \cdot \nabla t \cdot M}{\nabla H_{\text{er.is}} \cdot 1000} = \frac{4.187 \cdot 200 \cdot 10 \cdot 53.5}{16.38 \cdot 1000} = 27.3 \text{ g}$$

**Javob: 27.3**

**3 – masala.** KCl ning erish issiqligi 18.84 kJ/mo'l ga teng. 100 g suvda 2.5 g KCl eritsa, temperatura necha gradusga pasayadi ?

**Yechish:** Eritmaning issiqlik sig`imi suvning issiqlik sig`imiga teng.

$$\Delta H_{E.M} = \frac{C \cdot m_1 \cdot \Delta t \cdot M}{m \cdot 1000} \text{ dan } \Delta t = \frac{\Delta H_{\text{er.is}} \cdot m \cdot 1000}{C \cdot m_1 \cdot M} = \frac{-18,84 \cdot 2,5 \cdot 1000}{4,187 \cdot 100 \cdot 74,5} = -1,5^{\circ}\text{C}$$

bunda  $74,5 - \text{KCl}$  ning molekulyar massasi.

**4 – masala.** 2 g suvsiz CuSO<sub>4</sub> 50 g suvda eritilganda temperatura 4 gradusga ko'tarildi. CuSO<sub>4</sub> · 5H<sub>2</sub>O ning erish issiqligi – 11,52 kJ/mol CuSO<sub>4</sub> ning gidratlanish issiqligini hisoblang.

**Yechish:** a) suvsiz CuSO<sub>4</sub> ning erish issiqligini hisoblaymiz.

$$\Delta H_{E.M} = \frac{C \cdot m_{H_2O} \cdot \Delta t \cdot M_{\text{CuSO}_4}}{m_{\text{CuSO}_4} \cdot 1000} = \frac{4,187 \cdot 4 \cdot 160}{2 \cdot 1000} = 66,88 \text{ kJ/mol}$$

$$\text{b)} \Delta H_{E.M} = \Delta H_{E.M} - \Delta H_{E.M} = 66,88 - (-11,52) = 78,4 \text{ kJ/mol}$$

## Mustaqil ishlash uchun masalalar

270. 49 g sulfat kislota 400 g suvda eritilganda temperatura  $22,4^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarildi. Eritmaning solishtirma issiqlik sig`imi 3,77 J/g-grad ga teng. Sulfat kislotaning erish issiqligi hisoblang.
271. KNO<sub>3</sub> ning erish issiqligi — 35,8 kJ/mol ga teng. 7,5 g KNO<sub>3</sub> 150 g suvda eritilganda temperatura necha gradusga pasayishini hisoblang.
272. NaCl ning erish issiqligi — 5,02 kJ/mol ga teng. Temperaturani  $2^{\circ}\text{C}$  ga pasaytirish uchun 100 g suvda necha gramm natriy xlorid eritish kerak?

273. 2,5 g suvsiz  $\text{CaCl}_2$  200 g suvda eritlganda temperatura  $1,96^\circ\text{C}$  ga ko`tariladi.  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  ning erish issiqligi—19,1 kJ/mol.  $\text{CaCl}_2$  ning gidratlanish issiqligini hisoblang.
274. Ammoniy xloridning erish issiqligi 16,33 kJ/mol. Temperaturani  $4^\circ\text{C}$  ga pasaytirish uchun 250 ml suvda qancha ammoniy xlorid eritish kerak?
275. 10 g ammoniy xlorid 243 g suvda eritlganda suvning temperaturasi  $3^\circ\text{C}$  ga pasaydi. Ammoniy xloridning erish issiqligini toping.
276. 1 mol suvsiz kalsiy xlorid eritlganda 74,42 kJ/mol issiqlik ajralib chiqdi. 1 mol kiristalgidrat  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  eritlganda 19,1 kJ/mol issiqlik yutildi. Kalsiy xloridning gidratlanish issiqligini toping.
277. 14,3 g soda kristallidrat  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  eritlganda 33,52 kJ issiqlik yutildi. Kristallgidratning erish issiqligini toping.
278.  $20^\circ\text{C}$  da ammiakning eruvchanligi 1 ml suvda 702 ml ga teng. Hosil qilinadigan eritmaning konsentratsiyasini (%) da ifodalang.
279.  $20^\circ\text{C}$  da osh tuzining to`yingan eritmasi hosil qilindi. Shu eritmaning protsent konsentratsiyasini toping.
280. Sulfat kislotaning erish issiqligi 75 kJ/mol ga teng. 120 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  suvda eritlganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?
281. Osh tuzining erish issiqligi 5,024 kJ/mol ga teng. 100 g  $\text{NaCl}$  suvda eriganda qancha issiqlik yutiladi?
282. Oxaktoshni parchalash uchun 157 kj issiqlik sarflanadi. 1 kg oxaktoshni parchalash uchun qancha issiqlik sarflanadi?
283. Fosfor yondirilganda 30 10 kj issiqlik chiqdi. 1 kg fosfor yonganda qancha issiqlik chiqadi?
284. 200 g mis oksid xlorid kislotada eritlganda qancha issiqlik chiqadi?
- $$\text{CuO} + \text{HCl} \rightarrow \text{CuCl}_2 + \text{H}_2\text{O} + 63.6\text{kJ}$$
285. Stexiometrik nisbatda olingan termit yondirilgan 3329 kj issiqlik ajralib chiqdi. Massasi qanday bo'lgan aralashma yonganda. 1998 kj issiqlik ajralib chiqadi.
286. 3.04 g magniy yonganda 76.45 kj issiqlik ajralgan bo'lsa, magniy oksidning hosil bo'lish entalpiyasini hisoblang.
287. 1 mol xrom(III)- oksid alyuminiy bilan qaytarilganda, 534 kj issiqlik ajraldi. Agar 7,6 g xrom (III)- oksid qaytarilgan bo'lsa, qancha issiqlik ajraladi?
288. 1 mol kaliy metali suv bilan reakjsiyaga kirishganda 188.9 kj issiqlik ajraladi. Agar 28.25 kj issiqlik ajralgan bo'lsa, necha mol kaliy suv bilan reaksiyaga kirishgan.
289. Agar  $\text{C} + \text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + 393.5\text{kJ}$  va  $\text{CO} + 1/2 \text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + 283 \text{ kj}$  ga teng bo'lsa, grafitning CO qadar yonish issiqligini hisoblab toping.
290. Kaliy oksidning hosil bo'lish issiqligi 635.1 kj ga,  $\text{CO}_2$  ning xosil bo'lish issiqligi 393.54 kj ga teng bo'lsa va  $\text{CaCO}_3$  parchalanganda, 145.3 kj issiqlik yutilsa,  $\text{CaCO}_3$  ning xosil bo'lish issiqligini (kj) toping.
291. Agar ammiakning hosil bo'lish issiqligi 46 kj. NO ning hosil bo'lish issiqligi 90.4 kj va suv bug'larining hosil bo'lish issiqligi 242 kj ga teng bo'lsa, ammiakni katalistik oksidlanish reaksiyasining issiqlik effektini (kj) hisoblang.

292. Etil spirtining yonish issiqligi 1379 kj ga teng bo'lsa, 1 kg etil spirt yonganda, qancha issiqlik (kj) chiqadi.
293. Ohakni so'ndirish reaksiyasida 67 kj mol issiqlik ajraldi. Tarkibida issiqlik effektiga ta'sir etmaydigan 20% qo'shimchasi bo'lgan 1 tonna ohak so'ndirilganda qancha (kj) ajralib chiqadi?
294. Vodorod molekulasi hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasi quyidagicha;  $H + H \rightarrow H_2 + 436$  kj mol. Bir dona dona molekula uchun bog'lanish energiyasini (kj) toping.
295. Metan hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasi  $C + 4H \rightarrow CH_4 + 1656,88$  kj/mol. Bir molekula metan hosil bo'lishidagi bog'lanish energiyasining (kj) qiymatini toping.
296. Atsetilenning to'la gidrogenlanish reaksiyasi  $C_2H_2(g) + 2H_2(g) \rightarrow C_2H_6(g)$  uchun entalpiya qiymatini (kj/M) quyidagi ma'lumotlar asosida toping.  
 $E_c \equiv c = 836.8;$   
 $E_c - H = 414.22; EH - H = 435.14$



## IX BOB Kimyoviy kinetika

### IX.1. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar

Kimyoviy reaksiyalarning tezligi va mexanizmlari haqidagi ta'lumot kimyoviy kinetika deyiladi.

Kimyoviy reaksiyalar tezligi deb, reaksiyaga kirishuvchi moddalardan birining konsentrasiyasi vaqt birligi ichida o'zgarishiga aytildi.

#### Komyoviy reaksiya tenglamasi




$C_1 - A$  – moddaning  
 $t_1$  – vaqtdagi konsetrasiyasi

$C_2 - A$  – moddaning  
 $t_2$  – vaqtdagi konsetrasiyasi

$$\bar{V} = -\frac{C_2 - C_1}{t_2 - t_1} = -\frac{\Delta C}{\Delta t} \quad \Delta t = t_2 - t_1 \quad \Delta C = C_2 - C_1$$


Kimyoviy reaksiyaning ma'lum vaqt oralig'idagi tezligi uning haqiqiy tezligi  $\bar{V}$  – deviladi.



## IX. 2. Kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni

Kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni 1867 yilda K.M. Gul`dberg va P.Vaagelar tomonidan kashf etilgan.

Bu qonun massalar ta`siri qonuni deyiladi va quydagicha ta`riflanadi: Doimiy temperaturada kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentrasiyalari ko`paytmasiga to`g`ri proparsionaldir. Reaksiya tenglamasida stexiometrik koeffisientlar, ayni modda konsentrasiyalari darajasiga qo`yiladi.



$$V = k C^a_A C^b_B$$

**V** – kimyoviy reaksiya tezligi,  
mol/l.sek.

**C<sub>A</sub>, C<sub>B</sub>** – A va B moddalar  
konsentrasiyalari

**k** – reaksiya tezligi konstantasi  
**a,b** – A va B moddalar  
stexiometrik koeffisientlari

## Vant – Goff qoidasi

Temperatura har 10°C ga ko`tarilganda ko`pchilik kimyoviy reaksiyalarning tezligi 2 – 4 marta ortadi. Uning matematik ifodasi quyidagicha:

$$V_{t_2} = V_{t_1} \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

**V<sub>t<sub>1</sub></sub>, V<sub>t<sub>2</sub></sub>** – kimyoviy reaksiyaning  
tezliklari

**t<sub>1</sub>** – dastlabki temperatura

**t<sub>2</sub>** – oxirgi temperatura

**γ** – kimyoviy reaksiyaning temperatura  
koeffisenti

$$\gamma = \frac{Kt + 10}{Kt}; \text{ Vant Goff koeffisenti}$$

γ ÷ 2 – 4 ga teng.

## Aktivlanish energiyasi

**Aktivlanish** – qo`shimcha energiya berish yo`li bilan passiv molekulalarni aktiv molekulalarga o`tkazilishi.

Molekulalarni aktiv holatga o`tkazish uchun kerak bo`lgan energiya – **Aktivlanish** energiyasi deyiladi. Aktivlanish energiyasi – E<sub>a</sub>, kDj/mol

Aktivlanish energiyasi kichik bo`lgan moddalar reaksiyasi tez boradi.

Tezlikka bosimning ta'siri – modda konsentratsiyasi  $C = n/V$ , gaz qonunlariga ko'ra gazning hajmi uning bosimiga teskari proporsionaldir, shuning uchun bosim ortganda hajm kichrayadi va modda konsentratsiyasi ortadi natijada reaksiya tezlashadi.

Gazlarning reaksiya tezligi formulasi

$$V = k \cdot P_A \cdot P_B$$


### IX.3. Kimyoviy reaksiya tezlik doimiysining fizik ma`nosi.



Agar doimiy temperaturada reaksiya kirishuvchi moddalar konsentrasiyalari  $C_A$  va  $C_B$  1 molga teng bo`lsa,  $V = K$  ga teng bo`ladi; ya`ni reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyalari 1 mol/l ga teng bo`lganda reaksiya tezligi uning tezlik doimiysi deyiladi.

### Qaytmas reaksiyalar.

Faqat reaksiya mahsulotlari xosil bo`lishi yo`nalishida boruvchi reaksiyalar qaytmas reaksiyalar deyiladi.




Reaksiya mahsulotlaridan biri reaksiya muhitidan chiqib ketadi:

**I. a)** cho`kmaga tushsa:



**b)** gaz ajralib chiqsa.



**II.** Kam dissosilanadigan modda hosil bo`lsa.



**III.** Reaksiya vaqtida ko`p issiqlik ajralsa:



Bir vaqtning o`zida to`g`ri va teskari yo`nalishida boradigan reaksiyalar qaytar reaksiyalar deyiladi:



## Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** Hajmi 3 litr bo`lgan idishda 5,5 mol modda 30 sekund o`tgandan so`ng 2,5 molgacha kamaysa, reaksiya tezligi (mol/l·sekund) qanchaga teng bo`ladi.

**Yechish:**

$$v = \frac{\Delta C}{\Delta t \cdot v} = \frac{C_2 - C_1}{t_2 - t_1 \cdot v} \text{ formulaga asoslanib, reaksiyaning o`rtacha tezligi (mol/l·sek)}$$


$$\text{aniqlanadi; } v = \frac{5,5 - 2,5}{30 \cdot 3} = 0,033 \text{ mol/l · sek}$$

**Javob: 0,033 mol/l·sek**

**2-masala.**  $\text{H}_2\text{S} + \text{O}_2 = \text{S} + \text{H}_2\text{O}$  ushbu reaksiyada vodorod sulfidning konsentratsiyasi to`rt marta oshirilib, kislorodning konsentratsiyasi ikki marta kamaytirilsa, to`g`ri reaksiyaning tezligi necha marta ortadi.

**Yechish:**

1) Dastlab reaksiya tenglamasini olamiz.



$$2) V_{\text{to`g`ri}} = K[A]^a \cdot [B]^b = 2^4 \cdot 2^1 = 2^{4+1} = 2^5 \text{ ya`ni 8}$$

**Javob: 8 marta tezlashadi.**

**3-masala.** Hajmi 10 litr bo`lgan idishda 6 g vodorod va 142 g xlor o`zaro reaksiyaga kirishdi. Reaksiya tezligi 0,5 mol/(l-min)ga teng bo`lsa, qancha vaqt dan (minut) so`ng idishdagi xlorning miqdori 35,5 g ni tashkil etadi.

**Yechish:**

$$1) V_{\text{o`rt}} = \frac{C_2 - C_1}{\Delta t \cdot v} \text{ formuladan vaqt topiladi. } \Delta t = \frac{C - C}{V_{\text{o`rt}} \cdot V}$$

2) Masala shartiga ko`ra xlorning miqdori 142 g (2 mol) dan 35,5 g (0,5 mol) gacha kamayish uchun qancha vaqt (minut) sarf bo`lishini hisoblaymiz.

$$\Delta t = \frac{C - C}{V_{\text{o`rt}} \cdot V} = \frac{2 - 0,5}{0,5 \cdot 10} = 0,3 \text{ minut}$$

**Javob: 0,3 minut**

**4-masala.** Temperatura 50°C dan 20°C gacha sovutilganda reaksiya tezligi 216 marta kamayadi. Shu reaksiyaning temperatura koeffisientini hisoblang.

**Yechish:**

$$1) \text{ Berilgan } t_1 = 20^\circ\text{C}, t_2 = 50^\circ\text{C} \quad V_{t_2}/V_{t_1} = 216 \quad \gamma - ?$$

$$\frac{t_2 - t_1}{10}$$

$$2) \frac{V_{t_2}}{V_{t_1}} = \gamma \quad \text{formulaga asosan}$$

$$216 = \gamma$$

$$\frac{50-20}{10}$$

$$\gamma = 6$$

$$216 = \gamma^3$$

**Javob:**  $\gamma = 6$ .

**5-masala.** Temperatura  $30^\circ\text{C}$  dan  $80^\circ\text{C}$  gacha oshirilganda reaksiya tezligi 1200 marta o`rtadi. Reaksiyaning temperatura koeffisientini hisoblang.

**Yechish:**

1) Berilgan:  $t_1=30^\circ\text{C}$ ,  $t_2=80^\circ\text{C}$        $V_{t_2}/V_{t_1}=216$        $\gamma - ?$

$$\frac{t_2 - t_1}{10}$$

2)  $\frac{V_{t_2}}{V_{t_1}} = \gamma$       formuladan foydalanib  $\gamma$  – ni aniqlaymiz.

$$\frac{80-30}{10}$$

$1200 = \gamma$        $1200 = \gamma^5$  bu tenglamani yechishda ushbu ifodaning logarifmiga bo`linadi:

$$5 \log \gamma = \log 1200$$

$$\gamma = \frac{\log 1200}{\log 5} = \frac{3,079}{0,69897} = 4,4$$

**Javob:**  $\gamma = 4,4$

**6-masala.** Temperatura koeffitsiyenti 2 va 4 bo`lgan ikkita reaksiyaning boshlang`ich temperaturalari tegishli ravishda  $30^\circ\text{C}$  va  $40^\circ\text{C}$  ga teng. Qanday temperaturada ( $^\circ\text{C}$ ) ikkinchi reaksiyaning tezligi birinchisiga teng bo`ladi.

**Yechish:**

$$\frac{t_2 - t_1}{10}$$

1)  $\frac{V_{t_2}}{V_{t_1}} = \gamma$       tenglamadan foydalanib, keyingi temperaturani aniqlab olamiz ya`ni

$$\frac{x-30}{10} = \frac{x-40}{10}$$

2) Ushbu tenglamani yechish uchun temperatura koeffisientlarini bir hil holatga keltirib olamiz.

$$\frac{x-30}{10} = 2 \cdot \frac{x-40}{10}$$

$$2 = 2$$

tenglamani ixchamlashtirsak.

$$3) \frac{x-30}{10} = \frac{2x-80}{10}$$

$$0,1x - 3 = 0,2x - 8$$

$$5 = 0,1x$$

$$x = 50$$

**Javob:  $50^{\circ}\text{C}$  da tezliklar tenglashadi.**

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

297. Temperatura koeffitsiyenti 2 bo`lgan reaksiyada  $\text{A}_{2(\text{g})} + \text{B}_{(\text{g})} \rightarrow \text{AB}_{2(\text{g})}$  boshlang`ich moddalarning konsentrasiyasi ikki marta oshrilsa va temperatura  $40^{\circ}\text{C}$  ga pasaytirilsa, reaksiyaning tezligi qanday o`zgaradi?
298. Hajmi 10 litr bo`lgan idishda 336 g azot va 70 g vodorod o`zaro reaksiyaga kirishdi. Reaksiya tezligi  $0,6 \text{ mol/(l-min)}$  gat eng bo`lsa, qancha vaqt dan (sekund) so`ng idishdagi azotning miqdori 224 gramni tashkil etadi?
299. Reaksiya boshlanganidan keyin 90 sekund o`tgach kislorod konsentratsiyasi  $0,2 \text{ mol/l}$  ni, yana 4,5 minut o`tgandan so`ng esa  $19,2 \text{ g/l}$  ni tashkil qildi. Reaksiyaning o`rtacha tezligini ( $\text{mol}^{-1} \cdot \text{min}^{-1}$ ) hisoblang.
300. Reaksiyaning temperaturasi  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko`tarilganda uning tezligi 4 marta ortdi. Ushbu reaksiya temperaturasini  $74^{\circ}\text{C}$  dan  $34^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilganda reaksiyaning tezligi qanday o`zgaradi?
301. Temperatura koeffitsiyentlari  $3/2$  va  $5/2$  bo`lgan ikkita reaksiyaning  $23^{\circ}\text{C}$  dagi tezligi bir xil temperatura  $53^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tarilganda, ikkinchi reaksiya tezligi birinchi reaksiya tezligidan necha marta katta bo`ladi?
302. Reaksiyaning  $22^{\circ}\text{C}$  va  $41^{\circ}\text{C}$  dagi tezlik konstantasi tegishli ravishda  $7,4 \cdot 10^{-3} \text{ s}^{-1}$  va  $11,84 \cdot 10^{-2} \text{ s}^{-1}$  ma`lum bo`lsa, temperatura koeffitsiyentini hisoblang.
303. Temperatura koeffitsiyenti  $1,2$  ga teng bo`lgan reaksiya  $35^{\circ}\text{C}$  da  $1,8$  minutda yakunlanadi. Ushbu reaksiyani 75 sekundda tugatish uchun temperaturani necha gradusgacha ( $^{\circ}\text{C}$ ) ko`tarish kerak?
304. Temperatura koeffitsiyenti  $3$  va  $9$  bo`lgan ikkita reaksiyaning boshlang`ich temperaturalari tegishli ravishda  $40^{\circ}\text{C}$  va  $50^{\circ}\text{C}$  ga teng. Qanday temperaturada ( $^{\circ}\text{C}$ ) reaksiyalarning tezliklari tenglashadi?
305.  $\text{CO}_{2(\text{g})} + \text{NH}_{3(\text{g})} \xrightarrow{F} \dots$  reaksiyada  $\text{CO}_2$  ning konsentratsiyasi besh marta oshrilsa,  $\text{NH}_3$  ning konsentratsiyasi ikki marta kamaytirilsa, to`g`ri reaksiya tezligi necha marta ortadi?
306. Azot (V) oksidining  $39^{\circ}\text{C}$  va  $69^{\circ}\text{C}$  dagi parchalanish reaksiyalarining tezlik konstantasi tegishli ravishda  $3,6 \cdot 10^{-4} \text{ s}^{-1}$  va  $28,8 \cdot 10^{-4} \text{ s}^{-4}$  ga teng bo`lsa, reaksiyaning temperatura koeffitsiyentini aniqlang.
307. Reaksiyadagi A va B moddalarning konsentratsiyalarini tegishli ravishda 2 va 3 marta oshrilganda to`g`ri reaksiyaning tezligi 54 marta o`zgaradi. Qanday reaksiya tenglamasi bir yuqoridagi shartlarni qanoatlantiradi?
308.  $(\text{Fe} + \text{Cl}_2 \rightarrow \dots)$  sistemaning bosimi ikki marta oshrilsa, to`g`ri reaksiyaning tezligi necha marta ortadi?

309. Temperatura koeffitsiyenti 2 ga teng bo`lgan reaksiya  $173^{\circ}\text{C}$  da 200 sekundda yakunlanadi. Ushbu reaksiyani 25 sekundda tugatish uchun temperaturani necha gradus gacha ( $^{\circ}\text{C}$ ) ko`tarish kerak?
310. Hajmi 20 litr bo`lgan idishda 4 g vodorod va  $213\text{ g xlor o`zaro}$  reaksiyaga kirishdi. 5 minutdan so`ng idishda 1,6 g vodorod qoldi. Reaksiya o`rtacha tezligini ( $\text{mol/(l sek)}$ ) aniqlang.
311.  $(\text{NH}_3 + \text{O}_2 \rightarrow \dots)$  sistemaning temperatura koeffisenti 2 ga teng. Boshlang`ich moddalarning konsentratsiyasi ikki marta oshirilsa va temperatura  $70^{\circ}\text{C}$  ga kamaytirilsa reaksiyaning tezligi qanday o`zgaradi?
312. Temperatura koeffisentlari  $5/3$  va  $7/3$  bo`lgan ikkita reaksiyaning  $59^{\circ}\text{C}$  dagi tezligi bir xil. Temperatura  $79^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tarilganda, ikkinchi reaksiya tezligi birinchi reaksiya tezligidan necha marta katta bo`ladi?
313. Reaksiya boshlanganidan keyin 6,25 minut o`tgach hosil bo`lgan azot konsentratsiyasi  $21\text{ g/l}$  ni tashkil qilsa, reaksiyaning o`rtacha tezligini ( $\text{mol}^{-1} - \text{sek}^{-1}$ ) hisoblang.
314. Azot (II) oksidning kislород ishtirokida azot (IV) oksidga oksidlanishida to`g`ri reaksiyaning tezligini 512 marta oshirish uchun sistemaning bosimini necha marta oshirish kerak?
315. Boshlang`ich temperaturada reaksiya 18 minutda tugaydi. Temperatura  $87^{\circ}\text{C}$  gacha oshirilganda reaksiya 2,25 minutda tugasa, boshlang`ich temperaturani ( $^{\circ}\text{C}$ ) aniqlang ( $\gamma = 2$ ).
316. Sistemaning temperaturasini  $10^{\circ}\text{C}$  ga ko`tarilganda reaksiya tezligi 4 marta ortdi. Agar temperaturani  $132^{\circ}\text{C}$  dan  $92^{\circ}\text{C}$  ga tushirsak reaksiya necha marta kamayadi?
317.  $\text{HCl}_{(\text{g})} + \text{O}_{2(\text{g})} \rightarrow \text{Cl}_{2(\text{g})} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{g})}$  reaksiyada kislородning konsentratsiyasi to`rt marta oshirilsa,  $\text{HCl}$  ning konsentratsiyasi ikki marta kamaytirilsa, to`g`ri reaksiya tezligi necha marta ortadi?
318. Temperatura koeffisenti  $5/2$  bo`lgan reaksiyaning tezligini 6,25 marta oshirish uchun reaksiyon aralashmaning temperurasini necha gradusga ( $^{\circ}\text{C}$ ) ko`tarish kerak bo`ladi?
319. Reaksiya boshlanmasdan oldin moddaning konsentratsiyasi  $1,6\text{ mol/l}$  bo`lib, 5 minutdan so`ng uning konsentratsiyasi  $0,2\text{ mol/l}$  ga teng bo`ldi. Reaksiya tezligini [ $\text{mol l.s.}$ ] aniqlang.
320. Temperatura koeffisenti 3 bo`lgan reaksiya tezligi  $40^{\circ}\text{C}$  da  $2\text{ mol/(l.s.)}$  bo`lgan. Shu reaksiya tezligi  $80^{\circ}\text{C}$  da qanchaga teng bo`ladi?
321. Quydagi sistemada  $\text{CH}_4 + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$  metan gazining konsentratsiyasi ikki marta va kislород konsentratsiyasi ikki marta oshirilsa, to`g`ri reaksiya tezligi qanday o`zgaradi?
322.  $20^{\circ}\text{C}$  da ikkita reaksiya tezligi bir xil. Birinchi reaksiyaning temperatura koeffisenti 2, ikkinchisiniki esa 3 ga teng.  $50^{\circ}\text{C}$  da ikkinchi reaksiya tezligi birinchinikidan necha marta katta bo`ladi?
323. Agar tenglamasi  $\text{A} + \text{B} \rightleftharpoons 2\text{C}$  bo`lgan reaksiya B moddaning konsentratsiyasi 2 minut davomida  $0,40\text{ mol/l}$  dan  $0,15\text{ mol/l}$  gacha kamaygan bo`lsa, shu reaksiya tezligi ( $\text{mol} \cdot \text{l}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ ) B modda konsentratsiyasi bo`yicha qancha bo`ladi?


324. Hajmi 2 litr bo`lgan idishda 4,5 mol modda miqdori 20 sekund o`tgandan so`ng 2,5 molgacha kamaysa, reaksiya tezligi ( $\text{mol}\cdot\text{l}^{-1}\cdot\text{s}^{-1}$ ) qanchaga teng bo`ladi?
325. Tenglamasi  $\text{A}+2\text{B}=\text{C}$ , bo`lgan reaksiya tezligi  $\text{A}=0,5$  va  $\text{B}=0,6 \text{ mol/l}$  bo`lganda  $0,018 \text{ mol}\cdot\text{l}^{-1}\cdot\text{sek}^{-1}$  ga teng ekanligi aniqlangan bo`lsa, reaksiyaning tezlik konstantasini toping.
326. Azot(IV) oksidning hosil bo`lishi 1000 marta tezlashishi uchun, azot(II) oksid bilan kislород орасида борадиган реаксиyaning bosimini necha marta oshirish kerak?
327.  $\text{CO}+\text{Cl}_2 \rightarrow \text{COCl}_2$  sistemasida CO konsentatsiyasini 0,03 dan  $0,12 \text{ mol}\cdot\text{l}^{-1}$  gacha  $\text{Cl}_2$  nikini 0,02 dan  $0,06 \text{ mol}\cdot\text{l}^{-1}$  gacha o`zgartirilganda o`ng tomonga борадиган реаксиya tezligi necha marta ortadi?
328. Temperatura koeffisenti 3 bo`lgan reaksiya tezligi  $25^\circ\text{C}$  da  $5\cdot10^{-1} \text{ mol}\cdot\text{l}^{-1}\cdot\text{s}^{-1}$  ga teng shu reaksiya tezligi  $45^\circ\text{C}$  da qanday bo`ladi?
329. Temperatura koeffisenti 3 ga teng bo`lgan reaksiya  $293 \text{ K}$  da 3 soatda tugallanadi. Reaksiyani 20 minutda tugallash uchun temperaturani qancha(K)ga ko`tarish kerak?
330. Agar reaksiyaning o`rtacha tezligi  $0,2 \text{ mol/l}\cdot\text{sek}$  bo`lganda, boshlang`ich moddalardan birining konsentratsiyasi  $1 \text{ mol/l}$  ga kamaysa, reaksiya qancha vaqt davom etgan (s) bo`ladi?
331. Agar temperatura  $60^\circ\text{C}$  ga ortganda reaksiya tezligi 729 marta ortsа, reaksiya tezligining temperatura koeffisenti nechaga teng bo`ladi?
332. Kimyoviy reaksiyaning tezlik konstantasi  $100^\circ\text{C}$  da  $6\cdot10^{-4}$  ga,  $150^\circ\text{C}$  da  $14,6\cdot10^{-2}$  ga teng bo`lsa, uning temperatura koeffisentini toping?
333.  $60^\circ\text{C}$  da reaksiya tezligi  $0,64 \text{ mol/min}$  ga teng. Reaksiyaning  $10^\circ\text{C}$  dagi tezligini ( $\gamma=2$ ) hisoblang.
334.  $30^\circ\text{C}$  da reaksiya 2 minut 40 sekund davom etsa,  $70^\circ\text{C}$  da shu reaksiya 10 sekundda tugaydi. Reaksiyaning temperatura koeffisentini aniqlang.
335.  $\text{HCOOH} \rightarrow \text{CO}_2 + \text{H}_2$  reaksiyaning  $140^\circ\text{C}$  dagi tezlik konstantasi  $5,75\cdot10^{-4}$  ga,  $180^\circ\text{C}$  da esa  $9,2\cdot10^{-3}$  ga teng. Reaksiyaning temperatura koeffisentini toping?
336. Temperatura  $30^\circ\text{C}$  dan  $80^\circ\text{C}$  gacha oshirilganda, reaksiya tezligi 1200 marta ortadi. Reaksiyaning temperatura koeffisentini hisoblab toping.
337. Harorat  $45^\circ\text{C}$  pasayganda, reaksiya 25 marta sekinlashsa, reaksiyaning temperatura koeffisentini hisoblang.
338. Reaksiya tezligini 90 marta oshirish uchun haroratni necha gradusga oshirish kerak? Reaksiyaning temperatura koeffisenti 2,7 ga teng.
339.  $410^\circ\text{C}$  da vodorod va yodning 68% vodorod yodidga o`tadi. Shu temperaturada reaksiyaning muvozanat konstantasi necha teng bo`ladi?
340.  $\text{N}_2 + \text{H}_2 \rightarrow \text{NH}_3$  reaksiyada azot va vodorodlarning dastlabki konsentratsiyasi 3 va  $11 \text{ mol/l}$  ga teng. Vodorodning 12% reaksiyaga kirishganda muvozanat qaror topdi. Sistemadagi azot, vodorod va ammiyaklarning muvozanat konsentrasiyasini aniqlaymiz.

## X. BOB

### X. KIMYOVIY MUVOZANAT. KATALIZ

#### X.1. Kimyoviy muvozanat

Qaytar reaksiyalar ohirigacha bormaydi va kimyoviy muvozanat qaror topishi bilan yakunlanadi. Bunda to`g`ri va teskari reaksiyalarning tezligi o`zaro tenglashadi.



$$V_1 = K_1 [A]^a[B]^b$$

$$V_2 = K_2 [C]^c[D]^d$$

$$V_1 = V_2$$

*Kimyoviy muvozanat*

$$K_1 [A]^a[B]^b = K_2 [C]^c[D]^d$$

$$K_{\text{muv}} = \frac{K_1}{K_2} = \frac{[C]^c[D]^d}{[A]^a[B]^b}$$

Muvozanat konstantasi  $K_m$  temperatura va reaksiyaga kirishuvchi moddalar tabiatiga bog`liqdir.

Reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyasi kimyoviy muvozanat vaqtida muvozanat konsentrasiyalari deyiladi va  $[H_2]$ ,  $[N_2]$ ,  $[NH_3]$ ,  $[A]$ ,  $[B]$  tarzda yoziladi.

Sistema muvozanatda bo`limgan holdagi konsentrasiyalar esa:  $CH_2$ ,  $CN_2$ ,  $CNH_3$  tarzda yoziladi.

#### X.2. Kataliz va katalizatorlar

Kimyoviy muvozanatga yoki konsentrasiyaning ta`siridan farqi o`larop, katalizator muvozanat holatiga ta`sir ko`rsatmaydi. Chunki katalizator to`g`ri va teskari reaksiyalar tezligiga bir xil tarzda ta`sir etadi va muvozanatning siljishiga ta`sir ko`rsatmaydi.

Aktivlanish energiyasining o`zgarishi hisobiga reaksiya tezligini o`zgartiruvchi moddalar katalizatorlar deyiladi.

Kimyoviy reaksiya tezligini kamaytiruvchi moddalar ingibitorlar deyiladi va bunday kataliz salbiy kataliz deyiladi.

Kimyoviy reaksiya tezligining katalizator ta`sirida ortishi ijobiy kataliz deyiladi. Bunda aktivlanish energiyasi  $E_{akt}$  – kamayadi.

**Gomogen kataliz** reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator bir xil faza hosil qiladi.

**Geterogen kataliz.** Reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator har xil fazalar hosil qiladi.

Katalizator ishtirokida boruvchi reaksiyalar katalitik reaksiyalar deyiladi.

### X.3. Le – Shatele prinsipi yoki harakatlangan muvozanat prinsipi.

Agar muvozanatda turgan sistemaga tashqi ta'sir ko'rsatilsa (C-konsentrasiya, T-bosim, P-temperatura) sistema bu ta'sirni kamaytiruvchi reaksiya tomonga siljiydi. Bu prinsiyani 1884 yil Le-Shatele isbotlab berdi.


**1) Konsentrasiyaning ta'siri:** Reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasi oshirilganda kimyoviy muvozanat xosil bo'layotgan maxsulotlar tomoniga siljiydi. Mahsulot konsentratsiyasi oshirilsa, muvozanat reagentlar xosil bo'lish tomoniga siljiydi.

**2) Temperaturaning ta'siri:** Temperatura oshirilsa kimyoviy muvozanat endotermik reaksiya (issiqlik yutilish) tomonga siljiydi. Temperatura pasaytirilsa, kimyoviy muvozanat ekzotermik reaksiya (issiqlik chiqish) tomonga siljiydi.

**3) Bosimning ta'siri:** Bosim oshirilsa, kimyoviy muvozanat hajm kam tomonga siljiydi. Bosim pasaytirilsa, kimyoviy muvozanat hajm ko'p tomonga siljiydi.

Agar reaksiya tenglamasining chap tomonidagi molekulalar soni, o'ng tomonidagi molekulalar soniga teng bo'lsa, bosimning o'zgarishi kimyoviy muvozanatning siljishiga ta'sir etmaydi.


#### Ammiakning hosil bo`lishi.



## Na'munaviy masalalar.

**1-masala.**  $\text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} \rightleftharpoons \text{CO}_{2(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiyaning muvozanat konstantasi 1 ga teng. CO va H<sub>2</sub>O ning boshlang`ich konsentrasiyasi 4 va 5 mol/l bo`lsa, ularning muvozanat holatdagi konsentrasiyalarini (mol/l) aniqlang.

**Yechish:**



b)  $K_M = \frac{[\text{CO}_2] \cdot [\text{H}_2]}{[\text{CO}] [\text{H}_2\text{O}]} = \frac{x \cdot x}{(4-x)(5-x)} = 1$

$$x^2 = (4-x)(5-x)$$

$$x^2 = 20 - 4x - 5x + x^2; \quad x^2 \text{ qisqartirilsa}$$

$$20 = 9x$$

$$x = 2,22$$


c)  $[\text{CO}] = 4 - 2,22 = 1,78 \text{ mol/l}$   
 $[\text{H}_2\text{O}] = 5 - 2,22 = 2,78 \text{ mol/l}$

**Javob: 1,78; 2,78**

**2-masala.**  $\text{NO} + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{NO}_2$  reaksiya hajmi 0,01 m<sup>3</sup> bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ ) 0,3 mol NO<sub>2</sub> hosil bo`ladi. NO ning boshlang`ich konsentrasiyasi 0,6 mol/l bo`lsa, muvozanat qaror topishi uchun kislород miqdorining (mol) necha foizi sarflangan?

**Yechish:**

$$x=0,3 \quad x=0,15 \quad 0,3 \text{ mol}$$



b)  $[\text{NO}] = 0,6 - 0,3 = 0,3 \text{ mol/l}$

c)  $K_m = \frac{[\text{NO}_2]^2}{[\text{NO}]^2 \cdot [\text{O}_2]} = \frac{0,3^2}{0,3^2 \cdot x} = 1$

$$x = 1 \text{ mol/l O}_2$$

d)  $0,01 \text{ m}^3 = 10 \text{ litr}$

$$n[\text{O}_2] = C_M \cdot V = 0,15 \cdot 10 = 1,5 \text{ mol}$$

$$n[\text{O}_2] = 1 \cdot 10 = 10 \text{ mol}$$


$$n[\text{umumiyl}] = 1,5 + 10 = 11,5 \text{ mol}$$

f)  $\omega_{\text{O}_2} = \frac{1,5}{11,5} \cdot 100\% = 13,04\%$

**Javob: 13,04 %**

**3-masala.**  $\text{CH}_{4(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_{(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiyada muvozanat qaror topganda ( $K_M = 1$ ) vodorodning konsentrasiyasi 3 mol/l ni tashkil qiladi.  $\text{CH}_4$  ning dastlabki konsentrasiyasi 10 mol/l bo`lsa, suvning dastlabki konsentrasiyasini (mol/l) aniqlang.

**Yechish:**



$$\text{b)} \quad [\text{CH}_4] = 10 - 1 = 9 \text{ mol/l}$$

$$\text{c)} \quad K_M = \frac{[\text{CO}] \cdot [\text{H}_2]^3}{[\text{CH}_4] \cdot [\text{H}_2\text{O}]} = \frac{1 \cdot 3^3}{9 \cdot x} = 1$$


$$x = 3 \text{ mol/l H}_2\text{O}$$

$$\text{d)} \quad [\text{H}_2\text{O}] \text{ dastlabki} = 3 + 1 = 4 \text{ mol/l}$$

**Javob: 4 mol/l**

**4-masala.**  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  reaksiyada A ning boshlang`ich konsentrasiyasi 0,8 mol/l bo`lib, D dan 0,3 mol/l hosil bo`lganda muvozanat qaror topdi ( $K_M=1$ ). Muvozanat holatdagi barcha moddalar konsentrasiyalarning (mol/l) yig`indisini hisoblang.

**Yechish:**



D moddadan 0,3 mol/l hosil bo`lganda A modda 0,8 mol/l dan 0,5 mol/l sarflanmay qoladi. Reaksiyada C moddadan ham 0,3 mol/l hosil bo`ladi.

Demak; bulardan foydalanib B ning muvozanat holatdagi konsentrasiyasini topamiz.

$$B = \frac{[C] \cdot [D]}{[A]} = \frac{0,3 \cdot 0,3}{0,5} = \frac{0,09}{0,5} = 0,18$$



$$\begin{array}{l} \text{b)} \quad [\text{A}] = 0,5 \text{ mol/l} \\ \quad [\text{B}] = 0,18 \text{ mol/l} \\ \quad [\text{C}] = 0,3 \text{ mol/l} \\ \quad [\text{D}] = 0,3 \text{ mol/l} \end{array}$$

$$\text{c)} \quad [\text{umumi}] = 0,5 + 0,18 + 0,3 + 0,3 = 1,28 \text{ mol/l}$$

**Javob: 1,28 mol/l**

**5-masala.**  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  sistemada moddalarining muvozanat holatdagi konsentrasiyasi (mol/l) tenglamaga mos ravishda 6, 4, 3, 8 ga teng. Sistemaga B moddadan 2 mol qo`shilgandan keyin, B va D moddalarining yangi muvozanat konsentrasiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 litr bo`lgan idishda olib borildi).

**Yechish:**




$$\begin{aligned} (6-x) \cdot (6-x) &= (3-x)(8-x) \\ 36 - 6x - 6x + x^2 &= 24 - 3x - 8x + x^2 \\ x^2 \text{ lar qisqartirilsa} \\ 36 - 12x &= 24 - 11x \\ 36 - 24x &= 11x + 12x \\ 12 &= 23x \\ x &= 0,52 \end{aligned}$$

$$\begin{array}{c} \text{c)} \quad [\text{B}] = 6 - 0,52 = 5,48 \text{ mol/l} \\ \quad [\text{D}] = 8 + 0,52 = 8,52 \text{ mol/l} \end{array}$$

**Javob: 5,48; 8,52**

**6-masala.** Ammiakning oksidlanish tenglamasi  $\text{NH}_3 + \text{O}_2 \rightarrow \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$  bo`yicha sodir bo`ladigan jarayon muvozanat holiga kelganda, moddalar konsentrasiyalari  $[\text{NH}_3]=1,2 \text{ mol/l}$ ,  $[\text{O}_2]=0,6 \text{ mol/l}$ ,  $[\text{NO}]=0,6 \text{ mol}$  ga teng bo`lgan. Muvozanat holatidagi suvning  $\text{NH}_3$  va  $\text{O}_2$  ning boshlang`ich konsentrasiyalarini ( $\text{mol/l}$ ) hisoblang.

**Yechish:**



Bitta moddalarimizning ( $\text{H}_2\text{O}$  dan tashqari) muvozanat holatdagi konsentrasiya ma`lum. Shuning uchun NO dan foydalanib suvning muvozanat holatdagi konsentrasiyasini hamda  $\text{NH}_3$  va  $\text{O}_2$  dan qanchadan sarflanganini aniqlaymiz.

$$\text{b)} \quad M_{(\text{H}_2\text{O})} = \frac{0,6 \cdot 6}{4} = 0,9 \text{ mol/l}$$

$$S_{(\text{NH}_3)} = \frac{0,6 \cdot 4}{4} = 0,6 \text{ mol/l}$$

$$S_{(\text{O}_2)} = \frac{0,6 \cdot 5}{4} = 0,75 \text{ mol/l}$$

c) Sarflangan  $\text{NH}_3$  va  $\text{O}_2$  konsentrasiyasi aniqlandi. Shundan foydalanib ularning boshlang`ich konsentrasiyasini aniqlaymiz.

$$B_{(\text{NH}_3)} = 1,2 + 0,6 = 1,8 \text{ mol/l}$$

$$B_{(\text{O}_2)} = 0,6 + 0,75 = 1,35 \text{ mol/l}$$


**Javob:  $\text{H}_2\text{O} = 0,9 \text{ mol/l}$**

**$\text{NH}_3 = 1,8 \text{ mol/l}$**

**$\text{O}_2 = 1,35 \text{ mol/l}$**

**7-masala.**  $\text{HCl}_{(g)} + \text{O}_{2(g)} = \text{Cl}_{2(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)}$  reaksiyada kislородning 35% i sarflanganda kimyoviy muvozanat qaror topdi. HCl va O<sub>2</sub> larning dastlabki konsentrasiysi mos ravishda 1,2 va 0,6 mol/l bo`lsa, barcha moddalarning muvozanat konsentrasiyalari (mol/l) yig`indisini hisoblang.

**Yechish:**




Kislородning 38 i sarflangan bo`lsa. Bizda kislородning konsentrasiysi 0,6 mol/l bo`lsa, uning qanchasi sarflanganini va uning muvozanat konsentrasiyasini aniqlaymiz.

$$n = 0,6 \cdot 0,35 = 0,21 \text{ mol/l O}_2 \text{ sarf bo`lgan}$$

$$M_{(\text{O}_2)} = 0,6 - 0,21 = 0,39 \text{ mol/l O}_2 \text{ qolgan}$$

b) Sarflangan kislороддан foydalanib Cl<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>O ning muvozanat konsentrasiyasini hamda HCl dan qanday miqdori sarflanganini aniqlaymiz.

$$x=0,84 \quad 0,21 \quad x=0,42 \quad x=0,42$$



$$\begin{array}{cccc} 4 & 1 & 2 & 2 \end{array}$$

c) Sarflangan HCl kislotaning konsentrasiyasidan foydalanib uning muvozanat holatdagi konsentrasiyasini aniqlaymiz. (Dastlab 1,2 mol/l HCl bo`lgan).

$$M_{(\text{HCl})} = 1,2 - 0,84 = 0,36 \text{ mol/l}$$

d) Endi moddalarning muvozanat holatdagi konsentrasiyalarini yig`indisini aniqlaymiz.

$$0,39[\text{O}_2] + 0,36[\text{HCl}] + 0,42[\text{Cl}_2] + 0,42[\text{H}_2\text{O}] = 1,59$$

**Javob:** Demak, barcha moddalarning muvozanat konsentrasiyalarini yig`indisi **1,59 ga teng.**

### Mustaqil yechish uchun masalalar

341.  $\text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_{2(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiyaning muvozanat konstantasi 850°C da 1 ga teng. CO va H<sub>2</sub>O ning boshlang`ich konsentrasiyalari 2 va 3 mol/l bo`lsa, ularning muvozanat holatdagi konsentrasiyalarini (mol/l) aniqlang.
342.  $\text{NH}_{3(g)} + \text{Cl}_{2(g)} = \text{N}_{2(g)} + \text{HCl}_{(g)}$  reaksiya hajmi 0,003 m<sup>3</sup> bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalarning konsentrasiysi [NH<sub>3</sub>]=0,2; [Cl<sub>2</sub>]=0,1; [N<sub>2</sub>]=0,3 mol/l bo`lsa, boshlang`ich moddalar miqdorini (mol) yig`indisini hisoblang.
343.  $2\text{SO}_{2} + \text{O}_{2} = \text{SO}_{3}$  reaksiya hajmi 0,006 m<sup>3</sup> bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda [SO<sub>3</sub>] ning konsentratsiyasi 0,8 mol/l ga teng bo`ldi. Boshlang`ich moddalarning miqdori SO<sub>2</sub>=9 mol va O<sub>2</sub>=6 mol bo`lsa, ularning muvozanat konsentrasiyasini (mol/l) toping.
344.  $\text{NO} + \text{O}_{2} = \text{NO}_{2}$  reaksiya hajmi 0,01 m<sup>3</sup> bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda (K<sub>M</sub>=1) 0,3 mol NO<sub>2</sub> hosil bo`ldi. NO ning

- boshlang`ich konsentrasiyasi 0,6 mol/l bo`lsa, muvozanat qaror topishi uchun kislorod miqdorining (mol) necha foizi sarflangan?
345.  $\text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_{2(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiyaning muvozanat konstantasi  $850^{\circ}\text{C}$  da 1 ga teng. CO va  $\text{H}_2\text{O}$  ning boshlang`ich konsentrasiyalari 2 va 3 mol/l bo`lsa, ularning muvozanat holatdagi konsentrasiyalari yig`indisini (mol/l) aniqlang.
346.  $2\text{NO}_{(g)} + \text{Cl}_{2(g)} = 2\text{NOCl}_{(g)}$  reaksiya hajmi  $0,005 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ )  $\text{NOCl}$  ning konsentrasiyasi 0,1 mol/l ni tashkil qildi. NO ning boshlang`ich miqdori 1,5 mol bo`lsa, xlorning muvozanat konsentrasiyasini (mol/l) hisoblang.
347.  $\text{NH}_{3(g)} + \text{Cl}_{2(g)} = \text{N}_{2(g)} + \text{HCl}$  reaksiya hajmi  $0,005 \text{ m}^3$  bo`lgan. Muvozanat qaror topganda moddalarning konsentratsiyasi  $[\text{NH}_3]=0,3$ ;  $[\text{Cl}_2]=0,4$ ;  $[\text{N}_2]=0,2 \text{ mol/l}$  bo`lsa, boshlang`ich moddalarning miqdorini (mol/l) toping.
348.  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  reaksiya A moddadan 0,8 mol olindi va muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ ) C moddadan 0,6 mol hosil bo`ldi. Reaktorning hajmi 2 litr bo`lsa, B ning massasini (g) toping.
349.  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  reaksiyada A ning boshlang`ich konsentrasiyasi 0,7 mol/l bo`lib, D modda dan 0,2 mol/l hosil bo`lganda muvozanat qaror topdi ( $K_M=1$ ). Muvozanat holatdagi barcha moddalar konsentrasiyalarining (mol/l) yig`indisini hisoblang.
350.  $\text{N}_2 + \text{H}_2 = \text{NH}_3$  reaksiya hajmi  $0,012 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalarning konsentrasiyasi mos ravishda 3,5; 4,5 va 2,5 mol/l ni tashkil etdi. Boshlang`ich moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
351.  $4\text{HCl}_{(g)} + \text{O}_{2(g)} = 2\text{Cl}_{2(g)} + 2\text{H}_2\text{O}_{(g)}$  reaksiya hajmi 10 litr bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ ) moddalar konsentrasiyasi  $[\text{HCl}]=0,2 \text{ mol/l}$ .  $[\text{H}_2\text{O}]=0,2 \text{ mol/l}$  bo`lsa, muvozanat qaror topishi uchun boshlang`ich kislorod miqdirining (mol) necha foizi sarflangan?
352.  $\text{SO}_2 + \text{O}_2 = \text{SO}_3$  reaksiyada  $\text{SO}_3$  dan 0,1 mol/l hosil bo`lganda kimyoviy muvozanat qaror topdi ( $K_M=1$ ).  $\text{SO}_2$  ning boshlang`ich konsentrasiyasi 0,3 mol/l bo`lsa, kislorodning dastlabki konsentrasiyasini (mol/l) hisoblang.
353.  $\text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_{2(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiya hajmi  $0,005 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borilganda moddalarning konsentrasiyasi  $[\text{CO}]=0,1$ ;  $[\text{H}_2\text{O}]=0,4$ ;  $[\text{H}_2]=0,2 \text{ mol/l}$  bo`lsa, boshlang`ich moddalarning miqdorini (mol) toping.
354.  $\text{CH}_4_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_{(g)} + \text{H}_2_{(g)}$  reaksiyada muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ ) vodorodning konsentrasiyasi 3 mol/l ni tashkil qildi.  $\text{CH}_4$  ning dastlabki konsentrasiyasi 4 mol/l bo`lsa, suvning dastlabki konsentrasiyasini (mol/l) aniqlang.
355.  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  reaksiya uchun A moddadan 1,8 mol olindi va muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ ) D moddadan 0,8 mol hosil bo`ldi. Reaktorning hajmi 2 litr bo`lsa, B ning boshlang`ich konsentrasiyasini (mol/l) toping.
356.  $\text{NO}_{(g)} + \text{Cl}_{2(g)} = \text{NOCl}_{(g)}$  reaksiya hajmi  $0,01 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda ( $K_M=1$ )  $\text{NOCl}$  dan 1 mol hosil bo`ldi. NO ning boshlang`ich miqdori 3 mol bo`lsa, muvozanat qaror topishi uchun xlor miqdorining (mol) necha foizi sarflangan?

357.  $\text{HCl}_{(\text{g})} + \text{O}_{2(\text{g})} \rightleftharpoons \text{Cl}_{2(\text{g})} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{g})}$  reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalar konsentrasiyasi (mol/l)  $[\text{HCl}] = 0,2$ ;  $[\text{Cl}_2] = 0,2$  ni tashkil qilsa, boshlang`ich moddalar konsentrasiyalari (mol/l) yig`indisini hisoblang. ( $K_M = 1$ )
358.  $\text{SO}_{2(\text{g})} + \text{NO}_{2(\text{g})} \rightleftharpoons \text{SO}_{3(\text{g})} + \text{NO}_{(\text{g})}$  reaksiyada  $\text{SO}_2$  va  $\text{NO}_2$  ning dastlabki konsentratsiyasi 5 va 6 mol/l bo`lsa, ularning muvozanat konsentrasiyasini (mol/l). ( $K_M = 1$ )
359.  $2\text{NO} + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{NO}_2$  reaksiya hajmi  $0,01 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda ( $K_M = 1$ ) 3 mol  $\text{NO}_2$  hosil bo`ldi.  $\text{NO}$  ning boshlang`ich konsentrasiyasi 0,6 mol/l bo`lsa, dastlabki moddalar miqdori (mol) ayirmasini hisoblang.
360. Hajmi  $0,015 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalarning konsentrasiyasi (mol/l)  $[\text{HCl}] = 1,5$ ;  $[\text{O}_2] = 2,4$  va  $[\text{Cl}_2] = 0,9$  ni tashkil qilsa, boshlang`ich moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
361. Ammiakning oksidlanish tenglamasi  $\text{NH}_3 + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{NO} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{r})}$  bo`yicha sodir bo`ladigan jarayon muvozanat holiga kelganda, moddalar konsentrasiyalari  $[\text{NH}_3] = 0,9 \text{ mol/l}$ ,  $[\text{O}_2] = 0,3 \text{ mol/l}$ ,  $[\text{NO}] = 0,3 \text{ mol/l}$  ga teng bo`lgan. Muvozanat holatidagi suvning  $\text{NH}_3$  va  $\text{O}_2$  ning boshlang`ich konsentrasiyalarini (mol/l) hisoblang.
362. Quyidagi sistemada  $\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{SO}_3$  oltingugurt (IV) oksidning 70% miqdori reaksiyaga kirishib 0,42 mol oltingugurt (VI) oksid hosil bo`lganda, muvozanat qaror topdi.  $\text{SO}_2$  ning boshlang`ich konsentrasiyasini hisoblang.
363. Quyidagi reaksiyada  $\text{N}_2 + \text{H}_2 \rightleftharpoons \text{NH}_3$  azot va vodorodning dastlabki konsentrasiyalari mos ravishda 2 va 7 mol/l ga teng. Azotning 10% i reaksiyaga kirishgandan so`ng, sistemada muvozanat qaror topdi. Sistemadagi azot, vodorod va ammiyakning muvozanat xolatdagi konsentrasiyalarini va muvozanat konstantasini hisoblang.
364. Agar quyidagi  $\text{N}_2 + \text{O}_2 \rightleftharpoons 2\text{NO}$  reaksiyaning muvozanat konstantasi 0,04 ga teng.  $\text{N}_2$  va  $\text{NO}$  ning muvozanat konsentrasiyalari mos ravishda 0,10 va 0,05 mol/l ga teng bo`lsa, kislorodning dastlabki konsentrasiyasi qancha (mol/l) bo`lgan?
365.  $\text{A}_{(\text{g})} + \text{B}_{(\text{g})} \rightleftharpoons \text{C}_{(\text{g})} + \text{D}_{(\text{g})}$  sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentrasiyalari (mol/l) tenglamaga mos ravishda 4, 3, 2, 6 ga teng. Sistemaga B moddadan 1 mol qo`shilgandan keyin. B va D moddalarning yangi muvozanat konsentrasiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 litr bo`lgan idishda olib borildi).
366.  $\text{A}_{(\text{g})} + \text{B}_{(\text{g})} \rightleftharpoons \text{C}_{(\text{g})} + \text{D}_{(\text{g})}$  sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalarini (mol/l) tenglamaga mos ravishda 6, 4, 3, 8 ga teng. Sistemaga B moddadan 2 mol qo`shilgandan keyin, B va D moddalarning yangi muvozanat konsentrasiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 litr bo`lgan idishda olib borildi).
367.  $\text{A}_{(\text{g})} + \text{B}_{(\text{g})} \rightleftharpoons \text{C}_{(\text{g})} + \text{D}_{(\text{g})}$  sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentrasiyalari (mol/l) tenglamaga mos ravishda 6, 3, 2, 9 ga teng. Sistemaga B moddadan 3 mol qo`shilgandan keyin A va C moddalarning yangi

muvozanat konsentrasiyalarini ( $\text{mol/l}$ ) hisoblang (reaksiya hajmi 1 litr bo`lgan idishda olib borildi).

368.  $\text{CH}_4_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} \rightleftharpoons \text{CO}_{(g)} + \text{H}_{2(g)}$  reaksiyada  $\text{CH}_4$  ning 30% i sarflanganda muvozanat qaror topdi.  $\text{CH}_4$  va  $\text{H}_2\text{O}$  larning dastlabki konsentrasiyasi mos ravishda 0,6·0,4 mol/l bo`lsa, CO va  $\text{H}_2$  lar muvozanat konsentrasiyalarini (mol/l) yig`indisini aniqlang.

369. Berk idishda doimiy temperaturada  $\text{CO} + \text{Cl}_2 \rightleftharpoons \text{COCl}_2$  reaksiyada dastlabki moddalardan 1 moldan olindi. Muvozanat qaror topgandan keyin CO ning konsentratsiyasi 0,5 mol ekanligi aniqlangan. Muvozanat konstantasini aniqlang.

370. Sirka kislota va etil spirtning o`zaro reaksiyasida muvozanat qaror topganda, moddalar konsentrasiyalari  $[\text{CH}_3\text{COOH}] = 0,4$  mol/l,  $[\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}] = 0,4$  mol/l,  $[\text{CH}_3\text{COO}_2\text{H}_5] = 0,6$  mol/l,  $[\text{H}_2\text{O}] = 0,6$  mol/l bo`lgan reaksiyaning muvozanat konstantasini aniqlang.

371.  $\text{N}_2 + \text{H}_2 = \text{NH}_3$  reaksiya hajmi  $0,008 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalar konsentrasiyalari  $[\text{N}_2] = 0,7$ ;  $[\text{H}_2] = 0,8$ ;  $[\text{NH}_3] = 0,4$  mol/l bo`lsa, boshlang`ich moddalar miqdorini (mol) hisoblang.

372.  $\text{CO}_2_{(g)} + \text{H}_2_{(g)} \rightleftharpoons \text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)}$  reaksiyasining konstantasi  $850^\circ\text{C}$  da 1 ga teng.  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2$  ning boshlang`ich konsentrasiyalari mos ravishda 6 va 8 mol/l bo`lsa, ularning muvozanat xolatdagi konsentrasiyalarini (mol/l) yig`indisini hisoblang.

373.  $\text{NH}_3_{(g)} + \text{Cl}_2_{(g)} \rightleftharpoons \text{N}_2_{(g)} + \text{HCl}_{(g)}$  reaksiya hajmi  $0,003 \text{ m}^3$  bo`lgan idishda olib borildi. Kimyoviy qaror topganda moddalar konsentrasiyasi  $[\text{Cl}_2] = 0,1$ ;  $[\text{N}_2] = 0,3$  mol/l bo`lsa, boshlang`ich moddalar miqdori (mol) yig`indisini hisoblang.

374. Quyidagi muvozanatda turgan sistemada oltingugurt (VI) oksidining unumini oshirish uchun nima qilish kerak?  $2\text{SO}_{2(g)} + \text{O}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{SO}_{3(g)}$

  - 1) kislород konsentrasiyasini oshirish; 2) kislород konsentrasiyasini kamaytirish; 3) sistema bosimini oshirish; 4) sistema bosimini kamaytirish; 5) oltingugurt (IV) oksid konsentrasiyasini kamaytirish; 6) oltingugurt (IV) oksid konsentrasiyasini oshirish:

375. Etanol bilan sirka kislotasi orasidagi reaksiya muvozanatini o`ng tomonga siljитish uchun sistemaga nima qilish kerak?

  1. suv qo`shish
  2. sulfat kislota qo`shish
  3. spirt qo`shish
  4. etilatsetat qo`shish

376.  $\text{A} + \text{B} \rightleftharpoons \text{C} + \text{D}$  reaksiyasida har bir moddaning dastlabki konsentrasiyasi 2,5 mol/l ga teng. Muvozanat qaror topgandan keyin C moddaning konsentrasiyasi 3 mol/l ga teng bo`lsa, shu sistemaning muvozanat konstantasi qanchaga teng bo`ladi?

377.  $20^\circ\text{C}$  da ikkita reaksiyaning tezligi bir xil bo`lib, ularning biri uchun temperatura koefisenti 2 ga, ikkinchisi uchun esa 3 ga teng. Qanday temperaturada ularning tezliklari besh marta farq qiladi?

378.  $\text{Fe}_3\text{O}_4 + 4\text{H}_{2(g)} \rightleftharpoons 3\text{Fe}_{(q)} + 4\text{H}_2\text{O}_{(g)} + \text{Q}$  sistemadagi o`ngga siljитish uchun qanday omillar ahamiyatlidir?

1. bosimni oshirish	2. bosimni kamaytirish
3. bosimning ta`siri yoq	4. haroratni oshirish

5. haroratni kamaytirish



379. Ushbu  $A_{2(g)} + B_{2(g)} \rightleftharpoons 2AB_{(g)}$  reaksiya sistemasidagi bosim 2 marta va temperatura  $10^{\circ}\text{C}$  ga oshirildi. To`g`ri va teskari reaksiyalarning temperatura koeffisenti mos xolda 2 va 3 ga teng bo`lsa, muvozanat qaysi yo`nalishga siljiydi?
380. Quyidagi  $2\text{CH}_4 \rightleftharpoons \text{C}_2\text{H}_2 + 2\text{H}_2 - Q$  reaksiyada temperatura va bosim oshirilsa, muvozanat qaysi tomonga siljiydi?  
Temperatura – o`ngga, bosim o`ngga
381.  $2\text{NO}_2 \rightleftharpoons 2\text{NO} + \text{O}_2$  qaytar jarayon uchun muvozanat konstantasining matematik ifodasini yozing.
382. Quyidagi sistemalarning qaysi birida bosimning ortishi muvozanatning o`ng tomonga siljishiga olib keladi?
- 1)  $\text{N}_2 + \text{H}_2 \rightleftharpoons \text{NH}_3$ ; 2)  $\text{NO}_2 \rightleftharpoons \text{NO} + \text{O}_2$ ; 3)  $\text{N}_2\text{O}_4 \rightleftharpoons \text{NO}_2$ ;  
 4)  $\text{N}_2 + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{NO}_2$ ; 5)  $\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{SO}_3$ ; 6)  $\text{PCl}_{5(q)} \rightleftharpoons \text{PCl}_{3(g)} + \text{Cl}_{2(g)}$
383. Quyidagi muvozanatda turgan sistemalarda bosimni o`zgartirish muvozanatga ta`sir etmaydigan reaksiyalarni ko`rsating:
- 1)  $\text{CO}_{(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} \rightleftharpoons \text{CO}_{2(g)} + \text{H}_{2(g)}$       2)  $2\text{SO}_{2(g)} + \text{O}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{SO}_{3(g)}$   
 3)  $\text{CO}_{2(g)} + \text{C}_{(q)} \rightleftharpoons 2\text{CO}_{(g)}$       4)  $\text{H}_{2(g)} + \text{Cl}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{HCl}_{(g)}$   
 5)  $2\text{NO}_{(g)} + \text{O}_{2(g)} \rightleftharpoons 2\text{NO}_{2(g)}$
384.  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} = \text{C}_{(g)} + \text{D}_{(g)}$  sistemada moddalarning muvozanat holatdagи konsentratsiyalari (mol/l) tenglamaga mos ravishda 7, 4, 2, 14 ga teng. Muvozanat holatdagи sistemadan 2 mol C modda chiqarib yuborildi. A va D moddalarning yangi muvozanat konsentrasiyalarini (mol/l) hisoblang. (reaksiya hajmi 1 litr bo`lgan idishda olib borildi).
385.  $\text{HCl}_{(g)} + \text{O}_{2(g)} = \text{Cl}_{2(g)} + \text{H}_2\text{O}_{(g)}$  reaksiyada kislородning 25% i sarflanganda kimyoviy muvozanat qaror topdi. HCl va O<sub>2</sub> larning dastlabki konsentrasiyasi mos ravishda 0,9 va 0,4 mol/l bo`lsa, barcha moddalarning muvozanat konsetaratsiyalari (mol/l) yig`indisini hisoblang.
386.  $\text{N}_2 + \text{H}_2 \rightarrow \text{NH}_3$  reaksiyada azot va vodorodlarning dastlabki konsentrasiyasi 3 va 11 mol/l ga teng. Vodorodning 12% i reaksiyaga kirishganda muvozanat qaror topdi. Sistemadagi azot, vodorod va ammiaklarning muvozanat konsentrasiyalarini aniqlang.

## XI. BOB

### **XI. OKSIDLANISH – QAYTARILISH REAKSIYALARI**

#### **XI.1. Oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları haqida tushuncha.**

Reaksiyaga kirishuvchi moddalar tarkibiga kiruvchi atomlarning oksidlanish darajasi o`zgarishi bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları deyiladi.



№	Nazariyaning asosiy mohiyati
1	Atom, molekula yoki ionlarning elektronlar berish jarayoni oksidlanish deyiladi.  $Al - 3\bar{e} = Al^{3+}; \quad H_2 - 2\bar{e} = 2H^+; \quad 2Cl^- - 2\bar{e} = Cl_2$
2	Atom molekula yoki ionlarning elektron qabul qilishi jarayoni qaytarilish deyiladi.  $S + 2\bar{e} = S^{2-}; \quad Cl_2 + 2\bar{e} = 2Cl^-; \quad Fe^{3+} + \bar{e} = Fe^{2+}$
3	Elektron beruvchi atomlar, ionlar yoki molekulalar qaytaruvchilar deyiladi. Reaksiya vaqtida ular oksidlanadi. Elektronlarni qabul qiluvchi atomlar, molekulalar yoki ionlar oksidlovchilar deyiladi. Reaksiya vaqtida ular qaytariladi.
4	Oksidlanish qaytarilish bilan qaytarilish esa oksidlanish bilan sodir bo`ladi.  $qaytaruvchi - \bar{e} \rightleftharpoons oksidlovchi$ $oksidlovchi + \bar{e} \rightleftharpoons qaytaruvchi$

Qaytaruvchi tomonidan berilgan elektronlar soni, oksidlovchi tomonidan qabul qilingan elektronlar soniga teng bo`ladi.



**Eng muhim qaytaruvchilar:** Metallar,  $H_2$ , ko`mir, CO,  $H_2S$ ,  $SO_2$ ,  $H_2SO_3$  va uning tuzlari, HJ, HBr, HCl,  $SnCl_2$ ,  $FeSO_4$ ,  $MnSO_4$ ,  $HNO_2$ ,  $NH_3$ ,  $N_2H_4$ , NO,  $H_3PO_3$ , aldegidlar, spirtlar, chumoli va oksalat kislotalar

**Eng muhim oksidlovchilar:**  $KMnO_4$ ,  $K_2MnO_4$ ,  $MnO_2$ ,  $K_2Cr_2O_7$ ,  $K_2CrO_4$ ,  $HNO_3$ ,  $O_2$ ,  $O_3$ ,  $H_2O_2$ ,  $H_2SO_4$ ,  $H_2SeO_4$ , CuO,  $Ag_2O$ ,  $PbO_2$ , xloratlar, perxloratlar, zar suvi, nodir metallar ionlari ( $Ag^+$ ,  $Au^{3+}$ ).


## XI. 2. Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarning turlari.

**1. Molekulararo oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları** – oksidlovchi element bir modda tarkibida, qaytaruvchi element ikkinchi moddada bo’ladi.


Masalan:





**2. Ichki molekulyar oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları** – oksidlovchi va qaytaruvchi bitta moddaning tarkibida bo’ladigan reaksiyalar. Masalan:



**3. Disproporsiyalanish reaksiyalarida** – oksidlovchi va qaytaruvchi vazifasini ayni bir hil molekula yoki atomler bajaradi.




**4. Sinproporsiyalanish reaksiyasida** - bir molekula tarkibidagi oksidlanish darajasi turlicha bo’lgan atomlar oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarida qatnashib, oksidlanish darajasi bir hil bo’lgan xolatga yoki, oksidlanish darajasi turlicha bo’lgan zarrachalar hosil bo`lishiga aytildi.



## XI. 3. Reaksiyalarning borishiga muhitning ta`siri.

1.  $\text{KMnO}_4$  ning kislotali, neytral va ishqoriy muhitlarda o’zgarishi.



2.  $\text{H}_2\text{O}_2$  kislotali muhitda oksidlovchi bo'ladi.




Ishqoriy va neytral muhitda qaytaruvchi bo'ladi.



## XI.4. Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish.


### I. Elektron balans usuli.

1). Oksidlanish darajalari qo`yilgan reaksiya sxemasini tuzish. Oksidlovchi va qaytaruvchini topish.



qaytaruvchi –  $\text{H}_2\text{S}$ , oksidlovchi  $\text{KMnO}_4$

2). Oksidlanish va qaytarilish yarim reaksiyalarni tuzish va zaryadlarni tenglashtirish.



3) Yarim reaksiyalarni umumiy tenglamalarga qo`yamiz, oksidlovchi va qaytaruvchilarning va boshqa reaksiyaga ishtirok etgan moddalar koefisientlarini qo`yamiz.



4) Ion shaklda:  $\text{H}_2\text{S} + 2\text{MnO}_4^- + 6\text{H}^+ = 5\text{S} + 2\text{Mn}^{+2} + 8\text{H}_2\text{O}$

### II. Ion elektron usuli. (eritmada)


1). Oksidlovchi va qaytaruvchini aniqlash. Qanday ionlar reaksiyada ishtirok etishi.




2). Oksidlanish va qaytarilish yarim reaksiyalarni tuzish.





3). Yarim reaksiyalarni umumiy tenglama tarzda yozish.



Elektronlar umumiy tenglama tuzilganda qisqarib ketadi.




4). Tenglamani molekulyar shakilda yozish.




## Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** Quyidagi reaksiyani elektron balans usulda tenglang va koeffisentlar yig'indisini aniqlang?

**Yechish:**



Demak,  $\text{As}_2\text{S}_3$  ning uchta molekulasi yo'qotgan 84 ta elektronni  $\text{HNO}_3$  ning 28 ta molekulasi qabul qiladi, shuning uchun tenglama quyidagi koeffisentlarga ega bo'ladi :




Koeffisentlar yig'indisi :  $3 + 28 + 4 + 6 + 28 + 9 = 78$



**Javob : 78.**

**2-masala.** Quyidagi reaksiyani molekulyar – ionli tenglamalar usulida tenglang va koeffisentlar yig'indisini aniqlang.


**Yechish:**



$\text{P}_4\text{S}_3$  ning nitrat kislotosi ta'sirida  $\text{H}_3\text{PO}_4$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ga o'tish reaksiyasida moddalar formulalari oldiga qo'yiladigan koeffisentlarini tanlash uchun fosfor sulfidining oksidlanishida nitrat kislota (suyultirilgan eritmasi) ishlatilganda NO xosil bo'lishini inobatga olib quyidagi reaksiya sxemasini tuzamiz:



Molekulyar tenglamasi:




Koeffisentlar yig'indisi :  $3 + 8 + 38 + 12 + 9 + 38 = 108$

**Javob : 108**

**3-masala.** Oltin(III) xlorid vodorod peroksid bilan natriy gidroksid ishtirokida reaksiyaga kirishganda 0,2 mol oltin hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan natriy gidroksid va ajralgan gaz miqdorlarini (mol) hisoblang.

**Yechish:** Reaksiya tenglamarasidan foydalanib 0,2 mol oltin xosil bo'lганligidan foydalanib moddalar miqdorlarini hisoblab topamiz.



- 1) 6mol NaOH ————— 2 mol Au to'g'ri kelsa  
 $x = 0.6 \text{ mol} \quad \text{————} \quad 0.2 \text{ mol Au}$
- 2) 2 mol Au ga ————— 3 mol O<sub>2</sub> xosil bo'lsa  
 $0.2 \text{ mol Au ga} \quad \text{————} \quad x = 0.3 \text{ mol O}_2 \text{ xosil bo'ladi}$

**Javob:** 0.6 mol NaOH ; 0.3 mol O<sub>2</sub>

### Mustaqil yechish uchun masalalar.

387. Quyidagi reaksiyani elektron balans usulida tenglang va koeffisentlar yig`indisini toping.  
 $\text{P}_4\text{S}_7 + \text{H}_2\text{O} + \text{HNO}_3 = \text{H}_3\text{PO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{NO}$
388. Vodorod, uglerod, azot, oltingugurt qanday birikmalarda manfiy oksidlanish darajasiga ega?
389. Kaliy permanganatning sulfat kislota ishtirokidagi natriy peroksid bilan reaksiyasida 5,6 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Reaksiya natijasida qaytarilgan moddaning massasini (g) hisoblang.
390. 17 g fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
391. Oltin shoh arog'i bilan oksidlanganda 30,35 g oltin(III) xlorid hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lган azot(II) oksidning hajmini (l, n.sh.) toping.
392. Mo'l miqdorda olingan konsentrangan nitrat, kislotaning 23,8 g qalay bilan reaksiyasida necha (g) β-qalay kislota hosil bo'ladi?
393. 250 ml 0,2 molyarli vodorod peroksid eritmasini kislotali muhitda oksidlash uchun 0,1 n kaliy permanganat eritmasidan necha litr zarur bo'ladi?
394. Chumoli aldegid ishqoriy sharoitda oltin(III) xlorid bilan reaksiyaga kirishganda 20,4 g natriy formiat hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida olingan oltinning massasini (g) hisoblang.
395. 2,61 gr SnCl<sub>4</sub> gidrolizidan olingan qalay (IV) oksidni K<sub>2</sub>[(Sn(OH)<sub>6</sub>)] holatga o'tkazish uchun necha (g) 20% li kaliy gidroksid eritmasi zarur bo'ladi?
396. Titan(II) oksid va xlorid kislota o'zaro ta'sirlashuvidan 2,24 litr (n.sh.) vodorod ajralib, eritma binafsha rangga o'tgan bo'lsa, reaksiya uchun olingan titan(II) oksidining massasini (gr) hisoblang.
397. Konsentrangan nitrat kislota quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishganda oksidlovchi xossasini namoyon qiladi?  
 1) fosfor(V) oksid; 2) sulfat kislota; 3) uglerod(IV) oksid; 4) vodorod yodid; 5) kalsiy oksid; 6) mis; 7) fosfor.

398. Quyidagi reaksiyani elektron balans usulida tenglang va koeffisentlar yig`indisini toping.
- $$\text{P}_4\text{S}_{10} + \text{HNO}_3 = \text{H}_3\text{PO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{NO}_2 + \text{H}_2\text{O}$$
399. 156,6 g qalay (IV) xlorid ortiqcha miqdorda olingan ammoniy gidroksid bilan reaksiyaga kirishganda necha (g)  $\alpha$ -qalay kislota hosil bo'ladi?
400. 100 g 36% li xlorid kislotaning 47,8 g qo'rg'oshin(IV) oksid bilan reaksiyasida ajralgan gazning hajmini (l, n.sh.) hisoblang.
401. Qo'rg'oshm(IV) oksid sirkal kislota ishtirokida vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 16 g gaz modda ajralgan. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
402. 10,2 g vodorod peroksidni neytral sharoitda kislorodgacha oksidlash uchun zarur bo'lgan kaliy permanganatning massasini (g) hisoblang.
403. Konsentrangan sulfat kislota bilan qalay reaksiyaga kirishganda 22,4 litr (n.sh.) gaz ajralgan bo'lsa, reaksiya uchun olingan qalayning massasini (g) hisoblang.
404. Kaliy yodid sulfat kislota ishtirokida natriy peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 7,62 g kristall modda ajraldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
405. 8,5 g fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
406. Kislotali sharoitda ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) yetarli miqdorda olingan kaliy bixromatning 1200 g 8,3% li kaliy yodid eritmasi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida erkin yod ajraldi, Ushbu yodni tola eritish uchun 800 g kaliy yodid eritmasi sarflandi. Hosil bo'lgan eritmadiagi kaliy triyodidning massa ulushini (%) aniqlang.
407. Oltin(III) xlorid natriy gidroksid ishtirokida vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 98,5 g oltin hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan gazning massasini (g) hisoblang.
408. Oltin(III) xlorid vodorod peroksid bilan natriy gidroksid ishtirokida reaksiyaga kirishganda 0,2 mol oltin hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan natriy gidroksid va ajralgan gaz miqdorlarini (mol) hisoblang,
409.  $\text{Au} + \text{HCl} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{H}[\text{AuCl}_4] + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$ . Ushbu reaksiyaning o'ng tomonidagi koeffitsentlar yig`indisini hisoblang.
410. 2,61 g  $\text{SnCl}_4$  gidrolizidan olingan qalay (IV) oksidni  $\text{K}_2[\text{Sn}(\text{OH})_6]$  holatga o'tkazish uchun necha (g) 20% li kaliy gidroksid eritmasi zarur bo'ladi?
411. Kaliy permanganat sulfat kislota ishtirokida natriy oksalat bilan reaksiyaga kirishganda 22 g karbonat angidrid hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
412.  $\text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{O}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$  Ushbu reaksiyaning o'ng tomonidagi koeffitsentlar yig`indisini hisoblang.
413. Oltin shoh arog'ida eritilganda 3,36 litr (n.sh.) azot(II) oksid hosil bo'lgan. Reaksiya natijasida olingan oltin (III) xloridning massasini (g) hisoblang.
414. Kislotali sharoitda ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) yetarli miqdorda olingan kaliy bixromatning 200 g 8,3% li kaliy yodid eritmasi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida erkin yod

- ajraldi. Ushbu yodni to'la eritish uchun 600 g kaliy yodid eritmasi sarflandi. Hosil bo'lgan eritmadiagi kaliy triyodidning massa ulushini (%) aniqlang.
415. Ishqoriy sharoitda oltin(III) xlorid vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 13,44 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Reaksiyada hosil bo'lgan oltinning miqdorini (g) hisoblang.
416.  $\text{Pt} + \text{HCl} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{H}_2[\text{PtCl}_6] + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$  Ushbu reaksiyaning o'ng tomonidagi koeffitsentlar yig'indisini hisoblang.
417. Fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda 49 g fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
418.  $\text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{O}_2 + \text{KOH} \rightarrow$  Ushbu reaksiyaning chap tomonidagi koeffitsentlar yig'indisini hisoblang.
419. Fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda 24,5 g fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
420. 5% li 204 g vodorod peroksid eritmasining ishqoriy sharoitda oltin(III) xlorid bilan reaksiyasida hosil bo'lgan oltinning massasini (g) hisoblang.
421. 135 g temir(II) gidroksidni suv ishtirokida to'la temir(III) ga o'tkazish uchun qanday hajm (l, n.sh.) havo (havodagi kislorodning hajmiy ulushi 0,2) zarur bo'ladi?
422. 2 litr 0,005 mol/litr natriy tiosulfat va yetarli miqdorda olingan suyultirilgan sulfat kislota aralashtirildi. Reaksiyada hosil bo'lgan (malum vaqt o'tgandan so'ng) gaz va cho'kmaning massasini (g) hisoblang.
423. 195 g natriy peroksidning uglerod (IV) oksid bilan reaksiyasida olingan gaz qancha hajm (l, n.sh.)  $\text{SO}_2$  ni oksidlashga ( $\text{Pt}, \text{V}_2\text{O}_5$ ) ishtirokida yetarli bo'ladi?
424.  $\text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{O}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$  Ushbu reaksiyaning chap tomonidagi koeffitsentlar yig'indisini hisoblang.
425.  $\text{Pt} + \text{HCl} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{H}_2[\text{PtCl}_6] + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$ . Ushbu reaksiyaning chap tomonidagi koeffisentlar yig'indisini hisoblang.
426.  $\text{Au} + \text{HCl} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{H}[\text{AuCl}_4] + \text{NO} + \text{H}_2\text{O}$ . Ushbu reaksiyaning chap tomonidagi koeffitsentini yig'indisini hisoblang.
427. Oltin(III) xlorid vodorod peroksid bilan natriy gidroksid ishtirokida reaksiyaga kirishganda 0,2 mol oltin hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan natriy gidroksid va ajralgan gaz miqdorlarini (mol) hisoblang.

## XII. BOB

### XII. ELEKTROLITIK DISSOTSIATSIYA VA UNGA TA 'SIR ETUVCHI OMILLAR

#### XII.1. Elektrolitik dissosilanish

**1. Elektrolitlar** - Suvdagи eritmалари yoki suyuqlanmalari elektr tokini o`tkazuvchi moddalar elektrolitlar deyiladi; kislota, asos va tuzlar elektrolitlardir.

**2. Noelektrolitlar** – Eritmalar yoki suyuqlanmalarda ionlarga ajralmaydigan va elektr tokini o`tkazmaydigan moddalar noelektrolitlar deyiladi.

**3. Elektrolitik dissotsilanish** – elektrolit moddalarning suvda eriganida ionlarga ajralishiga aytildi. Bu nazariyani 1887 yilda shved olimi Svante Arrhenius taklif etdi. Bu nazariyaning mohiyati 3 ta qoidani o`z ichiga oladi.

**1. Elektrolitlar suvda eriganda musbat va manfiy ionlarga ajraladi(dissotsilanadi).**

**2. Elektr toki ta'sirida ionlar bir yo'nalishda harakatlanadi:** musbat zaryadlangan ionlar katodga, manfiy zaryadlanganlari – anodga tomon harakatlanadi.

**3. Dissotsilanish – qaytar jarayon.** Molekulalarning ionlarga ajralishi bilan bir vaqtida ionlarning birikish jarayoni (assotsilanish) ham sodir bo'ladi.

Shuning uchun elektrolitik – dissotsilanish tenglamalarida tenglik ishorasi o'rniga qaytarlik ishorasi qo'yiladi.



**4. Dissotsilanish darajasi** – ionlarga ajralgan molekulalar sonining umumiy erigan molekulalar soniga nisbatiga teng.

$$\alpha = \frac{n}{N}$$

n – ionlar ajralgan molekulalar soni

N – umumiy molekulalar soni

Eritmalarning dissotsilanish darajasi tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Dissotsilanish darajasi elektrolitning konsentratsiyasiga va temperaturaga bog'liq. Kuchli elektrolitlarda - dissotsilanish darajasi yuqori bo'lib, ( $\alpha = 30\% - 100\%$  gacha).

Ularga suvda yaxshi eriydigan barcha tuzlar, kuchli mineral kislotalar va ishqorlar kiradi.

Kuchsiz elektrolitlarning - dissotsilanish darajasi yuqori ( $\alpha = 0 - 30\%$  gacha ) bo'lgan elektrolitlar bo'lib, ularga:

- a) Organik kislotalar
- b) Ba'zi kuchsiz mineral kislotalar:  $H_2CO_3$ ,  $HNO_2$   $H_2SiO_3$ ,  $H_3BO_3$ ,  $H_2S$ ,  $HClO$  lar kiradi.
- c) Amfoter va kuchsiz asoslar:  $NH_4OH$

## XII.2. Suvning elektrolitik dissotsilanishi

Toza suv elektr tokini juda yomon o`tkazadi. Laboratoriya da ishlatiladigan (distillangan) suv ham etarli darajada toza emas. Uning tarkibida  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$  va boshqa moddalar bor. F. Kolraush suvni ko`p marta tozalash natijasida toza suv olgan. Bu suv ham oz bo`lsa-da elektr o`tkazuvchanlikka ega. Uning elektr o`tkazuvchanligiga sabab dissotsilanishidir:



Suvni juda kuchsiz elektrolit deb qarab, uning dissotsilanish doimiysini quyidagicha yozish mumkin:

$$K_d = \frac{[\text{H}^+] \cdot [\text{OH}^-]}{[\text{H}_2\text{O}]}$$

Suvning elektr o`tkazuvchanligidan foydalanib, dissotsilanish doimiysi hisoblab topilgan.  $22^\circ\text{C}$  da o`tkazilgan tekshirishlar  $K_d=1,8 \cdot 10^{-16}$  ekanligini ko`rsatdi.

Yuqoridagi tenglamani  $[\text{H}^+] \cdot [\text{OH}^-] = K_d [\text{H}_2\text{O}]$  shaklida yozaylik. Bu tenglamada suvning konsentrasiyasi  $[\text{H}_2\text{O}]$  qiymatini suvning dissotsilanish darajasi juda kichik bo`lgani uchun o`zgarmas qiymat deb qarasak bo`ladi:  $[\text{H}_2\text{O}]=1000 \text{ g} \cdot \text{l}^{-1}$  yoki  $1000:18=55,56 \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$

$K_d \cdot [\text{H}_2\text{O}]$  ko`paytmasini  $K_w$  bilan belgilaymiz. U holda  $K_d \cdot \text{H}_2\text{O} = K_w = [\text{H}^+] \cdot [\text{OH}^-]$  yoki  $K_w = 1,8 \cdot 10^{-16} \cdot 55,56 = 10^{-14} = [\text{H}^+] \cdot [\text{OH}^-]$  bo`ladi.  $K_w$  suvning ion ko`paytmasi deb ataladi.  $K_w$  ayni temperaturada suvdagi  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlarining konsentrasiya ko`paytmasi o`zgarmas qiymat ekanligini ko`rsatadi.  $K_w$  ning qiymati temperatura o`zgarishi bilan o`zgaradi.  $K_w$  qiymatidan  $22^\circ\text{C}$  da  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlar konsentrasiyasining ko`paytmasi  $10^{-14}$  ga tengligi aniqlangan.

Bundan  $[\text{H}^+] = [\text{OH}^-] = \sqrt{10^{-14}} = 10^{-7} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  dir. Demak; toza, suvda  $\text{H}^+$  ionlari konsentrasiyasi  $10^{-7} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  ga,  $\text{OH}^-$  ionlari konsentrasiyasi ham  $10^{-7} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  ga tengdir. Kislotali muhitda  $\text{H}^+$  ionlarining konsentrasiyasi  $10^{-7} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  dan ortiq  $\text{OH}^-$  ionlarniki esa  $10^{-7} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  dan kam bo`ladi. Ishqoriy muhitda, aksincha.

Suvdagagi har qanday eritmada ham  $[\text{H}^+]$  va  $[\text{OH}^-]$  larning ko`paytmasi  $22^\circ\text{C}$  da  $10^{-14}$  ga teng:

$$[\text{H}^+] \cdot [\text{OH}^-] = 10^{-14} \text{ mol}^2 \cdot \text{l}^{-2}$$

Suvning dissotsilanishi endotermik jarayon. Harorat oshirilganda uning ionlarga parchalanishi kuchayadi, ya`ni  $K_w$  qiymati ortadi; masalan,  $0^\circ\text{C}$  da  $K_w = 0,13 \cdot 10^{-14}$ ;  $50^\circ\text{C}$  da  $K_w = 5,66 \cdot 10^{-14}$ ;  $100^\circ\text{C}$  da  $K_w = 74 \cdot 10^{-14}$  da tengdir.

## XII. 3. Vodorod ko`rsatkich (pH)

Eritmadagi vodorod ionlari konsentrasiyasining o`nlik manfiy logarifmi vodorod ko`rsatkich yoki pH deb ataladi:

$$\text{pH} = -\lg[\text{H}^+]$$

Demak:  $[\text{H}^+] = 10^{-7}$  — neytral muhit uchun  $\text{pH} = 7$

$[\text{H}^+] > 10^{-7}$   $\text{pH} < 7$

$[\text{H}^+] < 10^{-7}$   $\text{pH} > 7$

Kuchli kislotali, kuchsiz kislotali, neytral, kuchli ishqoriy va kuchsiz ishqoriy eritmalar uchun quyidagi pH – qiymatlarini ko`rsatib o`tamiz:

pH 1 2 3	4 5 6	7	8 9 10	11 12 13 14
Kuchli kislotali	Kuchsiz kislotali	neytral	Kuchsiz ishqoriy	Kuchli ishqoriy

### Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** Eritmada vodorod ionlarining konsentrasiyasi  $2,3 \cdot 10^{-5}$  mol·l<sup>-1</sup> bo`lsa, pH qiymati qanday bo`ladi?

**Yechish:**

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg(2,3 \cdot 10^{-5}) = -0,36-5 = 4,64$$

**2-masala.** 0,033 mol H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasida  $\alpha = 0,27$  bo`lsa, pH qiymati qanday bo`ladi?

**Yechish:** Vodorod ionlarining konsentrasiyasini topamiz:

$$C_{H^+} = C_M \cdot n \cdot \alpha$$

$\alpha=0,27$ ;  $C_M=0,033$ :  $n=3$ , chunki H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> kislota uchta H<sup>+</sup> beradi,  $C_{H^+}=0,033 \cdot 3 \cdot 0,27=0,02673=2,710^{-2}$  mol·l<sup>-1</sup>. So`ngra pH ni hisoblab chiqaramiz:

$$pH=-\lg[H^+] = -\lg(2,7 \cdot 10^{-2}) = 2-0,43=1,57$$

**3-masala.** Eritma uchun pH=5,6 bo`lsa, [H<sup>+</sup>] topilsin.

**Yechish:** pH=-lg[H<sup>+</sup>] yoki lg[H<sup>+</sup>]=-pH=-5,6

Bu sonning butun qismini manfiyligicha qoldirib, kasr qismini musbatga aylantiramiz, buning uchun butun songa —1 va kasr songa +1 qo`shamiz:

$$-5,6=-5+(-1)+(-0,6)+1=-6+0,4$$

demak, — 5,6 o`rniga — 6+0,4 ni olamiz — 6 ga  $10^{-6}$  va 0,4 ga 2,5 to`g`ri keladi.

Demak, [H<sup>+</sup>] =  $2,5 \cdot 10^{-6}$  mol·l<sup>-1</sup> ga tengdir.

$$[OH^-] = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{2,5 \cdot 10^{-6}} = 0,4 \cdot 10^{-8} = 4 \cdot 10^{-9} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$$

**4-masala.** Agar 0,005 M sirka kislota eritmasining 1 litriga 0,05 mol natriy atsetat qo`shilsa, eritmada vodorod ionlar konsentrasiyasi necha marta kamayadi ( $K_{CH_3COOH}=1,8 \cdot 10^{-5}$ ).

**Yechish:** Sirka kislota eritmasiga natriy atsetat qo`shmasdan avval vodorod ionlar konsentrasiyasini topamiz:

$$[H^+] = \sqrt{K_{CH_3COOH} \cdot C_M}$$

Bu erda: C<sub>M</sub> — kislota eritmasining konsentrasiyasi;

$$[H^+] = \sqrt{1,8 \cdot 10^{-5} \cdot 0,005} = \sqrt{1,8 \cdot 5 \cdot 10^{-8}} = 3 \cdot 10^{-4} \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$$

Eritmaga natriy atsetat qo'shilgandan keyin vodorod ionlari konsentrasiyasini  $X$  bilan belgilaylik; u holda dissotsilanmagan kislota molekulalari konsentrasiyasi  $[CH_3COOH]=0,005-X$  bo'ladi. Atsetat ionlar konsentrasiyasi esa, ikki kattalikdan iborat: biri kislota molekulalarining dissotsilanishidan, ikkinchisi natriy atsetat ionlaridan hosil bo'ladi. Binobarin,

$$[CH_3COO^-] = X + 0,05$$

Bu konsentrasiyalarni kislotaning muvozanat konstantasi ifodasiga qo'ysak:

$$K_M = \frac{[H^+] \cdot [CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]} = \frac{X(X + 0,05)}{0,005 - X} \text{ yoki } 1,8 \cdot 10^{-5} = \frac{X(X + 0,05)}{0,005 - X}$$

Bu ifodaning suratidagi ( $X + 0,05$  ning)  $X$  ni, maxrajdagi ( $0,005 - X$  ning)  $X$  ni nisbatan kichik qiymat deb ifodadan chiqarib yuborsak,

$$1,8 \cdot 10^{-5} = \frac{X \cdot 0,05}{0,005}$$

yuqoridagi ega bo'lamiz. Bundan,  $X=1,8 \cdot 10^{-6}$  mol·l<sup>-1</sup>. Bu erda:  $X$  — vodorod ionlarining tuz qo'shilganidan keyingi konsentrasiyasi.

Vodorod ionlari konsentrasiyasi necha marta kamayganligini topish uchun  $3 \cdot 10^{-4}$  ni  $1,8 \cdot 10^{-6}$  ga bo'lamiz:

$$\frac{3 \cdot 10^{-4}}{1,8 \cdot 10^{-6}} = 1,67 \cdot 10^2 \text{ (yoki 167 marta) kamaygan.}$$

Binobarin, vodorod ionlar konsentrasiyasi tuz qo'shilgandan keyin 167 marta kamayadi.

### **Mustaqil yechish uchun masalalar.**

428. Bir xil konsentratsiyali (mol/l) qaysi birikma(lar) eritmasida ionlar miqdori (mol) kam bo'ladi? 1)  $H_2CO_3$ ; 2)  $H_2SO_4$  3)  $HNO_3$ ; 4)  $HCl$
429. Bir xil konsentratsiyali (mol/l) qaysi birikma(lar) eritmasida ionlar miqdori (mol) kam bo'ladi? 1)  $HC_1$ ; 2)  $HNO_3$ ; 3)  $HNO_2$ ; 4)  $HCN$
430. 1960 gr 5 % lisulfat kislota va 2040 gr 4% li natriy gidroksid eritmalari aralash-tirilishidan hosil bo'lgan eritmaning ( $p=1,0$  g/ml) pH qiymatini aniqlang.
431. Qaysi qatorda faqat kuchsiz elektrolitlar joylashgan?
  - 1)  $KCl$ ,  $Na_2SO_4$ ,  $KOH$ ,  $Ca(NO_3)_2$
  - 2)  $CH_3COOH$ ,  $H_2CO_3$ ,  $H_2SO_3$ ,  $NH_4OH$
  - 3)  $Ni(OH)_2$ ,  $HClO_4$ ,  $NH_4OH$ ,  $H_2CO_3$
  - 4)  $KNO_3$ ,  $HCl$ ,  $CaCO_3$ ,  $LiOH$
432. Tarkibida ikki mol kalsiy karbonat bo'lgan suspenziya orqali 4,4,8 litr (n.sh.) uglerod(IV) oksid o'tkazilganda. Eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
433. Tarkibida bir mol kalsiy gidroksid bo'lgan eritma orqali 44,8 litr (n.sh.) uglerod(IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?

434. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan? 1) nitrit kislota; 2) natriy sulfat; 3) sulfit kislota; 4) litiy gidroksid; 5) karbonat kislota; 6) ammoniy gidroksid; 7) alyuminiy xlorid; 8) perxlorat kislota.
435. Kalsiy xlorid eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 60 ta bo'lsa, eritmadagi xlor ionlari sonini hisoblang ( $a=90\%$ ).
436. Qaysi qatorda faqat kuchsiz eiektrolitlar keltirilgan?
- 5) nitrit kislota; 2) natriy sulfat; 3) sulfit kislota; 4) litiy gidroksid; 5) karbonat kislota; 6) ammoniy gidroksid; 7) alyumuniy xlorid; 8) perxlorat kislota.
437. Bir mol elektrolit dissotsialanishidan hosil bo'lgan ionlar miqdori (mol) kamayib borishi tartibida joylashgan. Elektrolitlar qatorini tanlang ( $a = 100\%$ ), 1) alyuminiy sulfat; 2) natriy xlorid; 3) kalsiy xlorid; 4) litiy nitrat; 5) bariy nitrat; 6) alyuminiy xlorid.
438. 0,25 molyarli 0,2 1 ammoniy gidroksid eritmasidagi ammoniy ionining miqdorini (mol) hisoblang ( $a = 2\%$ ).
439. Bir xil konsentratsiyali (mol/1) qaysi birikma(lar) eritmasida ionlar miqdori (mol) ko'p bo'ladi? 1)  $\text{NH}_4\text{OH}$ ; 2)  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ; 3)  $\text{HC1}$ ; 4)  $\text{HNO}_2$ ; 5)  $\text{HNO}_3$
440. Tarkibida bir mol kalsiy gidroksid bo'lgan eritma orqali 22,4 litr (n.sh.) uglerod(IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
441. 2,5 litr 0,4 molyarli ammoniy gidroksid eritmasidagi ( $a=5\%$ ) dissotsialanmagan ammoniy gidroksid molekulalari sonini hisoblang.
442. Qaysi qatorlarda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?
- 1)  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{HNO}_3$ ; 2)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{A1C1}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  
 3)  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{NaOH}$ ; 4)  $\text{NaCl}$ ,  $\text{HF}$ ,  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ ;  
 5)  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ; 6)  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{CuSO}_4$
443.  $\text{Fe}^{3+} + 3\text{CO}_3^{2-} + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{Fe}(\text{OH})_3 + 3\text{CO}_2$ . Ushbu jarayon qaysi moddalar ishtirokida sodir bo'ladi?
444. Natriy fosfat eritmasida 960 dona ion mavjud bo'lsa, eritmadagi dissotsialanmagan natriy fosfat molekulalari sonini hisoblang ( $a = 30\%$ ).
445. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar joylashgan?
446. Bir xil konsentratsiyali (mol/1) qaysi birikmalar eritmalarida ionlar miqdori (mol) kat bo'ladi? 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ; 2)  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ; 3)  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ; 4)  $\text{NH}_4\text{OH}$ ; 5)  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; 6)  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ; 7)  $\text{NH}_4\text{NO}_3$
447. Alyuminiy sulfat eritmasida dissotialanmagan molekulalar soni 25 ta bo'lsa, eritmadagi alyuminiy ionlari sonini hisoblang ( $a = 80\%$ ).
448. Elektrolitlarning dissotsialish darajasi kamayib borish tartibajoylashgan javobni toping. 1) karbinol; 2) sirka kislota; 3) karbol kislota; 4) diftorsirka kislota.
449. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar joylashgan?
450. Bir mol elektrolit dissotsialanishidan hosil bo'lgan ionlar miqdori (mol) ortib borishi tartibida joylashgan elektrolitlar qatorini tanlang ( $a=100\%$ ).  
 1) alyuminiy sulfat; 2) natriy xlorid; 3) kalsiy xlorid; 4) litiy nitrat; 5) bariy nitrat; 6) alyuminiy xlorid.

451. Alyuminiy xlorid eritmasida 600 dona ion mavjud bo'lsa, eritmadiagi dissotsialanmagan alyuminiy xlorid molekulalari. Sonini hisoblang ( $a=75\%$ ).
452. Alyuminiy sulfat eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 50 ta bo'lsa, eritmadiagi ionlar sonini hisoblang ( $a = 75\%$ ).
453. Qaysi qatorda faqat kuchsiz elektrolitlar joylashgan?
454.  $\text{Fe}^{3+} + 3\text{CO}_3^{2-} + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{Fe}(\text{OH})_3 + 3\text{CO}_2$  Ushbu jarayon qaysi moddalar ishtirokida sodir bo'ladi?
455. Alyuminiy sulfat eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 40 ta bo'lsa, eritmadiagi sulfat ionlari sonini hisoblang ( $a = 80\%$ ).
456. Konsentratsiyalari (mol/l) bir xil bo'lgan qaysi moddalar eritmalarida ionlar miqdori (mol) yuqori bo'ladi? ( $a = 100\%$ )
457. Qaysi qatorlarda faqat kuchsiz elektrolitlar keltirilgan?
- 1)  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{HNO}_2$ ; 2)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{NaOH}$ ; 4)  $\text{NaCl}$ ,  $\text{HF}$ ,  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  5)  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ; 6)  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{CuSO}_4$ .
458. Kuchli elektrolitlar berilgan javobni tanlang.
- 1) sulfat kislota, xlorid kislota, kumish xlorid; 2) kaliy nitrat, nitrat kislota, xlorid kislota; 3) ammoniy xlorid, natriy asetat, kalsiy karbonat; 4) kaliy sulfat, ammoniy xlorid, natriy nitrat.
459. Kuchli elektorolitlar keltirilgan qatorni tanlang.
460. Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi? 1) kaliy sulfat; 2) natriy sulfat; 3) ammoniy gidroksid; 4) sırka kislota; 5) magniy gidroksid; 6) alyuminiy xlorid;
461. Qaysi modda yordamida suyultirilgan xlorid va sulfat kislotalarni bir – biridan faqlash mumkin?
462. Suvli eritmada sodir bo`ladigan qaytar reaksiyalarni aniqlang.
- 1) temir (II) nitrat+natriy gidroksid; 2) rux xlorid+kaliy nitrat;
  - 3) natriy fosfat+kumish nitrat; 4) natriy gidrokarbonad+sulfat kislota;
  - 5) natriy sulfat+kaliy gidroksid; 6) natriy karbonad+kalsiy xlorid
463. Konsentrasiyalari (mol/l) bir xil bo'lgan qaysi moddalar eritmalarida ionlar miqdori (mol) yuqori bo`ladi ( $a=100\%$ )?
464. Quyida berilgan metall oksidlaridan 1 grammidan olib, har biri 1000 gr suvda eritsa, qaysi eritmada kationning molyar konsentrasiyasi kamroq bo`ladi?
465. Natriy silikat, natriy karbonat va kaliy sulfide eritmalarini bir – biridan farqlash uchun qaysi eritmadan foydalaniadi?
466. Quyidagi moddalardan qaysilari ionlarga dissosiyalanmaydi?
- 1) rux gidroksid; 2) stronsiy nitrat; 3) mis (II) sulfat; 4) ammoniy xlorid; 5) kalsiy karbonat; 6) kaliy sulfat.
467. Molyarligi bir xil bo'lgan qaysi kislota eritmasidan ionlar miqdori (mol) kam bo`ladi?
468. Suvli eritmada sodir bo`ladigan qaytar reaksiyalarni aniqlang.
- 1) kaliy xlorid+natriy nitrat; 2) temir (III) xlorid+kaliy gidroksid
  - 3) bariy nitrat+natriy sulfat; 4) kumish nitrat+natriy ftorid
  - 5) mis(II)+xlorid kislota; 6) natriy fosfat+kalsiy xlorid

469. Kuchli elektrolitlarni tanlang. 1) ammoniy gidroksid; 2) kaliy nitrat; 3) rux gidroksid; 4) vodorod sulfat; 5) kalsiy xlorid; 6) litiy sulfat.
470. 0,01 molyarli eritmalarligi moddalarni ionlar miqdori (mol) kamayib boorish tartibida joylashtiring ( $a=100\%$ ).  
1) bariy xlorid; 2) xlorsirka kislota; 3) natriy fosfat; 4) alyuminiy sulfat
471. Qaysi qatorlarda faqat kuchsiz elektrolitlar keltirilgan?  
1) kaliy sulfat, alyuminiy xlorid, sulfat kislota; 2) amoniq hidroksid, sirka kislota, nitrat kislota; 3) alyuminiy hidroksid, ammoniy hidroksid, natriy hidrat; 4) vodorod sulfad, ammoniy hidroksid, karbonat kislota; 5) rux xlorid, nitrat kislota, mis(II) sulfad; 6) natriy hidroksid, vodorod ftorid, rux hidroksid.
472. Kuchli elektrolitlar qatorini tanlang.
73. Kumish nitrat eritmasiga qo'shilganda cho'kma hosil bo'ladigan moddalarni tanlang. 1) kaliy bromide; 2) natriy xlorid; 3) litiy yodid; 4) kaliy perxlorit; 5) kaliy ftorid; 6) natriy sulfat.
474. Qaysi moddalar kuchsiz elektroliz hisoblanadi?  
1) vodorod ftorid; 2) nitrat kislota; 3) kaliy karbonat; 4) natriy hidrokarbonat; 5) ammoniy hidroksid; 6) ammoniy sulfat.
475. Quyidagi qatorlardan qaysi biri ikkita va bitta kuchsiz elektrolitdan iborat?
476. Quyida keltirilgan qaysi moddalar ketma – ketligidan foydalanib kumish, temir(II) ba bariy nitratlar aralashmasidagi kationlarni tegishli birikma holida ajratib olish mumlin?
477. Nitrat kislota va kaliy ishqor eritmalarini teng miqdorda (mol) olinib aralashtirilganda quyidagi xossalardan qaysi biri saqlanib qoladi?
478. Suvli eritmada sodir bo'ladigan qaytmas reaksiyalarni aniqlang.  
1) temir (II) nitrat+natriy hidroksid; 2) rux xlorid+kaliy nitrat;  
3) natriy fisfat+kumish nitrat; 4) natriy hidrokarbonat+sulfat kislota  
5) natriy sulfat+kaliy hidroksid; 6) natriy karbonat+kalsiy xlorid
479. Qaysi qatorlarda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?  
1) kaliy sulfat; alyuminiy xlorid, sulfat kislota; 2) ammoniy hidroksid, sirka kislota, nitrit kislota; 3) alyuminiy hidroksid, ammoniy hidroksid, natriy hidrid; 4) vodorod sulfide, ammoniy hidroksid, karbonat kislota; 5) rux xlorid, nitrat kislota, mis(II) sulfat; 6) natriy hidroksid, vodorod ftorid, rux hidroksid.
480. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?  
1) temir(II) hidroksid, nitrat kislota, sulfit kislota, natriy xlorid  
2) kaliy nitrat, nitrit kislota, vodorod sulfit, natriy hidroksid  
3) alyuminiy hidroksid, karbonat kislota, chumoli kislota, natriy xlorid  
4) litiy hidroksid, perxlorat, sulfat kislota, natriy sulfat
481. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?
482. Qanday hol(lar)da elektrolitlar orasidagi reaksiya oxirigacha boradi?  
1) kuchli elektroliz hosil bo'ladi; 2) kam eriydigan modda hosil bo'lsa;  
3) kuchsiz elektrolit hosil bo'lsa; 4) gaz hosil bo'lsa
483. Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi? 1) alyuminiy nitrat; 2) kremniy kislota; 3) mis(II) sulfat; 4) temir(II) mitrat; 5) sirka kislota; 6) natriy atsetat.
484. Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi?

- 1) kalsiy xlorid; 2) kaliy gidroksid; 3) ammoniy gidroksid; 4) sirka kislota; 5) natriy gidrokarbonat; 6) sulfite kislota.
485. Qaysi variantlarda elektrolit ionlarining eritmadiagi holati to`g`ri ifodalanadi?  
1) ionlar erkin holatda bo`ladi; 2) ionlar bilan erituvchi molekulalari o`zaro ta`sirlashmaydi; 3) ionlar bilan erituvchi molekulalari o`zaro ta`sirlashib gideratlar yoki solfatlar hosil qiladi; 4) ionlar bilan erituvchi molekulalar o`zaro ta`sirlashadi.
486. Eritmalardagi moddlarning har biridan 1 mol olingan bo`lsa, ionlar miqdori (mol) ortib boradigan moddalar qatorini tanlang ( $\sigma=100\%$ ).
487. Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar joylashgan?
488. Qaysi qatorda kuchli elektrodlar joylashgan? 1) alyuminiy nitrat; 2) magniy gidroksid; 3) natriy sulfat; 4) kaliy asetat; 5) sirka kislota; 6) kalsiy karbonat
489. Kalsiy karbonat suspenziyasi orqali yetarli miqdorda uglerod (IV) oksid uzoq vaqt davomida o`tkazilganda, eritmaning elektr o`tkazuvchanligi qanday o`zgaradi?
500. 1 mol elektrolit dissosiyalanishidan hosil bo`lgan ionlar miqdori (mol) ortib borishi tartibida joylashgan elektrolitlar qatorini tanlang ( $\rho=100\%$ )  
natriy xlorid; kalsiy xlorid; alyuminiy xlorid
501. Qaysi moddalar jufti suvli eritmada birgalikda ion holiday mavjud bo`la oladi (gidroliz hisobga olinmasin)?
502. Qaysi modda yordamida suyultirilgan xlorid va sulfat kislotalarni bir – biridan farqlash mumkin?

## XIII. BOB

### TUZLARNING GIDROLIZI

*Tuz ionlari bilan suv molekulalari orasida bo`ladigan va odatda kuchsiz elektrolit (kuchsiz kislota, kuchsiz asos va asosli yoki kislotali tuz) hosil bo`lishiga olib keladigan o`zaro ta'sirlashuv gidroliz deb ataladi.*


Gidroliz jarayonida, albatta, tuz kationi va anionining tabiatini (qutblovchilik ta'siri, ion radiusi, zaryadi, elektron juftga bo`lgan donorlik-aktseptorlik qobiliyati) muhim ahamiyatga ega.

#### XIII.1. Gidrolizning borishi.

Gidroliz tuzni hosil qilgan kislota va asosning kuchiga qarab turlicha borishi mumkin.

**1. Kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzlar (masalan, NaCl) gidrolizlanmaydi.**

**2. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuz gidrolizlanganda eritma ishqoriy muhitni ko`rsatadi, masalan:**




yoki



qisqartirilgan shaklda:



Bunda tuzning anioni gidrolizda ishtirok etadi.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ikki bosqichda gidrolizlanadi:




Lekin bu holda, asosan birinchi bosqich boradi; ikkinchi bosqich juda kuchsiz sodir bo`ladi. Eritmada ortiqcha gidroksil ionlari hosil bo`ladi, shuning uchun soda eritmasi ishqoriy muhitni ko`rsatadi.

**3. Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzlar gidrolizlanganda eritma kislotali muhitni ko`rsatadi, masalan:**



yoki ion shaklda quyidagicha yoziladi:





$\text{ZnCl}_2$  ning gidrolizi ikki bosqichda boradi:



Lekin bu yerda ham gidroliz asosan birinchi bosqich bilan chegaralanadi.

**4. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzlar gidrolizlanganda kuchsiz asos va kuchsiz kislota hosil bo`ladi, masalan:**



### Tuzlar gidrolizi jadvali

Tarkibi	Gidroliz	Muhit	Lakmus	Fenolftalein	R-ya borishi	Kuchaytirish
<b>Kuchli asos</b> <b>Kuchli k-ta</b>	-----	neytral	rangsiz	rangsiz	-----	-----
<b>Kuchsiz asos</b> <b>Kuchli k-ta</b>	qaytar	kislotali	qizil	rangsiz	Kation bo`yicha	$\text{H}_2\text{O}$ , ishqor qizdirish
<b>Kuchsiz k-ta</b> <b>Kuchli asos</b>	qaytar	ishqoriy	ko`k	pushti	Anion bo`yicha	$\text{H}_2\text{O}$ , kislota qizdirish
<b>Kuchsiz asos</b> <b>Kuchsiz k-ta</b>	qaytmas	neytral	rangsiz	rangsiz	ham kation ham anion	-----

### XIII.2. Gidroliz darajasi va gidroliz konstantasi

Gidroliz qaytar jarayon bo`lganligi sababli, uni massalar ta'siri qonuni asosida talqin qilish mumkin. Uni miqdoriy jihatdan harakterlash uchun gidroliz darajasi va gidroliz konstantasi degan tushunchalar kiritilgan. Gidrolizlangan tuz molekulalari sonining eritilgan tuz molekulalari soniga bo`lgan nisbati tuzning gidrolizlanish darajasi deb ataladi va  $h$  bilan belgilanadi:

$$h = \frac{\text{gidrolizlangan molekulalar soni}}{\text{eritilgan tuz molekulalari soni}}$$

Gidrolizlanish darajasi va doimiysi orasidagi bog`lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$K_{gidr} = \frac{h^2}{(1-h)} C_0$$

bu erda:  $C_0$  —tuzning dastlabki kontsentratsiyasi.

Ko`pchilik hollarda gidrolizlanish darajasi juda kichik bo`ladi. Shuning uchun yuqoridagi formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$K_{gidr} = h^2 C_0 h = \frac{\sqrt{K_{gidr}}}{C_0}$$


Demak, eritma suyultirilsa gidroliz darajasi ortadi.

Lekin gidroliz darajasi katta bo`lgan hollarda bunday kilish mumkin emas.


Tuzlarning gidroliz darajasi tuzning tabiatiga, eritma kontsentratsiyasiga va temperaturaga bog`liq. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzlarning gidroliz darajasi katta bo`ladi. Temperatura ko`tarilganda gidroliz darajasi ortadi, chunki suvning dissosiyalanish  $H_2O \rightleftharpoons H^+ + OH^-$  muvozanati o`ngga siljiydi. Ba'zan tuzlarning odatdagagi sharoitda bormaydigan gidroliz bosqichlari yuqori temperaturada sodir bo`ladi. Masalan, odatdagagi sharoitda  $FeCl_3$  gidrolizning faqat birinchi bosqichi boradi:



Lekin eritma qaynatilsa, uning ikkinchi bosqichi:



va hatto, uchinchi bosqichi:



ham sodir bo`ladi.

Eritma suyultirilganda gidroliz darajasi ortishini misol sifatida  $SbCl_3$  ning gidroliz jarayonida kuzatish mumkin:



Agar bu tuz eritmasiga qo`shimcha suv qo`shsak, muvozanat o`ngga siljiydi va cho`kma holida  $Sb(OH)_2Cl$  (yoki  $SbOCl$  — antimonil xlorid) cho`kadi.

Gidroliz konstantasi gidrolitik jarayonning muvozanat doimiysi ko`rsatadi. Kuchsiz asos va kuchli kislotadan tashkil topgan tuzning gidroliz doimiysi

$K_{gidr} = \frac{K_w}{K_{MOH}}$  va gidroliz darajasi  $h = \frac{\sqrt{K_w}}{K_{MOH} \cdot C}$  bilan ifodalanadi. Bu erda: MOH asos formulasidir, C — kontsentratsiyasi.

Demak, kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzlarning gidrolizlanish doimiysi topish uchun suvning ion ko`paytmasini asosning dissotsilanish doimiysiga bo`lish kerak.

Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzning gidrolizlanish doimiysi va gidrolizlanish darajasi quyidagicha yoziladi:

$$K_{gidr} = \frac{K_w}{K_{HA}} \quad h = \frac{\sqrt{K_w}}{K_{HA} \cdot C}$$

Bu erda,  $K_{HA}$  — kuchsiz kislotaning dissotsilanish doimiysi, C — kontsentratsiyasi.

Demak, *kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzning gidrolizlanish doimiysi topish uchun suvning ion ko`paytmasini kislotaning dissotsilanish doimiysiga bo`lish kerak.*

Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzlarning gidroliz doimiysi va gidroliz darajasi quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{gidr} = \frac{K_w}{K_{MOH} \cdot K_{HA}}; \quad \frac{h}{1-h} = \frac{\sqrt{K_w}}{K_{HA} K_{MOH}} \text{ yoki } h = \frac{\sqrt{K_{gidr}}}{1 + \sqrt{K_{gidr}}}$$

Demak, kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzning gidrolizlanish doimiysini topish uchun, suvning ion ko`paytmasini kislota va asosning dissotsilanish konstantalari ko`paytmasiga bo`lish kerak.

### Na'munaviy masalalar.

**1-masala.** Natriy atsetatning 0,02 molyar eritmasidagi  $K_{gidr}$  va  $h$  topilsin.


**Yechish:**

$$K_{gidr} = \frac{K_w}{K_{HA}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,8 \cdot 10^{-5}} = 5,5 \cdot 10^{-10}$$


$$h = \sqrt{\frac{K_w}{K_{HA} \cdot C}} = \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,8 \cdot 10^{-5} \cdot 0,02}} = 1,7 \cdot 10^{-4} \text{ yoki } 1,7 \cdot 10^{-2} \%$$

**2-masala.** Ammoniy sulfidning gidrolizlanish darajasi topilsin.

**Yechish:** Ammoniy sulfid uchun gidroliz tenglamasini yozamiz:



yoki



gidroliz darajasini topish uchun:

$$\frac{h}{1-h} = \frac{\sqrt{K_w}}{K_{HA} \cdot K_{MOH}} \text{ formuladan foydalanamiz.}$$

Jadvallardan  $K_w = HO^{-14}$ ;  $K_{NH_4OH} = 1,79 \cdot 10^{-5}$ ;  $K_{HS^-} = 1,2 \cdot 10^{-15}$  ekanligini topamiz.

$$\frac{h}{1-h} = \sqrt{K_{gidr}} = \frac{\sqrt{1 \cdot 10^{-14}}}{\sqrt{1,79 \cdot 10^{-5} \cdot 1,2 \cdot 10^{-15}}} = 682,3$$


yoki

$$h = \frac{K_{gidr}}{1 + \sqrt{K_{gidr}}} = \frac{682,3}{683,3} = 0,9985 \text{ yoki } 99,85 \%$$

Ammoniy sulfid eritmasida gidroliz nihoyatda kuchli boradi. Unga halaqt berish uchun ammoniy sulfid eritmasiga laboratoriyalarda ammoniy gidroksid qo'shib qo'yiladi.

**3-masala.** Agar eritmada 400 ta ion bo'lsa, dissotsilanmagan natriy sulfat molekulalar sonini hisoblang. ( $\alpha = 90 \%$ ).

**Yechish:** dastlab natriy sulfat tuzini dissotsilanish tenglamasi yozib olinadi:



1) Elektrolitning dissotsilanish darajasidan foydalanib, dissotsilanmagan ionlar soni hisoblanadi.

$$\begin{array}{l} 400 \text{ --- } 90 \% \\ x = 44 \text{ --- } 10 \% \\ 2) \quad \text{Na}_2\text{SO}_4 \leftrightarrow 2\text{Na}^+ + \text{SO}_4^{2-} \\ 1 \text{ mol} \text{ --- } 3 \text{ ta ion} \\ x = 14.8 \text{ --- } 44.4 \text{ ta ion} \end{array}$$

**Javob : 14.8**

### Mustaqil yechish uchun masalalar

503. Qaysi moddalar gidrolizga uchraydi?
- 1) oqsil; 2) kaliy sulfat; 3) natriy gidrokarbonat; 4) natriy xlorid; 5) kraxmal; 6) fruktoza; 7) nuklein kislota; 8) natriy nitrat
504. Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil bo'ladi?
- 1) natriy peroksid; 2) alyuminiy nitrat; 3) magniy xlorid; 4) kaliy gidrid; 5) natriy gidrokarbonat; 6) rux sulfat.
505. Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?
- 1) natriy nitrat; 2) ammoniy nitrat;
  - 3) kaliy sulfat; 4) alyuminiy sulfat;
  - 5) litiy xlorid; 6) ammoniy xlorid.
506. Qaysi qatorda faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlar keltirilgan?
- 1) kalsiy karbonat, kalsiy sulfat, kalsiy atsetat
  - 2) ammoniy xlorid, ammoniy sulfat, ammoniy atsetat
  - 3) kaliy karbonat, kaliy sianid, kaliy gidrokarbonat
  - 4) rux xlorid, rux nitrat, rux sulfat
507. Quyida berilgan birikmalardan faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini belgilang.
- 1) natriy karbonat; 2) magniy sulfat; 3) kaliy sulfit;
  - 4) ammoniy nitrat; 5) litiy xlorid; 6) rux xlorid.
508. Qaysi tuzlar faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?
- 1) magniy xlorid; 2) kaliy atsetat; 3) ammoniy atsetat; 4) kaliy sianid;
  - 5) natriy nitrit; 6) ammoniy sulfat; 7) alyuminiy nitrat.
509. Quyida berilgan birikmalardan faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini tanlang.
- 1) natriy karbonat; 2) magniy sulfat; 3) kaliy sulfit; 4) ammoniy nitrat;
  - 5) litiy xlorid; 6) rux xlorid.
510. Quyidagi moddalardan qaysilari gidrolizga uchraydi?
- 1) DNK; 2) metakril kislota; 3) nukleozid; 4) glukoza; 5) selluloza;
  - 6) metilmetakrilat.
511. Natriy gidrokarbonat, alyuminiy nitrat va natriy sulfat eritmalariga lakkus qo'shilganda ularning rangi (berilgan tartibda) qanday o'zgaradi?
- 1) rangi o'zgarmaydi; 2) ko'k rangga kiradi; 3) qizil rangga kiradi;
  - 4) sariq rangga kiradi,

512. Qaysi qatordagi tuzlarning barchasi gidrolizga uchraydi?  
1) natriy karbonat, mis(II) sulfat, kaliy atsetat, litiy sulfat  
2) ammoniy xlorid, ammoniy karbonat, kalsiy atsetat, natriy sulfit  
3) rux xlorid, rux nitrat, natriy sulfat, kaliy sulfid  
4) ammoniy sulfat, natriy xlorid, alyuminiy nitrat, kaliy sianid
513. Quyidagi moddalardan qaysilari gidrolizga uchramaydi ?  
1) DNK; 2) metakril kislota; 3) nukleozid; 4) glukoza; 5) selluloza;  
6) metilmetakrilat.
514. Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil bo'ladi?  
1) natriy sulfat; 2) natriy sulfit; 3) natriy karbonat; 4) natriy atsetat;  
5) natriy xlorid; 6) natriy nitrat.
515. Qaysi qatorda faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlar keltirilgan?  
1) kaliy karbonat, kaliy sianid, kaliy gidrokarbonat  
2) kalsiy karbonat, kalsiy sulfat, kalsiy atsetat  
3) rux xlorid, rux nitrat, rux sulfat  
4) ammoniy xlorid, ammoniy sulfat, ammoniy atsetat
516. Quyida berilgan birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini belgilang.  
1) ammoniy atsetat; 2) magniy xlorid; 3) kaliy karbonat; 4) ammoniy nitrat;  
5) alyuminiy karbonat; 6) ammoniy sulfat
517. Natriy gidrokarbonat, alyuminiy nitrat va natriy sulfat eritmalariga fenolftalein qo'shilganda ularning rangi (berilgan tartibda) qanday o'zgaradi?  
1) rangi o'zgarmaydi; 2) ko'k rangga kiradi; 3) to'q qizil rangga kiradi;  
4) sariq rangga kiradi.
518. Quyida berilgan birikmalardan faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini belgilang.  
1) ammoniy atsetat; 2) magniy xlorid; 3) kaliy karbonat; 4) ammoniy nitrat;  
5) alyuminiy karbonat; 6) ammoniy sulfat
519. Kaliy gidroksid berilgan moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi?  
1) sulfat kislota; 2) kaliy oksid; 3) natriy gidroksid; 4) temir(II) gidroksid;  
5) alyuminiy oksid; 6) kislorod; 7) nitrat kislota.
520. Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?  
1) alyuminiy nitrat; 2) natriy karbonat; 3) ammoniy atsetat; 4) rux sulfat;  
5) ammoniy sulfat; 6) kaliy karbonat; 7) natriy sianid; 8) magniy nitrat.
521. Qaysi birikmalar suvda eritiiganda neytral muhit hosil bo'ladi?  
1) natriy sulfat; 2) natriy sulfit; 3) natriy karbonat; 4) natriy atsetat;  
5) natriy xlorid; 6) natriy nitrat
522. Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?  
1) magniy xlorid; 2) kaliy atsetat; 3) ammoniy atsetat; 4) kaliy sianid;  
5) natriy nitrit; 6) ammoniy sulfat; 7) alyuminiy nitrat.
523. Kaliy karbonat, kaliy xlorid va kaliy sulfid eritmalmi qaysi modda yordamida farqlash mumkin?
524. Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil qiladi?  
1) natriy; 2) natriy nitrat; 3) kaliy peroksid; 4) litiy xlorid; 5) kaliy sulfat;

- 6) natriy gidrokarbonat.
525. Natriy gidroksid, sirka kislota va natriy peroksid eritmalariga lakkus qo'shilganda ularning rangi (berilgan tartibda) qanday o'zgaradi?  
1) rangi o'zgarmaydi; 2) ko'k rangga kiradi; 3) qizil rangga kiradi;  
4) sariq rangga kiradi
526. Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?  
1) alyuminiy karbonat; 2) natriy sulfat; 3) magniy xlorid; 4) litiy sulfat;  
5) natriy gidrokarbonat; 6) natriy gidrid.
527. Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?  
1) natriy; 2) natriy nitrat; 3) kaliy peroksid; 4) litiy xlorid; 5) kaliy sulfat;  
6) natriy gidrokarbonat.
528. Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?  
1) natriy sulfat; 2) ammoniy nitrit; 3) litiy nitrat; 4) alyuminiy karbonat;  
5) kaliy xlorid; 6) ammoniy atsetat.
529. Quyidagi birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini tanlang.  
1) natriy nitrat; 2) ammoniy karbonat; 3) kaliy sulfat; 4) alyuminiy sulfid;  
5) litiy xlorid; 6) ammoniy atsetat.
530. Qaysi tuzlar faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?  
1) alyuminiy nitrat; 2) natriy karbonat; 3) ammoniy atsetat; 4) rux sulfat;  
5) ammoniy sulfat; 6) kaliy karbonat; 7) natriy sianid; 8) magniy nitrat.
531. Quyidagi birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini aniqlang.  
1) natriy sulfat; 2) ammoniy atsetat; 3) litiy nitrat; 4) alyuminiy karbonat;  
5) kaliy xlorid.


## XIV BOB

### XIV. ELEKTROKIMYO

#### XIV.1. Elektrod potensiallari haqida tushuncha. Metallarning kuchlanishlar qatori.


Agar metall plastinkasi shu metall tuzi eritmasiga, yoki suvga tushurilganda quydagi ikki jarayonning biri sodir bo`ladi.

1. Agar metall qaytaruvchi bo`lsa, suv ionlari ta`sirida eritmaga ko`chib o`tadi.



$Me^{n+} \cdot m H_2O$  eritmaga o`tadi,  $n e^-$  - esa metall plastinkasida qoladi. Bunda elektrod manfiy, unga tegib turgan eritma esa musbat zaryadlanadi.

2. Agar metall kuchsiz qaytaruvchi bo`lsa, uning eritmadiagi ionlari kuchli oksidlovchi bo`ladi. Ionlarning bu qismi metall plastinka sirtiga kelib, undan erkin elektronlarni biriktirib oladi va qaytariladi.



Bunda metall plastinka (elektrod) musbat, unga tegib turgan eritma esa manfiy zaryadlanadi.

Har ikkala holatda ham metall bilan eritma orasida qo`sh elektr qavati hosil bo`ladi.

Metal-eritma chegarasida hosil bo`lgan potensial elektrod potensiali deyiladi.

Har bir metallning eritmasiga tushurilganda hosil bo`ladigan potensialni o`lchash mumkin emas.

Buning uchun potensiali ma`lum bo`lgan solishtirma elektrodlardan foydalilanadi. Ko`proq bu maqsad uchun standart vodorod elektroddan foydalilanadi. Uning standard sharoidlardagi potensiali nolga teng deb qabul qilingan.

Har bir elektrodning potensiali metall tabiatiga, metall tuzi tarkibida shu metall kationlari konsentrasiyasiga va temperaturaga bog`liq bo`ladi.

- O`z tuzi eritmasiga tushirilgan metallning, eritmada shu metall ionlari konsentrasiysi mol/l va temperatura  $298^\circ K$  dan potensiali shu metallning standart elektrod potensiali  $E^\circ$  deyiladi.

Metallarning standart elektrod potensiali algebraik qiymati ortib boorish tartibida joylashtirilgan qatori metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori deyiladi.

## Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori

Atomlarning elektron berish qobiliyati	Li	K	Ca	Na	Mg	Al	Mn	Zn	Cr	Fe	Ni	Sn	Pb	(H)	Cu	Hg	Ag	Pt	Au
	Ortadi																		
Ionlarning electron biriktirish qobiliyati	+ Li	+ K	$2+$ Ca	+ Na	$2+$ Mg	$3+$ Al	$2+$ Mn	$3+$ Zn	$3+$ Cr	$2+$ Fe	$2+$ Ni	$2+$ Sn	$2+$ Pb	+ (H)	$2+$ Cu	$2+$ Hg	$+$ Ag	$2+$ Pt	$3+$ Au
	Ortadi																		
Kislotalar bilan o`zaro ta`siri	Suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi																Suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi		
Suv bilan o`zaro ta`siri	Odatdagi temperaturada vodorod ajralib chiqadi va gidroksid hosil bo`ladi	Qirdirilganda vodorod ajralib chiqadi va oksidlar hosil bo`ladi	Suvdan vodorodni siqib chiqarmaydi	Qizdirilganda konsentrangan nitrat va sulfat kislotalari bilan ta`sirlashadi.	Kislotalar bilan ta`sirlash maydi, “zar suvi” da eriydi.														

## Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori

Metall	Elektrod reaksiyasi	$E^0, \text{B}$
Li	$\text{Li} \rightleftharpoons \text{Li} + e$	-3,05
K	$\text{K} \rightleftharpoons \text{K}^+ + \bar{e}$	-2,92
Ba	$\text{Ba} \rightleftharpoons \text{Ba}^{2+} + 2\bar{e}$	-2,90
Sr	$\text{Sr} \rightleftharpoons \text{Sr}^{2+} + 2\bar{e}$	-2,89
Ca	$\text{Ca} \rightleftharpoons \text{Ca}^{2+} + 2\bar{e}$	-2,87
Na	$\text{Na} \rightleftharpoons \text{Na}^+ + \bar{e}$	-2,71
Mg	$\text{Mg} \rightleftharpoons \text{Mg}^{2+} + 2\bar{e}$	-2,36
Al	$\text{Al} \rightleftharpoons \text{Al}^{3+} + 3\bar{e}$	-1,66
Mn	$\text{Mn} \rightleftharpoons \text{Mn}^{2+} + 2\bar{e}$	-1,18
Zn	$\text{Zn} \rightleftharpoons \text{Zn}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,76
Cr	$\text{Cr} \rightleftharpoons \text{Cr}^{3+} + 3\bar{e}$	-0,74
Fe	$\text{Fe} \rightleftharpoons \text{Fe}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,44
Cd	$\text{Cd} \rightleftharpoons \text{Cd}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,40
Co	$\text{Co} \rightleftharpoons \text{Co}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,28
Ni	$\text{Ni} \rightleftharpoons \text{Ni}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,25
Sn	$\text{Sn} \rightleftharpoons \text{Sn}^{2+} + 2\bar{e}$	-0,14
Pb	$\text{Pb} \rightleftharpoons \text{Pb}^{3+} + 2\bar{e}$	-0,13
Fe	$\text{Fe} \rightleftharpoons \text{Fe}^{3+} + 3\bar{e}$	-0,04
H	$\text{H}_2 \rightleftharpoons 2\text{H}^+ + 2\bar{e}$	0,00
Cu	$\text{Cu} \rightleftharpoons \text{Cu}^{2+} + 2\bar{e}$	+ 0,34
Hg	$2 \text{Hg} \rightleftharpoons \text{Hg}_2^{2+} + 2\bar{e}$	+ 0,79
Ag	$\text{Ag} \rightleftharpoons \text{Ag}^+ + \bar{e}$	+ 0,80
Hg	$\text{Hg} \rightleftharpoons \text{Hg}^{2+} + 2\bar{e}$	+ 0,85
Pt	$\text{Pt} \rightleftharpoons \text{Pt}^{2+} + 2\bar{e}$	+ 1,20
Au	$\text{Au} \rightleftharpoons \text{Au}^{3+} + 3\bar{e}$	+ 1,50

Har bir metall elektrod potensialining kattaligi va qo'sh qavatning ishoralari ayni sistemani tashkil etuvchi metall tabiatiga bog'liq. Bundan tashqari, uning kattaligi temperaturaga, eritmadiagi tuz konsentrasiyasiga va boshqa xususiyatlariga ham bog'liq. Shu sababli, turli sistemalarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo`lish uchun standart sharoit (temperatura 25°C yoki, 298,15 K, bosim 101,325 kPa) da metall ionining aktivligi 1 ga teng (taxminan 1 molyar eritma) bo`lgan konsentrasiyasi qabul qilingan.

Shunday sharoitda metallning elektrod potensiali  $E^0$  bilan boshqa sharoitlarni bog`lovchi tenglama Nernst formulasi orqali ifodalanadi.

$$E = E^0 + \frac{R \cdot T}{Z \cdot F} \ln C \quad \text{yoki} \quad E = E^0 + 2,303 \frac{R \cdot T}{Z \cdot F} \lg C$$

Bu formulalarda  $R$  – universial gaz doimiysi (8,31 Joul, gradus<sup>-1</sup>·mol<sup>-1</sup>),  $T$  – absolyut shkala bo`yicha temperatura,  $C$  – tuz eritmasining molyar konsentrasiyasi,

$F$  – Faradey soni (96485 kulon yoki amper sekund),  $Z$  – metallning har bir atomi beradigan yoki ionning qabul qiladigan elektronlar soni. Normal yoki standart holat uchun Nernst formulasi:

$$E = E^{\circ} + \frac{0,0592}{Z} \lg C \text{ shaklida yoziladi}$$

Agar  $C = 1 \text{ mol} \cdot \text{l}^{-1}$  bo`lsa,  $E = E^{\circ}$  bo`ldi. Demak shunday sharoitda hosil bo`lgan potensial metallning standart potensiali bo`ladi. Ularning qiymatlari II – jadvalda keltirilgan.

## XIV.2. Galvanik elementlar.

Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarining kimyoiy energiyasini elektr energiyaga aylantiradigan elementlar Galvanik elementlar deyiladi. Birinchi Galvanik element 1800 yilda kashf etilgan va 1870 yilda takomillashtirilgan varianti A.Volt tomonidan yaratilgan. Uning Galvanik elementi mis va rux plastinkalaridan iborat bo`lib, ularning orasiga sirka kislota qo`yilgan edi. Keyinchalik mis va rux plastinkalarini ularning tuzlari eritmasiga tushirib, yangi Galvanik element zanjiri olindi. Bu element Daniel – Yakobi elementi deyiladi. Bunday elemenetlarning elektr yurituvchi kuchi (EYUK) musbat (oksidlovchi) sistemalarning potensiallari farqi bilan ifodalanadi.

$$\text{EYUK} = E_1 - E_2$$

Metallarning standart elektrod potensiallari ( $E^{\circ}$ ) ma`lum bo`lsa, har qanday Galvanik elementning EYUK ni hisoblash qiyin emas. Buning uchun elektrod potensiali katta bo`lgan metall potensialidan kichik potensialini ayrish kerak.

Masalan, o`zining 1 m eritmasiga tushurilgan temir va mis elektrodlaridan tuzilgan elementning EYUK quyidagicha hisoblanadi.


$E^{\circ}_{\text{Fe}^{2+}/\text{Fe}} = -0,44 \text{ v}; E^{\circ}_{\text{Cu}^{2+}/\text{Cu}} = 0,34 \text{ v}$  ekanligi 27 – jadvaldan topamiz. So`ngra EYUK ni hisoblaymiz.

$$\text{EYUK} = 0,34 - (-0,44) = 0,78 \text{ v}$$

## XIV.3. Metallarning normal elektrod potensiallari va metallarning kuchlanishlar qatori.

Galvanik elementlarning tuzilishini quyidagi sxemalar orqali ifodalash qabul qilingan.

1. Daniel – Yakobi elementi uchun:




2. Vodorod, xlor kumushli elektrodlardan tashkil topgan galavanik element uchun:




3. Oksidlanish – qaytarilish sistemalaridan tashkil topgan galavanik elementlar uchun:

Masalan,  $\text{FeCl}_3$  ning  $\text{SnCl}_2$  bilan peaksiyaga kirishib  $\text{FeCl}_2$  va  $\text{SnCl}_4$  hosil bo`lishi bilan boradigan jarayon:



Bu reaksiyada  $\text{Fe}^{3+}$  - oksidlovchi  $\text{Sn}^{2+}$  esa qaytaruvchi. Agar ikkita Pt elektrodlar eritmalarga tushurilsa, ularda potensiallar farqi paydo bo`lishi kuzatiladi. (Eritmalar o`zaro  $\text{KCl}$  eritmasi orqali tutashtirilgan).



Galvanik element sxemasini tuzish mumkin.

#### XIV.4. Elektroliz. Faradey qonunlari.


Qizdirib suyuqlantirilgan elektrolit, yoki uning suvdagi eritmasi orqali elektr toki o`tkazilganda sodir bo`ladigan oksidlanish – qaytarilish jarayoni elektroliz deb ataladi.

Ma`lumki. Har qanday elektrolit eritmasi kation va anionlardan tashkil topgan bo`ladi. Agar ana shunday eritmaga musbat va manfiy elektrodlar (anod va katod) tushurilsa, eritmadagi ionlar harakati ma`lum tartibga kiradi: anionlar anodga, kationlar katodga tomon harakat qiladi. Kationlar katodga borib, yndan elektron oladi, anionlar esa aksincha ortiqcha elektronlarni anodga beradi; katodda qaytarilish, anodda oksidlanish jarayoni sodir bo`ladi. Natijada, elektroliz mahsulotlari erkin holda ajralib chiqadi yoki o`zaro (yoki erituvchi bilan) kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Ko`pincha, tuz, kislota va ishqorlar elektroliz qilinganda, o`sha moddalar tarkibiga kirgan elementlar ajralib chiqadi. Masalan,  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{KNO}_3$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kabi moddalarning eritmalari elektroliz qilinganda vodorod va kislorod ajralib chiqadi. Metallarning kuchlanishlar qatorida vodoroddan chapda turgan  $\text{K}$ ,  $\text{Na}$ ,  $\text{Ca}$ ,  $\text{Mg}$  va  $\text{Al}$  metallarining birikmalari elektroliz qilinganda katodda gaz holatidagi vodorod ajralib chiqadi;



chunki bu metallarning standart elektrod potensiallari bilan vodorodning potensiali orasida katta farq bor. Vodorod ajralib chiqqan sari eritmadagi suvning yangi molakulalari dissosilanaveradi, buning natijasida katod yaqinida gidroksid ionlari to`planib, eritma ishqoriy reaksiyaga ega bo`ladi. Shu sababli osh tuzi eritmasi elrktroliz qilinganda katod yaqinida  $\text{NaOH}$  hosil bo`ladi.

Manfiy ionlar, shu jumladan, gidroksid ionlari ham, anodga tomon harakat qiladi. Agar manfiy ion tarkibida kislorod bo`lsa (masalan,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$  va hakazo), elektroliz vaqtida anodda kislorod ajralib chiqadi. Buning sababi gidroksid ionlarining zaryadsizlanishidir:



Gidroksid ionlari parchalangan sari suvning yangi molekulalari dissosilanaveradi: natijada anod yaqinida vodorod ionlarining konsentrasiyasi ortib ketadi.

Kation va anionlarning elektrodlarda qaytarilishi (katodda) va oksidlanishi (anodda) ma`lum tartibga ega:

## Kationlar:

$K^+$
$Ca^{2+}$
$Na^+$
$Mg^{2+}$
$Al^{3+}$
$Zn^{2+}$
$Fe^{2+}$
$Sn^{2+}$
$Pb^{2+}$
$H_3O^+ (H^+)$
$Cu^{2+}$
$Ag^+$
$Au^{3+}$

Katodda zaryadsizlanishning  
( $Me^{n+} + ne^- \rightarrow Me^0$ )  
osonlashib  
borishi

Metallarning  
kimyoviy  
aktivligi  
( $Me \rightarrow Me^{n+} + ne^-$ )  
ortib boradi

## Anionlar:


$F^-$
$NO_3^-$
$SO_4^{2-}$
$Cl^-$
$Br^-$
$I^-$
$HO^-$

Elektrokimyoviy jarayon sxemasi  $Me \rightarrow Me^{n+} + ne^-$  tarzida bo`lgan jarayonlar, odatda anod metallardan yasalgan holda kuzatiladi va bu jarayon katodda bo`ladigan reaksiyaning teskarisidir. Katodda sodir bo`ladigan reaksiyalarda kationning suv molekulalari bilan gidratlanish energiyasi hisobga olinishi kerak, masalan, natriy kalsiyidan elektrokimyoviy qatorda pastroqda joylashgan bo`lsa ham, natriy suv bilan kalsiyiga nisbatan aktivroq ta`sirlashadi. Buning sababi kalsiy birikmali suvda natriynikiga nisbatan kamroq erishi bo`lishi mumkin, shu tufayli metallarni suv bilan ta`sirlashish tezligi hosil bo`lgan moddalarning erish tezligi bilan ham bog`liq bo`lishi kerak.

Elektrolitlar eritmalarida boradigan elektroliz jarayonlari ma`lum umumiyl qoidalarga amal qiladi.

Elektroliz vaqtida katodda sodir bo`ladigan jarayonlar quydagagi tartibda boradi:

1. Agar eritmada oksidlanish potensiali vodorodning oksidlanish potensialidan kichik bo`lgan kationlar (aktivlik qatorida  $Li^+$  dan  $Al^{3+}$  gacha) bo`lsa, jarayon katodda suv molekulalari qaytarilishi bilan boradi va metall ionlari eritmada o`zgarishsiz qoladi.




2. Elektroliz borayotgan eritmada oksidlanish potensiali vodorodnikidan kichik, lekin Al nikidan katta bo`lgan kationlar ( $Al^{3+}$  dan  $Pb^{2+}$  gacha) bo`lsa, u holda katodda bir vaqtning o`zida ham vodorod ionlari, ham metall kationlari qaytariladi.

3. Eritmada oksidlanish potensiali vodorodnikidan yuqori bo`lgan metall kationlar ishtirok etsa, elektroliz vaqtida katodda avval shu kation qaytariladi. (Aktivlik qatorida bu kationlar  $H^+$  - dan keyin joylashgan).

Elektroliz vaqtida katodda sodir bo`ladigan jarayonlar quydagicha tartibda amalga oshadi:

1. Elektroliz borayotgan eritmada kislorodsiz kislotalarning anionlari  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $J^-$ ,  $F^-$  bilan birga  $H_2O$  – molekulalari mavjud bo`lsa, anodda kislorodsiz kislota anionlari oksidlanadi.

2. Agar elektroliz borayotgan eritmada kislorodli kislotalar anionlari;  $SO^{2-}_4$ ,  $CO^{2-}_3$ ,  $PO^{3-}_4$ ,  $NO^-_3$  ishtirok etsa, bu anionlarning oksidlanish potensiallari suv molekulasining oksidlanishi potensiallaridan katta bo`lgani uchun, anodda dastlab  $H_2$  molekulalari oksidlanadi.



#### **XIV.5. Faradeyning elektrolizga oid qonunlari.**

Elektrolit eritmalari yoki suyuqhanmalari orqali elektr toki o`tkazilganda anod va katorra ajralib chiqadigan moddalar miqdori bilan eritmada o`tgan tok kuchi orasida o`zaro miqdoriy bog`lanish borligini 1836 yilda ingliz olimi M.Faradey aniqladi.

Jumladan u fanga birinchi marta elektrolit, elektroliz, elektrod, anod, katod, anion kabi tushunchalarini kiritdi.

M.Faradey olib borgan tajribalarini umumlashtirib quydagи qonunlarni kashf etdi.

#### **Faradeyning I – qonuni.**

Elektroliz jarayonida elektrodlarda ajralib chiqadigan modda miqdori eritmada o`tgan elektr toki miqdoriga to`g`ri proporsional bo`ladi.

$$m = KQ \quad (1)$$

$$Q = I t \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamadan:

$$m = K I t \quad (3)$$

kelib chiqadi.

$Q$  – elektr miqdori

$I$  – tok kuchi

$t$  – vaqt

$K$  – ayni elementning elektrokimyoviy ekvivalenti, yani

$$K = \frac{m}{Q} \quad (4)$$

$K$  – eritma orqali 1 Kulon elektr toki o`tganda ajralib chiqadigan modda miqdori.  
(2/Kulon)

#### **Faradeyning II – qonuni.**

Turli kimyoviy birikmalardan, elektroliz vaqtida bir xil miqdorda elektr toki o`tganida elektrodlarda ekvivalent miqdorda modda ajralib chiqadi, yoki chiqishi uchun elektrolit eritmasi yoki suyuqlanmasidan 96500 kulon elektr toki o`tkazish kerak.

$$K = \frac{1}{96500} \cdot E \quad (5)$$

Faradeyning I va II qonunlarini umumlashtirib, (1,2) va (5) tenglamalrdan foydalanib, quyidagi ifodaga ega bo`lamiz:

$$m = \frac{E \cdot Q}{96500} \quad (6)$$

$$m = \frac{E \cdot I \cdot t}{96500} \quad (7)$$

E – moddaning kimyoviy ekvivalenti

Q – elektr miqdori

t – vaqt

m – qaytarilgan yoki oksidlangan modda miqdori

(7) formulani gazsimon moddalar uchun quydagicha yoziladi.

$$V = \frac{V_E \cdot I \cdot t}{F} \quad (8)$$

V – ajralib chiqqan gazning miqdori, ml, l.

$V_E$  – ajralib chiqayotgan gazning ekvivalent hajmi.


Agar bir idishga  $\text{AgNO}_3$ , ikkinchisiga  $\text{HCl}$ , uchunchisiga  $\text{CuSO}_4$ , to`rtinchisiga  $\text{FeCl}_3$  eritmalar quyib, har qaysi idishga bir xil moddadan yasalgan elektrod plastinkalari tushirilib, barcha elektrodlar ketma – ket ulanib, so`ngra sistema orqali 96500 kulon elektr toki o`tganda birinchi elektrolizerda 108 g Ag va 8 g  $\text{O}_2$ , ikkinchisida 1 gr  $\text{H}_2$  va 35,46 gr  $\text{Cl}_2$ , uchunchisida 31,8 gr Cu va 8 gr  $\text{O}_2$ , to`rtinchisida 18,66 gr Fe va 35,46 gr  $\text{Cl}_2$  ajralib chiqadi.

### Namunaviy masalalar

**1-masala.** Birinchi elektrolizyorda 1 mol, ikkinchi elektrolizyorda 2 mol mis(II)sulfat bo`lgan eritmalar orqali 4 faradey tok o`tganda katodlarda hosil bo`lgan moddalar massalarini (gr) da aniqlang.

**Yechish:**

1) Dastlab elektroliz tenglamasi yoziladi:



Masalani yechishda Faradeyning (II) – qonunidan foydalanilinadi.

2) 1 – elektrolizyor uchun 1 mol tuz borligi uchun unga 2 Faradey tok sarflandi, qolgan 2 Faradey tok esa shu eritmadi suv elektrolizi uchun sarf bo`ladi. Shunga asoslanib, 1 – elektrolizyor katodidagi  $\text{H}_2$  va Cu massalari topiladi.

$$2 \cdot 1 = 2 \text{ gr H}_2 \quad 2 \cdot 32 = 64 \text{ gr Cu} \quad 64 + 2 = 66 \text{ gr modda ajralgan}$$

3) 2 – elektrolizyorda 2 mol tuz bo`lganligi uchun unga 4 Faradey tok to`liq sarf bo`lib ketadi. Demak, suv elektrolizi uchun tok yetishmaydi, bunda tok faqat Cu ajralishi uchun sarflanadi.


2 – elektrolizyorda:  $4 \cdot 32 = 128$  gr Cu ajraladi

**Javob: 1-elektrolizyorda 66gr; 2 – elektrolizyorda 128gr.**

**2 – masala.** 458,7 gr suvda 73,3 gr  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{CdSO}_4$  aralashmasi eritildi. Kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritmadaan 2 A kuchga ega bo‘lgan tok 24125 sekund davomida o‘tkazilgan bo‘lsa, aralashmadagi tuzlarning massalarini toping.

**Yechish:**

1) Elektroliz tenglamasi yoziladi:



$$2) \text{ Elektrokimyoviy ekvivalent mol topiladi: } N = \frac{Q}{F} = \frac{24125 \cdot 2}{96500} = 0,5 \quad Q = it$$

$$3) \text{ Bundan Cd ning massasi topiladi: } m = E \cdot N = 56 \text{ ekv} \cdot 0,5 = 28$$

$$4) \text{ Cd massasidan } \text{CdSO}_4 \text{ topiladi}$$

$$208 \text{ gr } \text{CdSO}_4 \quad \frac{}{} \quad 112 \text{ gr Cd}$$

$$x \text{ CdSO}_4 \quad \frac{}{} \quad 28 \text{ gr Cd} \quad x = 52 \text{ gr } \text{CdSO}_4$$



$$5) \text{ umumiyl massa } 73,3 \text{ gr bo‘lganligi uchun } \text{Na}_2\text{SO}_4 \text{ massasi: } m = 73,3 - 52 = 21,3 \text{ gr ekanligi kelib chiqadi.}$$

**Javob: 52gr  $\text{CdSO}_4$ ; 21,3 gr  $\text{Na}_2\text{SO}_4$**

**3 – masala.** 200ml 0,1 M  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  va 300ml 0,1 M  $\text{AgNO}_3$  eritmalarining aralashmasi 4 A tok kuchi bilan 965 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmadaagi tuzning massasini (gr) toping.

**Yechish:**

1) Reaksiya tenglamalari yoziladi:



2) Dastlab molyar konsentratsiyani topish formulasidan keltirib chiqarilgan massani topish formulasidan, tuzlarning massalari aniqlanadi.

$$m = \frac{C_m \cdot M_r \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 188 \cdot 200}{1000} = 3,76 \text{ gr } \text{Cu}(\text{NO}_3)_2$$

$$m = \frac{C_m \cdot M_r \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 170 \cdot 300}{1000} = 5,1 \text{ gr } \text{AgNO}_3$$

3) Beketov qatorida Ag, Cu dan keyin turganligi uchun dastlab kumushga ketgan tok kuchi aniqlanadi:

$$J = \frac{m \cdot F}{E \cdot t} = \frac{5,1 \cdot 96500}{170 \cdot 965} = 3 \text{ A}$$

Demak, Ag ajralib chiqishi uchun 2 A tok ketgan bo‘lsa, Cu chiqishi uchun :  $4A - 3A = 1A$  tok kuchi qoladi.

$$m = \frac{E \cdot J \cdot t}{F} = \frac{94 \cdot 1 \cdot 965}{96500} = 0,94 \text{ gr Cu}$$

Dastlabki  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  dan elektrolizga uchragan tuz massasi ayrilsa, qolgan tuzning massasi kelib chiqadi:

$$3,76 - 0,94 = 2,82 \text{ gr } \text{Cu}(\text{NO}_3)_2$$

**Javob: 2,82gr  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$**

**4 – masala.** Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> 600gr 12 % li eritmasi elektraliz qilinganda anodda 29,55 litr (0°C, 101,3 kPa) gaz ajraldi. Elektrolizdan so‘ng eritmadi modda massa ulushini (%) da aniqlang.


**Yechish:**

1) Tuzlarning massalari topiladi:

$$m(Cu(NO_3)_2) = 600 \cdot 0,12 = 72 \text{ gr}$$

2) 72gr tuzdan qancha hajm O<sub>2</sub> ajralganligi topiladi:

$$72 \text{ gr} \quad x = 4,3 \text{ litr}$$



$$188 \text{ gr} \quad 11,2 \text{ litr}$$

Anodda 29,55 litr gaz ajralganligiga asoslanib, 29,55 litr – 4,3 litr = 25,25 litr suvdan ajralgan O<sub>2</sub> deb qabul qilinadi.


3) Bundan elektrolizga uchragan suv massasini topamiz:

$$x = 40,58 \text{ gr} \quad 25,25 \text{ litr}$$



$$36 \text{ gr} \quad 22,4 \text{ litr}$$

